DILNAVOZ YUSUPOVA

ARUZ
VAZNI QOIDALARI VA MUMTOZ POETIKA ASOSLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

DILNAVOZ YUSUPOVA

ARUZ VAZNI QOIDALARI VA MUMTOZ POETIKA ASOSLARI

O'quv qo'llanma

"TA'LIM-MEDIA" NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2019

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHDO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI
2012
2024

I QISM. ARUZ VAZNI QOIDALARI

SO'ZBOSHI O'RNIDA

Bugungi kun adabiyotimizning ma'naviy zamini sanalgan, ming yillik badiiy xazinaga ega mumtoz adabiyotimizni tushunish, his qilish, tahlil va talqin etishda uning asosini tashkil qilgan aruz vaznidan chuqur xabardor bo'lish har bir filolog uchun muhimdir. Shu ma'noda mazkur qo'llanma aruz tizimi, uning mohiyati, nazariy asoslari, rukn, bahr va vaznlar haqida ma'lumot beradi. Biz ushbu qo'llanmani yaratishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratdik:

– aruz haqidagi mukammal ma'lumotlar iloji boricha sodda va qisqa shaklda berildi;

– o'rganishning qulayligini ta'minlash maqsadida aruz alohida mavzularga bo'lindi, mavzular doirasida uslubiy tavsiyalar, tayanch so'zlar va savol-topshiriqlar berib borildi;

– foydalanuvchiga ortiqcha murakkabliklar tug'dirmaslik uchun aruzning faqatgina turkiy she'riyatda keng qo'llanilgan bahrlarigagina e'tibor qaratildi.

Aruzni o'rganish mumtoz adabiyotimizda muhim sanalgan shakl va mazmun uyg'unligini his qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan aruzni o'rganishga kirishgan adabiyot muhiblarining harakatlari samarali bo'lishini chin dildan tilab qolamiz.

Mavzularni chuqur va mustahkam o'zlashtirish uchun quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishingiz maqsadga muvofiq:

1. Dastavval aruzni o'rganish uchun alohida umumiy daftar tuting, o'zlashtirgan bilimlaringizning qisqacha mazmunini yozib, berilgan mashqlarni bajarib boring.

2. To'liq mohiyatini tushunib olguncha har bir qoidani diqqat bilan qayta-qayta o'qing.

3. Har bir mavzudan so'ng savollar berildi. Qoidani tushunib olgach aruz daftaringizga ushbu savolni va uning javobini yozing.

4. Vaznlar tahlilidan so'ng o'tilgan bahrlarni mustahkamlash uchun bayt-

lar berildi. Siz mazkur baytlarni ham daftarga ko'chirib, taqtiyini aniqlang va qaysi vazn namoyon bo'lsa, uning nomini yozing.

Mazkur tavsiyalar muallif faoliyat olib borayotgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti "O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik" kafedrasi qoshidagi "GULSHAN" aruz to'garagining bir necha yillik tajribasi asosida ishlab chiqilgan.

Qo'llanmani tayyorlashda ustoz aruzshunos olimlarimiz, xususan, Anvar Hojiahmedovning aruzga oid "O'zbek aruzi lug'ati", "Aruz nazariyasi asoslari" hamda "Navoiy aruzi nafosati" kitoblaridan foydalanildi, ulardagi tajribalarga murojaat qilindi.

Aruz o'ziga xos murakkab soha, uni o'zlashtirish kishidan qunt va sabrni talab qiladi. Agar tavsiyalarimizga to'la rioya qilsangiz, mumtoz adabiyotimiz xazinasining oltin kalitini qo'lga kiritishingizga umid qilamiz.

Aruzni o'rganishda sizga sabr-toqat, muhabbat, ixlos, eng muhimi, omad yor bo'lishini tilaymiz.

Muallif

ARUZ VAZNI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar:
- ohang
- she'riy vazn
- barmoq vazni
- erkin vazn
- aruz vazni
- badaviylar
- bayt

She'riy vazn tushunchasi

She'r ohang jihatidan ma'lum bir qolipga solingan, ijodkorning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari ifodasi sifatida vujudga kelgan ritmik nutqdir. Nutqning bu tarzda qolipga solinishi *she'riy vazn* yoki she'riy tizim deb ataladi. Vazn nutqni o'lchash, guruhlash va muayyan tizimga solishga xizmat qiladi, uning musiqiyligi va ohangdorligini oshiradi. O'zbek she'riyatida asosan uchta: *barmoq*, *aruz* va *erkin* vaznlar qo'llanilib kelgan.

Har bir millat adabiyotidagi she'riy vaznlar o'sha xalq tilining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shu ma'noda o'zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlariga eng ko'p mos keluvchi she'riy tizim milliy vaznimiz hisoblangan *barmoq* vaznidir. Barmoq vazni misralardagi bo'g'inlar sonining bir xil miqdorda takrorlanishi va guruhlanishiga asoslanadi. Bu tizimda bo'g'inlarning sifati, ochiq yoki yopiqligi muhim emas.

O'zbek she'riyatiga XX asrda kirib kelgan *erkin* vazn esa bo'g'inlar miqdorining turli-tumanligi, qofiyalanish va bandlarda erkinlikka asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Turkiy she'riyatga arab va fors adabiyoti orqali kirib kelgan *aruz* tizimida bo'g'inlarning miqdoridan tashqari qat'iy sifati: cho'ziq va qisqaligi ham muhim ahamiyat kasb etadiki, bu o'zbek kitobxoni uchun muayyan murakkablikni vujudga keltiradi. Qo'llanmamizning asosiy maqsadi esa ana shu murakkablikni muayyan darajada bartaraf etishda she'riyat ixlosmandlariga oz bo'lsa-da ko'maklashishdan iborat.

Aruzning paydo bo'lishi

Arab she'riyati dastavval ko'chmanchi, tuya boqish bilan shug'ullanuvchi arab qabilalari – *badaviylarda* vujudga kelgan. Arab tuyachilari tuyani tezlatish uchun maxsus qo'shiqlar kuylaganlar va bu qo'shiqlar arab xalqlari orasida keng tarqalgan.

VIII asrga kelib arab olimlari orasida she'riyat va xalq og'zaki ijodi orasidagi munosabatni o'rganish, ularning muayyan qonuniyatlarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi. Bu vazifa haqli ravishda «arab filologiyasining otasi» deb e'tirof etiluvchi olim **Xalil ibn Ahmad** (715/719 – 786/791) tomonidan amalga oshirildi. U aruz ilmini bir butun tizim holiga keltirdi va uning nazariy asoslarini ishlab chiqdi.

«Aruz» so'zining ko'plab lug'aviy ma'nolari bor. Adabiy istiloh sifatida ularning qay biri asos qilib olingani aniq emas. Bu borada olim va ijodkorlar tomonidan bir-biridan tubdan farq qiluvchi bir qancha fikrlar bildirilgan. Ulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz:

1. Vodiy nomi.
2. Makka shahrining nomlaridan biri.
3. Taraf, jihat, mintaqa, yon.
4. Bulut.
5. Sarkash tuya.
6. Chodirning o'rta ustuni.
7. O'lchov.

Endi ushbu fikrlarning izohi bilan tanishsak.

Alisher Navoiy o'zining «Mezon ul-avzon» (Vaznlar o'lchovi) asarida aruz ilmining asoschisi Xalil ibn Ahmad yashagan hudud yaqinida Aruz degan vodiy borligi haqida ma'lumot beradi. Bu vodiyda arablar chodirdan uylar tikib, ularni bezatib sotar ekanlar. Uyni «bayt» deb atasharkan. Baytning mavzun-nomavzun (vaznli-vaznsiz) ekanligini aruz fanining o'lchoviga solib ko'rishganidek, bezatilgan uylar ham bahoga solib o'lchab ko'rilar ekan. Shu tariqa mazkur ilm ushbu vodiy nomi bilan «*aruz*» deb atala boshlangan.

Manbalarda, xususan, Sayfiy Buxoriyning "Aruzi Sayfiy" asarida aytilishicha, Xalil ibn Ahmad Makkada o'ziga yangi ilhom ato etilishini tilab duo qiladi. Duosi ijobat bo'lib, aruz ilmiga asos soladi va uni Makkaning nomlaridan biri bo'lgan so'z, ya'ni *Aruz* nomi bilan ataydi.

Aruz she'rshununoslik ilmining bir qismidir. Uning «taraf, yon» degan ma'no anglatishi *she'r ilmining bir tarafi* degan mazmun bilan bog'liq.

Ba'zi rivoyatlarga ko'ra, aruz muammolarning yengil hal etilishiga olib borgan yo'l ramzi bo'lmish bulutga o'xshaydi. She'r vaznining to'g'ri yoki yanglish ekanligi shu ilm orqali aniqlangani uchun ham «aruz» so'zi *bulut* degan ma'noga ham nisbat berilgan.

Aruz vazni *tuya* yurishining ritmidan olingan degan rivoyatlar ham mavjud. Badaviylar tuya sahroda yurishni xohlamay, sarkashlik qilgan paytda

uni lezlatish uchun maxsus qo'shiqlar kuylaganlar va bu qo'shiqlar ohangi aruz vaznining vujudga kelishi uchun asos bo'lgan degan qarashlar bor. Aruz tizimiga xos bo'lgan ko'plab istilohlar ham tuya hayoti bilan bog'liq so'zlar asosida vujudga kelgan deyish mumkin.

Aruz she'riy tizimi arablardan forsiy va turkiy adabiyotga keng yoyildi. Hijratdan keyingi ilk asrlarida Arab xalifaligi butun Eronni fath etdi. Qadimiy Sosoniylar davlati madaniyati tomir otgan bu hududlarga islomiyat va arablar bilan Qur'oni Karim va u ifodalangan til – arab tili kirib keldi. Natijada she'riyatda ham asta-asta arablarga xos yangilanishlar bo'y ko'rsata boshladi.

Turkiy adabiyotda islomdan avval o'ziga xos maxsus nazm texnikasi bo'lgan va bu tizim bo'g'inlar soniga asoslangan. Ushbu tizimda yozilgan she'rlarning aksariyat qismi to'rtliklardan iborat bo'lishi bilan ahamiyatli edi. Kuzatuvlarga ko'ra, turkiy xalqlar ilk bor aruz tizimida qalam tebrata boshlaganlarida barmoq vazn tizimiga yaqin turuvchi vaznlardan foydalangan lar. Aruz muomalaga kirgan ilk davrlarda yozilgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari «Shohnoma» vaznida, ya'ni mutaqorib bahrida yozilgan. Yusuf Xos Hojibning aynan shu o'lchovni tanlashiga sabablardan biri sifatida mutaqorib bahrining turkiy xalqlar she'riy tizimi – barmoqning eng faol shakllaridan bo'lgan o'n bir bo'g'inli vazniga juda uyg'un ekanligini keltirish mumkin. Adib Ahmadning «Hibat ul-haqoyiq» asarida ham ushbu o'lchov to'rtliklar shaklida ifoda etilgan.

Turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatdan shakllanishida buyuk mutafakkir shoir hazrat Alisher Navoiy ijodining o'rni beqiyos. Navoiy o'zining aruz qonun-qoidalariga bag'ishlangan «Mezon ul-avzon» asarida 19 bahr, 160 vazn haqida ma'lumot beradi, har bir vaznga turkiy tilda misollar keltiradi.

Shoir she'riyatining gultoji hisoblanmish «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotining o'zida 13 bahr, 90 ga yaqin vazn istifoda etilgan. Agar bunga buyuk mutafakkirning epik she'riyati, forsiy tildagi she'rlarida qo'llanilgan vaznlarni ham qo'shib hisoblaydigan bo'lsak, mazkur ko'rsatkich 100 dan ortadi. Ularning barchasi aruz tizimi turkiy she'riyatning ajralmas qismiga aylanganligini bildirish barobarida bu she'riy tizimning turkiy til qonuniyatlariga naqadar mos kelishini ham isbotlab beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. She'riy vazn deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday she'riy vaznlarni bilasiz?
3. Aruz she'riy tizimining boshqa she'riy tizimlardan farqlanib turuvchi jihatlarini ayting.
4. Aruzning paydo bo'lishi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
5. Xalil ibn Ahmadning aruzshunoslikdagi xizmati nimalardan iborat?
6. Aruz so'zining ma'nolari haqida so'zlab bering.
7. «Qutadg'u bilig» dostonining mutaqorib bahrida yaratilganligi sabablari haqida nima deya olasiz?
8. Alisher Navoiyning turkiy aruzshunoslikka qo'shgan hissasi haqida to'xtaling.

ARUZ VAZNINING NAZARIY ASOSLARI. QISQA, CHO'ZIQ VA O'TA CHO'ZIQ HIJOLAR

Tayanch tushunchalar:

- bo'g'in
- hijo
- cho'ziq hijo
- o'ta cho'ziq hijo
- qisqa hijo

Hijo va bo'g'inning farqi

Aruz vaznini o'rganishga kirishishimiz uchun, avvalo, bo'g'in va hijoning farqini aniqlab olishimiz zarur. Tilshunoslikda bo'g'in tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: «So'zning bir havo zarbi bilan hosil bo'ladigan qismi bo'g'in hisoblanadi. So'z tarkibidagi bo'g'inlar soni unlilar miqdoriga qarab belgilanadi».

Aruz nazariyasidagi hijo tushunchasi ham tilshunoslikdagi bo'g'in haqidagi bilimlarga asoslanadi, bir hijo tarkibida ham bitta unli mavjud bo'ladi. Ammo ba'zi o'rinlarda bir bo'g'in ikki hijoga teng kelib qolishi ham mumkin. Masalan, *qadr* so'zi bir bo'g'inli bo'lsa-da, aruzda ikki hijoli so'z hisoblanadi. Chunki so'z tarkibida qator undosh kelyapti (*Qator undosh deb bir bo'g'in tarkibida ikki undoshning ketma-ket kelishiga aytiladi*). Shu sababli uni cho'zibroq, iloji bo'lsa, bilinar-bilinmas *i* orttirib talaffuz qilamiz: *qadr*(*i*) tarzida.

Yoki *hech, dod, oh* kabi so'zlar ham gohida vazn talabi bilan ikki hijoga teng hisoblanadi. Shunda bu so'zlarni ham *qadr*mi talaffuz qilganimiz kabi cho'zib, bilinar-bilinmas *i* orttirib aytamiz: *hech*(*i*), *dod*(*i*), *oh*(*i*) tarzida.

Demak, ma'lum bo'lyaptiki, bo'g'in va hijo tushunchalari aksariyat hollarda o'zaro mos kelgani holda ba'zi o'rinlarda bir-biridan farqlanar ekan.

Ana endi aruz tizimidagi hijolar haqida bilib olishimiz zarur bo'ladi. Aruz vaznida 3 xil hijo bor: **cho'ziq, qisqa va o'ta cho'ziq hijolar.**

Cho'ziq hijo

Cho'ziq hijo matnda «–» belgisi bilan ifodalanadi. Bu hijoning ikki xil turi bor:

a) yopiq bo'g'in orqali ifodalanuvchi cho'ziq hijo. Matnda **«men», «el», «mak-tab», «daf-tar»** kabi so'zlar kelsa, ikkilanmasdan ularni yuqoridagi belgi asosida ko'rsatish mumkin. Masalan:

men	el	mak	tab	daf	tar
–	–	–	–	–	–

Demak, bu so'zlarning barchasi cho'ziq hijolardan iborat.

UNUTMANG!

Cho'ziq hijolarni belgilashda bo'g'inning berkitilgan yoxud berkitilmaganligi (unli yo undosh bilan boshlanganligi) e'tiborga olinmaydi.

b) ochiq bo'g'in orqali ifodalanuvchi cho'ziq hijo. Mazkur hijoni cho'ziq unli hosil qiladi. Ma'lumki, tilimizda 6 ta unli tovush mavjud. Ularning cho'ziq yoki qisqalik darajasi nisbiydir. Buni ma'lum bir matn tarkibidagi so'zlarni talaffuz qilishda his qilish mumkin. Faqat «o» unlisi aksariyat holatlarda (deyarli 90 foiz o'rinda) cho'ziq talaffuz etiladi. Masalan: **«bo-bo», «do-no», «sav-do»** kabi so'zlarda «o» unlisi cho'ziq talaffuz etilganligi uchun cho'ziq hijo sifatida qabul qilinadi:

Do	no	bo	bo	sav	do
–	–	–	–	–	–

Qolgan unlilar esa quyidagi holatlarda cho'ziq hijoni hosil qiladi:
– ko'pincha so'zning oxirida;
– qo'shimcha (affiks)lar tarkibida;
– urg'u olganida.

Misol uchun **«ha-yot-ga»** so'zini olib ko'raylik. Bu so'zdagi **«ha-»** va **«-ga»** bo'g'inlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan bir xil darajada: har ikkisi ochiq bo'g'in, har ikkisi «a» unlisi bilan yakunlanyapti. Lekin aruziy matnda **«-ga»** bo'g'ini ***qo'shimcha tarkibida kelganligi*** va ***urg'u olganligi*** uchun **«ha-»** bo'g'inidan ko'ra cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Shu sababli u cho'ziq hijo hisoblanadi. Shu tariqa qolgan unlilar bilan yakunlanuvchi hijolar ham so'z oxirida kelsa ko'pincha cho'ziq hijo hisobiga o'tadi. Masalan, **«jab-ru», «ki-yik-ni»** so'zlaridagi oxirgi bo'g'inlar cho'ziq hijo hisoblanadi va ular matnda quyidagicha belgilanadi:

jab	ru	ki	yik	ni
	–			–

Ushbu so'zlardagi **«jab-», «-yik»** bo'g'inlari cho'ziq hijoning birinchi turiga kiradi, ya'ni yopiq bo'g'inli cho'ziq hijo. Agar bu holni to'liq shaklda ko'radigan bo'lsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

jab	ru	ki	yik	ni
	–		–	–

UNUTMANG!

Kirill alifbosidagi ayirish («ъ»), lotin alifbosidagi tutuq (') belgisi arab alifbosida «ayn» undosh tovushini ifodalagani uchun, o'zbek tilida bu belgi bilan yakunlanuvchi bo'g'inlar (lotin alifbosida yoziladigan *as'hob, mus'haf* so'zlaridagi belgi bundan mustasno) cho'ziq hijo hisoblanadi.

Masalan:

ma'	no	ta'	lim	a'	lo
–				–	

Qisqa hijo

Qisqa hijo matnda «V» belgisi bilan ifodalanadi. Bunday hijo doim ochiq bo'g'inga asoslanadi. Faqat bu hijoni ifodalovchi ochiq hijo, yuqoridagi holatdan farqli o'laroq, qisqa unli bilan yakunlanishi kerak. Demak, bu o'rinda endi «o» unlisining kelish ehtimoli kamroq (10 foizga yaqin hollarda). Tilimizdagi ba'zi so'zlar, xususan, «**bo-shim», «to-pib», «so-tib»** kabi so'zlardagi «o» unlisi qisqa talaffuz qilinganligi uchun qisqa hijo hisoblanadi:

bo	shim	to	pib	so	tib
V		V		V	

Qolgan unlilar (i, e, u, o', a) esa quyidagi holatlarda qisqa hijoni hosil qiladi:

– ko'pincha so'zning boshi va o'rtasida kelganida;
– urg'usiz bo'lganida.

Ya'ni bunday hijo ko'pincha so'zning boshi hamda o'rtasida keladi va urg'u olmaydi. Masalan:

ki	tob	ja	hon	mu	him	ko'	rik	kel	ma	di
V		V		V		V			V	

Qisqa hijoni ochiq cho'ziq hijodan yaxshi ajratib olish uchun unga urg'u berib, ya'ni biroz cho'zib o'qib ko'rish mumkin. Agar sun'iy cho'ziqlik paydo bo'lsa, ya'ni shu so'zning talaffuzi qulog'imizga notabiiy eshitilsa, demak, ushbu hijo qisqa hijo bo'ladi. Masalan, **«kitob»** so'zidagi birinchi hijoning «i» harfini cho'zib o'qib ko'rsak, sun'iy eshitiladi (**kii:tob**). Ko'rinyaptiki, bu so'zdagi birinchi hijo qisqa hijo ekan. Shu tariqa qolgan bo'g'inlarni ham aniqlash mumkin bo'ladi.

O'ta cho'ziq hijo

O'ta cho'ziq hijo matnda «– V» belgisi bilan ifodalanadi. Misra oxirida esa «~» belgisi qo'llaniladi. Bunday belgining qo'yilishiga sabab, odatda, misra qisqa hijo bilan yakunlanmaydi.

Aruzda cho'ziq hijo bir to'liq bo'g'in hisoblansa, qisqa hijo yarim bo'g'inga teng sanaladi:

"–" = 1; "V" = 0,5

Shuni nazarda tutgan holda o'ta cho'ziq hijoni *bir yarim hijo* deyish mumkin:

" – V" = 1,5

Bu hijo ikki xil bo'ladi:

a) qator undosh bilan tugagan yopiq bo'g'in. Bunda bir bo'g'inda ikki turli undoshning ketma-ket kelishi nazarda tutiladi. Masalan, **qadr, mehr, dard, charx, aql** kabi so'zlar qator undoshli so'zlar hisoblanadi. Bu hodisa o'zbek tiliga xos bo'lmay, arab va fors tillaridan kirgan o'zlashma so'zlarda uchraydi. Shuning uchun talaffuzda biz birinchi undoshdan so'ng qisqa «i» unlisini qo'shib aytamiz: **qad(*i*)r, meh(*i*)r**... kabi. Aslida, qisqa «i» unlisi ikkinchi undoshdan so'ng talaffuz qilinishi kerak. Chunki mazkur so'zlarni urg'u asosida talaffuz qilsak, ular tarkibidagi unlini cho'ziq aytishimiz hisobiga bo'g'inning oxirida qisqa «i» unlisi orttiriladi, ya'ni:

Mehr(i), qadr(i), charx(i) va hokazo.

UNUTMANG!

Bunda orttirilayotgan «i» tovushi odatiy talaffuzdagi «i»dan ham qisqa, bilinar-bilinmas talaffuz etiladi. Boshqacha aytganda, o'ta cho'ziq hijodagi ikkinchi undosh alohida holda talaffuz qilinganday taassurot qoldiradi, ya'ni

meh – r, char –x.

Natijada ushbu bo'g'inlarga ikki belgi qo'yiladi:

meh	r(*i*)		qad	r(*i*)		char	x(*i*)
–	V		–	V		–	V

b) tarkibida cho'ziq unlisi bo'lgan yopiq bo'g'in. Bu bo'g'inning oddiy yopiq bo'g'indan farqi shundaki, uning tarkibida nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinuvchi unlilar (aksariyat holatlarda **«o», «e», «u»** tovushlari) qatnashadi. Masalan, **hech, dod, voy** kabi so'zlarni talaffuz qilayotganda bo'g'in oxiridagi undosh tovushdan keyin yuqoridagi kabi qisqa «**i**» qo'shib o'qiladi: **hech**(*i*), **dod**(*i*), **voy**(*i*). Bu so'zlar matnda quyidagicha belgilanadi:

he	ch(*i*)		do	d(*i*)		vo	y(*i*)
–	V		–	V		–	V

Endi savol tug'ilishi tabiiy: biz bu so'zlarni oddiy cho'ziq hijodan qanday farqlaymiz? Bordi-yu shoir uni oddiy cho'ziq hijo sifatida qo'llagan bo'lsa-chi. Bunda bizga misra chizmasi yordam beradi. O'rganishning dastlabki bosqichi uchun shu narsani hisobga olishimiz kerakki, misrada har uchta cho'ziq hijodan keyin bitta qisqa hijo keladi. Masalan, Navoiyning «***Ey mug'anniy, yor bazmida...***» deb boshlanuvchi g'azalidagi kichik bir parchaning hijolar sifatini kuzatsak:

Ey	mu	g'an	niy	yor	baz
–	V	–	–	–	–

Chizmaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qisqa hijodan keyin 4 ta cho'ziq hijoning kelishini ko'rish mumkin. Dastlabki bosqich uchun shuni ta'kidlashimiz lozimki, an'anaviy va keng tarqalgan vaznlarda, odatda, 3 cho'ziq hijodan so'ng yana qisqa hijo kelishi kerak, biz ko'rayotgan misolda esa qisqa hijodan so'ng 4 ta cho'ziq hijo kelyapti. Demak, qayerdadir xatoga yo'l qo'yildi. Misolni qaytadan tekshirib chiqamiz: «**Ey**» – cho'ziq hijo, chunki yopiq bo'g'indan iborat, «**mu**» – qisqa, chunki so'zning boshida kelyapti va urg'u olmayapti, «**g'an**» – cho'ziq, «**niy**» – cho'ziq, «**yor**» – cho'ziq. Shu o'rinda biroz to'xtashimizga to'g'ri keladi, chunki qisqa hijodan keyin 3 ta cho'ziq hijoni aniqlab bo'ldik. Qoidaga ko'ra, endi bizga bir qisqa hijo kerak, uni qayerdan topamiz? Diqqat qaratsak, uchinchi cho'ziq hijo «**yor**» so'zidan iborat. Bu so'z esa «o'ta cho'ziq hijo»ning ikkinchi turi haqidagi qoidaga ko'ra bir yarim bo'g'in bo'lishi kerak. Ko'rinyaptiki, bu o'rinda bizga hijoni to'g'ri aniqlashda misra chizmasining o'zi yordam berdi.

Ana endi hijolar haqidagi bilimlarimizni mustahkamlash uchun Alisher Navoiyning «Navodir ush-shabob» devonidan olingan 105-g'azali matla'sini ko'rib chiqsak:

Hajrdin asru hazinmen, soqiyo, tutqil qadah,
Har necha sog'ar ulug' bo'lsa to'lo, tutqil qadah.

Hai	r(*i*)	din	as	ru	ha	zin	men	so	qi	yo	tut	qil	qa	dah
–	V	–	–	–	V	–	–	–	v	–	V	–	v	–
Har	ne	cha	so	g'ar	u	lug'	bo'l	sa	to'	lo	tut	qil	qa	dah
–	V	–	–	–	V	–	–	–	v	–	V	–	v	–

Misralardagi har bir hijoni alohida o'rganib chiqamiz:

«***Hajr***» – ikki qator undosh bilan tugagan bo'g'in bo'lganligi uchun o'ta cho'ziq hijo sanaladi, shuning uchun undagi ikkinchi undoshdan keyin qisqa «i» unlisini qo'shamiz va ushbu hijoni ikkita belgi bilan ajratamiz: – V, «***din***» – cho'ziq hijo, chunki yopiq bo'g'in, «***as***» ham xuddi shunday, «***ru***» – so'zning oxirida kelganligi va urg'u olganligi uchun cho'ziq hijo hisoblanadi, «***ha***» – qisqa hijo, chunki so'zning boshida kelyapti, urg'u olmayapti va qisqa talaffuz qilinyapti, «***zin***» va «***men***» bo'g'inlari esa undosh bilan tugaganligi, ya'ni yopiq bo'g'in bo'lganligi uchun cho'ziq hijo sanaladi, «***so***» – cho'ziq hijo, chunki yuqorida aytganimizdek, «o» unlisi bilan tugagan bo'g'inlar aksariyat hollarda cho'ziq hijo hisoblanadi. «***qi***» – qisqa hijo, chunki so'zning o'rtasida kelyapti va urg'u olmayapti, «***yo***» ham xuddi «***so***» singari so'zning oxirida kelganligi va «o» unlisi bilan tugaganligi uchun cho'ziq hijodir; «***tut***», «***qil***» bo'g'inlari – cho'ziq hijo, chunki yopiq bo'g'indan iborat, «***qa***» – qisqa hijo, chunki so'zning o'rtasida kelyapti va urg'u olmayapti, nihoyat, «***dah***» – cho'ziq hijo, chunki undosh bilan tugallangan.

Yana shu o'rinda ta'kidlash lozimki, misra hech qachon qisqa hijo bilan yakunlanmaydi, demak, u asosan cho'ziq, ayrim hollarda o'ta cho'ziq hijo bo'lishi mumkin. Ikkinchi misra ham shu tariqa davom etadi.

Endi ushbu chizmalarni alohida holatda ko'rsak:

– V – – – V – – – V – – – V – –
– V – – – V – – – V – – – V – –

Ko'rinyaptiki, birinchi misradagi chizma ikkinchi misra uchun ham mos keladi. Umuman, bu holat aruz vazni uchun xos bo'lib, ikkala misradagi cho'ziq va qisqa hijolar nisbati o'zaro mutanosib bo'lishi shart. Yana bir baytni misol tariqasida ko'rsak:

G'aming qattig'lig'in qilsam hikoyat,
Eshitsa tosh, anga aylar siroyat.

(«Badoyi' ul-vasat»,75-g'azal)

G'a	ming	qat	tig'	li	g'in	qil	sam	hi	ko	yat
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–
E	shit	sa	tosh	a	nga	ay	lar	si	ro	yat
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–

Mazkur chizmaning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

V – – – V – – – V – –
V – – – V – – – V – –

Savol va topshiriqlar:

1. Bo'g'in bilan hijoning qanday farqi bor? Misollar bilan tushuntiring.
2. Aruzda hijoning nechta turi mavjud? Ularning nomlarini ayting.
3. Cho'ziq hijo qanday hijo? Uning xususiyatlarini tushuntiring va daftarga yozing.
4. Daftaringizga quyidagi so'zlarni hijolarga ajratib yozing: *dilbar, kema, dildor, ra'no, qal'a.*
5. Qisqa hijo nima? Uning cho'ziq hijodan qanday farqi bor?
6. Quyidagi so'zlarni cho'ziq va qisqa hijolarga ajratib daftaringizga yozing: *kitob, hidoyat, kelmadi, anbar, xastadurman, tashna, jonimg'a.*
7. O'ta cho'ziq hijo nima? Uning xususiyatlarini tushuntiring.
8. Quyidagi so'zlarni hijolarga ajrating va daftaringizga yozing: *ma'naviyat, daftarlarim, munosabat, arjumand, san'at, sham.*

RUKN VA BAHR TUSHUNCHALARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar:

- bahr
- rukn
- ramal
- hazaj
- rajaz
- mutaqorib
- foilotun
- mafoiylun
- mustaf'ilun
- fauvlun
- musaddas
- musamman
- mahzuf
- solim
- taqti'
- vasl

Baytdagi hijolarning qisqa yoki cho'ziqligini o'zlashtirganimizdan so'ng rukn va bahr haqida tushuncha hosil qilib olishimiz kerak.

Buning uchun avval bir baytni cho'ziq va qisqa hijolarga ajratib chiqamiz:

Latofatda yuzung ham gul emish, ham gulsiton ermish,
Halovatda labing ham jon-u, ham oromijon ermish.

(«Badoyi' ul-vasat», 264-g'azal)

La	to	fat	da	yu	zung	ham	gul	e	mish	ham	gul	si	ton	er	mish
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–
Ha	lo	vat	da	la	bing	ham	jo	n-u	ham	o	ro	mi	jon	er	mish
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–

Ushbu baytning chizmasi quyidagicha ekanligiga guvoh bo'ldik:

V – – – V – – – V – – – V – – –
V – – – V – – – V – – – V – – –

E'tibor qaratilsa, baytni cho'ziq va qisqa hijolarga ajratganimizda bir qisqa hijodan keyin uchta cho'ziq hijoning takrorini ko'rish mumkin:

V – – – (qisqa, cho'ziq, cho'ziq, cho'ziq). Aynan mana shu bo'lak bayt tarkibida butunicha qaytarilib kelganini kuzatamiz. Takrorlanayotgan mazkur bo'lakni biz **rukn** deb ataymiz. Demak, ushbu baytda to'rtta rukn mavjud. Barcha ruknlarda **bitta qisqa va uchta cho'ziq** hijo bor. Ruknlaming takrori ikkala misrada ham bir xil. Ushbu holat baytning ohangdorligini ta'minlayapti.

Ko'rib o'tgan misollarimizdan kelib chiqib **rukn** tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **Rukn** arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «ustun» degan ma'noni bildiradi. Aruz tizimida esa ma'lum bir hijolarning birikuvidan hosil bo'ladigan ritmik bo'lak rukn hisoblanadi. Masalan, bir cho'ziq + bir qisqa + bir cho'ziq + bir qisqa (– V – –) hijolar birlashsa, foilotun deb ataluvchi rukn vujudga keladi. Foilotun so'zi «faala» so'zining o'zagidan hosil qilingan bo'lib, alohida ma'no anglatmaydi. Mazkur so'zning tarkibidagi hijolar sifatiga e'tibor qaratsak, ya'ni bo'g'inlarni cho'ziq-qisqalarga ajrat-

bak, «**fo**» – cho'ziq, «**i**» – qisqa, «**lo**» – cho'ziq, «**tun**» – cho'ziq hijolardan iborat ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Hijolarning takroridan ruknlar hosil bo'lgani kabi, ruknlarning muayyan tarzda takrorlanib kelishi **bahr**larni vujudga keltiradi. Masalan, foilotun rukni takroridan *ramal* deb ataluvchi bahr, mafoiylun rukni takroridan *hazaj* bahri, mustaf'ilun rukni takroridan *rajaz* bahri va hokazo hosil bo'ladi.

Buni soddaroq shaklda quyidagicha tushuntirish mumkin: Aruz deganda biror oliy o'quv yurtini tushunsak, bahr deganda undagi yo'nalishlar (fakultetlar)ni tasavvur qilaylik. Bilamizki, fakultetlarning o'z nomlari bor. Demak, bahrlar ham nomlanadi. Aruz tizimida 19 bahr mavjud[1]. Turkiy aruzda esa (Alisher Navoiy she'riyati asosida fikr yuritsak) asosan ularning 13 tasi qo'llaniladi. Shu 13 bahrning ichida 4 tasi nisbatan faol bahrlardan sanaladi. Ular **ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib** bahrlaridir. Har bir fakultetning tayanch fanlari bo'lgani kabi, bahrlar ham o'z ustunlariga, ya'ni xos ruknlariga ega. Bular asliy ruknlar hisoblanadi, tayanch fanlar o'z ichida yana bo'limlarga bo'linganidek, har bir asliy rukn ham tarmoq ruknlarga bo'linadi. Bu haqda keyingi mavzularda batafsilroq suhbatlashamiz. Hozircha yuqorida aytib o'tilgan 4 bahrning ruknlari, ya'ni ustunlari qanday nomlanishini bilib olishimiz zarur.

Ramal bahri ruknining chizmasi quyidagichadir: **– V – – (cho'ziq, qisqa, cho'ziq, cho'ziq)**. Bu rukn **foilotun** deb ataladi. Bir nuqtaga e'tibor bering: **fo** – cho'ziq, **i** – qisqa, **lo** – cho'ziq, **tun** – qisqa. Demak, rukn nomi uning chizmasini o'zida aks ettirar ekan.

Shu tariqa qolgan 3 ta bahrning ruknlari nomlari bilan ham tanishib chiqsak, quyidagicha manzara hosil bo'ladi:

1-jadval

№	Bahrlar nomi	Asliy ruknlar nomi	Chizmadagi shakli
1	Ramal	Foilotun	–V – –
2	Hazaj	Mafoiylun	V – – –
3	Rajaz	Mustaf'ilun	– – V –
4	Mutaqorib	Fauvlun	V – –

Shu o'rinda savol tug'iladi: modomiki rukn baytlarda takrorlanib keladigan ritmik bo'lak ekan, uning takrori qay tartibda amalga oshadi? Ya'ni bir misrada yoki bir baytda nechta rukn keladi? Ular qanday nomlanadi?

Bu haqda bilib olish uchun Navoiyning bir baytini bo'g'inlarga ajratib tahlil qilib olamiz:

[1]Aruzshunoslikda bahrlar miqdori masalasida ixtiloflar mavjud. Xalil ibn Ahmad 15 ta bahr haqida ma'lumot bergan bo'lsa, uning izdoshi Abulhasan Axfash Balxiy yana bir bahr (mutadorik) qo'shib, bahrlar sonini 16 taga yetkazdi. Keyinchalik forsiy aruzshunoslar yana 3 bahr (mushokil, g'arib, qarib)ni ham aruz tizimiga kiritdilar va bahrlar miqdorini 19 ta deb belgiladilar. Turkiy aruzshunoslar, xususan, Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida 40 ta, Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida 19 ta, Boburning "Risolai aruz"ida 21 ta bahr nomi keltirilgan.

Ishq soldi xonumonim ichra o't,
La'li otashnoki jonim ichra o't.

Ish	q(*i*)	sol	di	xo	nu	mo	nim	ich	ra	o't
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–
La'	li	o	tash	no	ki	jo	nim	ich	ra	o't
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–

–V – – – V – – – V –
–V – – – V – – – V –

E'tibor berilsa, ushbu chizma 1-jadvaldagi **– V – – (foilotun)** rukni bilan mos kelyapti. Foilotun rukni birinchi misrada uch marta, ikkinchi misrada ham uch marta takrorlangan, faqat uchinchi rukn **– V – (cho'ziq, qisqa cho'ziq)** shaklida bo'lib, bu holatga sal keyinroq to'xtalamiz. Yana jadvalga yuzlansak, foilotun rukni tegishli bo'lgan bahr nomi *ramal* ekanligini ko'rish mumkin bo'ladi. Demak, ushbu bayt ramal bahrida yaratilgan ekan. Ruknlarni «/» belgisi bilan ajratib ko'rsatamiz:

–V – – / – V – – / – V –
–V – – / – V – – / – V –

Endi e'tiborimizni baytdagi ruknlarning miqdoriga qaratamiz. Ikkala misradagi ruknlar soni oltitani tashkil etyapti. Arab tilida bu miqdor **musaddas (oltilik)** deyiladi. Demak, ushbu chizma ramal bahrining musaddas shakliga oid vaznga tegishli ekan. Ana endi ruknlarning bayt tarkibida qay holatda kelishini kuzatamiz, chunki bu bayt vaznini aniqlash va nomlashda juda muhim. Baytni tahlil qilganimizda uchinchi rukn to'liq **foilotun, –** V **– – (cho'ziq, qisqa, cho'ziq, cho'ziq)** emas, balki foilun, **– V – (cho'ziq, qisqa, cho'ziq)** shaklida ekanligiga guvoh bo'ldik. Bu holatni oxirgi hijo tashlab yuborilganligi uchun **mahzuf** (**oxiri tashlangan**) deb ataymiz. Mahzuf ham rukn hisoblanadi, lekin asliy rukn emas. Chunki u o'zgarishga uchragan. O'zgarishga uchragan ruknlar aruzshunoslikda **tarmoq ruknlar** deb ataladi. Manzarani umumlashtirib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1) ruknlar **ramal** bahriga tegishli;
2) ularning baytdagi soni oltita, ya'ni **musaddas;**
3) oxirgi hijo tashlab yuborilgan, ya'ni **mahzuf**.

Endi biz tahlil qilgan baytning vazni quyidagi nomga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin: **hazaji musaddasi mahzuf**.

Hazrat Navoiy qalamiga mansub yana bir baytni tahlil qilib ko'raylik:

Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yo'li buzmoq buzulg'on ro'zgorimni.

Ju	nun	vo	diy	si	g'a	mo	yil	ko'	rar	men	jo	ni	zo	rim	ni
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–
Ti	lar	men	bir	yo'	li	buz	moq	bu	zul	g'on	ro'	z (i)	go	rim	ni
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–

Endi chizmani alohida belgilasak:

V – – – V – – – V – – – V – – –
V – – – V – – – V – – – V – – –

Chizmadagi belgilar jadvaldagi mafoiylun rukni bilan mos keladi. Demak, bayt hazaj bahriga tegishli. Ruknlar soni esa sakkizta. Bu arab tilida **musamman (sakkizlik)** deyiladi. Har ikkala misradagi ruknlar to'liq, tashlab yuborilmagan, bu holat **solim (sog'lom)** deyiladi. Ruknlar soni sakkizta ekanligini hisobga olib bayt vaznini nomlasak, uning **hazaji musammani solim** ekanligi ma'lum bo'ladi.

Baytlar hijolarining chizmadagi shakli **taqti'** deyiladi. Taqti' arabcha so'z bo'lib, «qirqish», "bo'lak-bo'lak qilish" degan ma'nolarni bildiradi. Adabiy istiloh (atama) sifatida taqti' aruz ilmida she'r vaznini aniqlash uchun she'r misralarini ruknlarga ajratishni anglatadi. Taqti'ning asosiy sharti shuki, baytning birinchi misrasidagi cho'ziq va qisqa hijolar ikkinchi misradagi aynan shunday hijolar bilan mutanosiblik kasb qilishi kerak.

Chizmani ruknlar asosida bo'lak-bo'lak qilamiz:

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

Ruknlarning nomlarini alohida yozib chiqsak ham yuqoridagi manzaraga hamohanglikni ko'ramiz:

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Vasl hodisasi

Ko'plab g'azallarning vaznini aniqlashda **vasl** hodisasiga duch kelamiz. Xo'sh, aruzdagi **vasl** nima?

Vasl arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida **«ulanish»** ma'nosini anglatadi. G'azal baytidagi bir so'zning o'zidan keyin kelayotgan unli harf bilan boshlangan so'zga qo'shib o'qilishi **vasl** deyiladi. Buni yaxshiroq tushunish uchun bir baytni olib tahlil qilib ko'raylik:

Tun, oqshom bo'ldi-yu, kelmas mening sham'i shabistonim,
Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

Birinchi misradagi **tun** so'zini biz qoida bo'yicha cho'ziq deb olamiz, shunda ikkala misradagi qolgan so'zlarning ham hijolarini aniqlasak, quyidagi manzara paydo bo'ladi:

– – – – / V – – – / V – – – / V – – –
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

Bir qaraganda, **hazaji musammani solim** vaznidagi she'r. Lekin birinchi misradagi ilk hijo nega cho'ziq? U qisqa bo'lishi kerak emasmi? Ha, bu hijo qisqa bo'lishi kerak, shuning uchun **tun** so'zini o'zidan keyin kelayotgan **oqshom** so'ziga qo'shib o'qiymiz:

Tu***noq***shom bo'ldi-yu, kelmas mening sham'i shabistonim.

Bo'g'inga ajratsak, **tu-noq-shom** deb ajratamiz va o'qiymiz. Ayni shu hodisani **vasl** deb ataymiz. Unga ko'ra, undosh bilan tugagan so'z o'zidan keyin kelgan va unli bilan boshlangan so'z bilan qo'shilib ketib, ochiq bo'g'inli so'zga aylanadi. Vasl hodisasi mumtoz she'riyatimizda ko'p uchraydi va buni bilish she'rning vaznini to'g'ri aniqlab o'qishda, ayniqsa, muhimdir.

Vasl hodisasi ko'pincha baytda o'ta cho'ziq hijoni oddiy cho'ziq hijoga aylantirishi ham mumkin. Masalan, quyidagi taqti'ga e'tibor qaratsak:

Me	ni	men	Is	ta	qan	o'z	suh	ba	ti	g'a	ar	ju	mand(i)	et	mas
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	– V	–	–
Me	ni	is	tar	ki	shi	ning	suh	ba	tin	ko'ng	lim	pi	sand(i)	et	mas
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	– V	–	–

Ushbu bayt hijolarini cho'ziq va qisqaga ajratganimizda **arjumand** va **pisand** so'zlarini o'ta cho'ziq hijo deb qabul qilganligimiz uchun yuqorida o'rgangan qoidamiz bo'yicha **arjumand*i*** hamda **pisand*i*** deb o'qishimiz va shunga mos tarzda o'ta cho'ziq qilib belgilashimiz kerak. Lekin bu tarzda belgilasak, to'rtinchi ruknda ikkita qisqa bo'g'in bo'lib qoladi va ruknlar orasidagi mutanosiblikka putur yetadi, shu sababli **arjumand** va **pisand** so'zlarini o'zidan keyin kelayotgan **etmas** so'ziga qo'shib o'qiymiz. Ana shunda aruzga xos ohang ham, vazn ham to'g'ri saqlanadi:

Me	ni	men	is	ta	gan	o'z	suh	ba	ti	g'a	ar	ju	**man**	**det**	**mas**
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–
Me	ni	is	tar	ki	shi	ning	suh	ba	tin	ko'ng	lim	pi	**san**	**det**	**mas**
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–

Demak, ko'rinyaptiki, ushbu bayt hazaj bahrining **hazaji musammani solim** vaznida yozilgan ekan.

Savol va topshiriqlar:

1. Rukn nima?
2. Bahr nima?
3. Aruz tizimida nechta bahr mavjud va ularning qaysilari turkiy adabiyotida keng qo'llanadi?
4. Vaznlarni qanday qoida asosida nomlaymiz?
5. *Mahzuf* so'zining ma'nosi nima va u qanday ahamiyat kasb etadi?
6. *Solim* so'zi qanday ma'no anglatadi?
7. Quyidagi baytning taqti'sini aniqlang:
   Manga ne manzil-u ma'vo ayon, ne xonumon paydo,
   Ne jonimdin asar zohir, ne ko'nglumdin nishon paydo *(Navoiy).*
8. «Vasl» hodisasini tushuntirib bering.
9. Vasl hodisasi bayt vaznini aniqlashda qanday ahamiyatga ega?
10. Quyidagi baytlarning vaznini aniqlang:

- *Ulki derlar, jumlayi olamda g'olib husn erur,*
  Muntahoi vosili matlub-u tolib husn erur (Atoyi)
- *Husn ichinda bir seningtek dilrabo bo'lg'aymu hech?*
  Ishq eliga dog'i mentek mubtalo bo'lg'aymu hech? (Gadoyi)
- *Sening usruk ko'zungga ne xabar bor?*
  Kim ondin aql-u jong'a ko'p xatar bor *(Lutfiy)*
- *Ishq dardi xasta jonimdin dame kam bo'lmasun,*
  Resha jonimg'a ham andin o'zga marham bo'lmasun.
  (Hofiz Xorazmiy)
- *Kel-kel, ey oromijonimkim, tilaydur jon seni,*
  Chehra ochkim, ko'rmak istar diydai giryon seni *(Alisher Navoiy)*
- *Xazon yafrog'I yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,*
  Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim *(Bobur)*

BAHRLAR VA ULARNING TARKIBIY TUZILISHI

Tayanch tushunchalar:
- asliy ruknlar
- turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar
- muzori'
- mujtass
- munsarih
- sari
- xafif

Asliy ruknlar va ularning tuzilishi

Biz yuqorida asliy ruknlar haqida umumiy ma'lumotga ega bo'ldik va ularning to'rttasi bilan tanishdik. Aslida, aruz tizimida sakkizta asliy rukn mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

2-jadval

№	Asliy ruknlar nomi	Chizmasi	Hosil qilinadigan bahr nomi
1	Foilotun	–V – –	Ramal
2	Mafoiylun	V – – –	Hazaj
3	Mustaf'ilun	– – V –	Rajaz
4	Fauvlun	V – –	Mutaqorib
5	Foilun	– V –	Mutadorik
6	Mutafoyilun	V V – V –	Komil
7	Mafoilatun	V – V V –	Vofir
8	Maf'uvlotu	– – – V	Bahr yasamaydi

Yuqoridagi asliy ruknlardan **maf'uvlotu** rukni alohida holatda bahr hosil qilmasa-da, lekin aruz tizimida o'z o'rniga ega. Biz bu ruknning vazifasi haqida keyingi mavzularda to'liqroq ma'lumot beramiz.

Bahrlarning tarkibiy tuzilishi

Yuqorida biz bahrlarning umumiy mohiyati haqida tasavvur hosil qildik. Turkiy she'riyatda qo'llanadigan 13 ta bahr qanday ruknlardan tarkib topganiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi:

1. Bir xil asliy ruknlardan tashkil topgan bahrlar.

2. Turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar.

Birinchi guruhga faqat bir asliy ruknga ega bo'lgan bahrlar kiradi. Ya'ni ramal bahri faqat **foilotun** ruknining, hazaj bahri esa faqat **mafoiylun** rukni va shu kabi bu guruhga kirgan qolgan bahrlar ham bir asliy ruknning takroriga asoslanadi. Biz yuqorida turkiy aruzda qo'llanuvchi shunday bahrlardan faqat to'rttasini ko'rib chiqdik. Aslida, turkiy aruzda bunday bahrlar soni

Eslatma. Yuqorida keltirilgan 1-jadvalni endi to'liq holda ko'ramiz:

3-jadval

№	Bahrlar nomi	Asliy ruknlar nomi	Chizmasi
1	*Ramal*	Foilotun	– V – –
2	*Hazaj*	Mafoiylun	V – – –
3	*Rajaz*	Mustaf'ilun	– – V –
4	*Mutaqorib*	Fauvlun	V – –
5	*Mutadorik*	Foilun	– V –
6	*Komil*	Mutafoilun	V V – V –

Turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar ham o'zining asl ustuniga, ya'ni rukniga ega bo'lmaganligi uchun ular ikki xil asliy ruknlarning birikuvidan hosil bo'ladi. Ushbu guruhga kiruvchi bahrlar soni 5 tadir:

1. *Muzori'* mafoiylun va foilotun asliy ruknlarining tarmoqlaridan vujudga kelib, turkiy she'riyatda asosan musamman ko'rinishida mavjud bo'ladi.

2. *Mujtass* mustaf'ilun va foilotun asliy ruknlarining tarmoqlaridan vujudga kelib, turkiy she'riyatda asosan musamman shaklida uchraydi.

3. *Munsarih* mustaf'ilun va maf'uvlotu asliy ruknlari tarmoqlarining o'zaro almashinuvidan vujudga kelib, turkiy she'riyatda asosan musamman shaklida uchraydi.

4. *Sari'* ikki marta mustaf'ilun va bir marta maf'uvlotu asliy ruknlarining tarmoqlaridan vujudga kelib, turkiy she'riyatda asosan musaddas shaklida uchraydi.

5. *Xafif* foilotun asliy rukni va tarmoqlari hamda mustaf'ilun asliy ruknining tarmoqlaridan vujudga kelib, turkiy she'riyatda asosan musaddas shaklida uchraydi.

6. *Tavil* fauvlun va mafoiylun asliy ruknlaridan vujudga kelib, she'riyatda asosan musamman ko'rinishida mavjud bo'ladi.

7. *Ariz* mafoiylun va fauvlun asliy ruknlaridan vujudga kelib, she'riyatda asosan musamman shaklida uchraydi.

4-jadval

№	Bahr nomi	Qaysi asliy ruknlardan tashkil topganligi
1	Muzori'	mafoiylun / foilotun / mafoiylun / foilotun
2	Mujtass	mustaf'ilun / foilotun / mustaf'ilun / foilotun
3	Munsarih	mustaf'ilun /maf'ulotu / mustaf'ilun / maf'ulotu
4	Sari'	mustaf'ilun / mustaf'ilun / maf'ulotu
5	Xafif	foilotun / mustaf'ilun / foilotun
6	Tavil	fauvlun / mafoiylun / fauvlun / mafoiylun
7	Ariz	mafoiylun / fauvlun / mafoiylun / fauvlun

Savol va topshiriqlar:

1. Asliy ruknlar deganda nimani tushunasiz?
2. Asliy ruknlar soni nechta?
3. Asliy ruknlarning qaysi biri bahr yasamaydi?

4. Asliy ruknlarning bahr hosil qilishdagi vazifasi haqida nimalar deya olasiz?

BIR XIL ASLIY RUKNLARDAN TARKIB TOPGAN BAHRLAR. RAMAL BAHRI

Tayanch tushunchalar

• ramal	• failotun	• foilun	• failon
• foilotun	• foilotu	• foilon	• fa'lun
• foiliyyon	• failotu	• failun	• fa'lon

Ramal bahri turkiy she'riyatda eng ko'p qo'llanilgan bahr bo'lib, deyarli barcha shoirlar ijodida yetakchi o'rinda turadi. «Ramal» so'zi arabcha «tuyaning lo'killashi», «bo'yra to'qish» degan ma'noni anglatadi.[1]

Ramal bahri **foilotun** asliy ruknining bayt tarkibida turli holatlarda takrorlanishidan hosil bo'ladi.

Ramal bahrining asliy ruknidan tarmoq ruknlar yasaladi. Bu qanday yuz beradi? Tarmoq ruknlar **foilotun** asliy ruknining hijolarini turlicha o'zgartirish: tashlab yuborish, qisqartirish yoki cho'zish orqali paydo bo'ladi. Ushbu tarmoqlarni birin-ketin ko'rib chiqsak.

1. Foiliyyon tarmoq rukni **foilotun** asliy ruknining oxirgi bo'g'inini o'ta cho'ziq hijoga aylantirish orqali paydo bo'ladi va faqat misraning oxirida keladi.

foilotun – V – –
↓ ↓
foiliyyon – V – ~

2. Failotun tarmoq rukni **foilotun** asliy ruknining birinchi hijosini qisqartirish hisobiga shakllanadi.

foilotun – V – –
↓ ↓
failotun V V – –

3. Foilotu tarmoq rukni **foilotun** asliy ruknining oxirgi hijosini qisqartirish natijasida paydo bo'ladi.

foilotun – V – –
↓ ↓
foilotu – V – V

[1]Umuman olganda, tuya sahro xalqlari, xususan, arab xalqi turmush tarzining ajralmas qismi hisoblanganligi uchun aruzdagi ko'plab atamalar tuya bilan bog'lanadi.

4. **Failotu** tarmoq rukni **foilotun** asl ruknining birinchi va oxirgi hijolarini qisqartirish natijasida paydo bo'ladi.



5. **Follun** tarmoq rukni **foilotun** asl ruknining oxirgi hijosini tashlab yuborish natijasida paydo bo'ladi



6. **Follon** tarmoq rukni **foilotun** asl ruknining oxirgi hijosini tashlab yuborish va uchinchi hijoni o'ta cho'ziqqa aylantirish natijasida paydo bo'ladi.



7. **Failun** tarmoq rukni **foilotun** asl ruknining oxirgi hijosini tashlab yuborish va birinchi hijoni qisqartirish natijasida paydo bo'ladi.



8.**Failon** tarmoq rukni **foilotun** asl ruknining oxirgi hijosini tashlab yuborish, birinchi hijoni qisqartirish, uchinchi hijoni o'ta cho'ziqqa aylantirish natijasida paydo bo'ladi.



9.**Fa'lun** tarmoq rukni **foilotun** asl ruknining bir cho'ziq va qisqa hijolarini tashlab yuborish natijasida paydo bo'ladi.



10. Fa'lon tarmoq rukni **foilotun** asl ruknining bir cho'ziq va qisqa hijolarini tashlab yuborish, oxirgi hijoni o'ta cho'ziqqa aylantirish natijasida paydo bo'ladi.



Foilotun aslini uning tarmoq ruknlari bilan birga quyidagi chizmada ko'rish mumkin:



Yuqorida keltirilgan tarmoq ruknlar vazn tarkibida kelganda alohida nomga ega bo'ladi. Quyidagi jadvalda ularni vazndagi nomi bilan birga ko'rib chiqamiz.

5-jadval

№	Taqtiyi	Afoyili	Ruknning vazn tarkibidagi nomi
1	– V – ~	Foiliyyon	Musabbag'
2	V V – –	Failotun	Maxbun
3	V V – V	Failotu	Mashkul
4	– V – V	Foilotu	Makfuf
5	– V –	Foilun	Mahzuf
6	– V ~	Foilon	Maqsur
7	V V –	Failun	Maxbuni mahzuf
8	V V ~	Failon	Maxbuni maqsur
9	– –	Fa'lun	Maqtu'
10	– ~	Fa'lon	Maqtuyi musabbag'

Savol va topshiriqlar:

1. Ramal bahrining asliy rukni qanday ataladi?
2. Foilotun asliy ruknidan tarmoq ruknlar qanday hosil qilinadi?
3. Ramal bahrining tarmoq ruknlarini daftaringizga yozing va yod oling!

RAMAL BAHRINING MUSAMMAN VAZNLARI

Tayanch tushunchalar:

- ramali musammani solim
- ramali musammani mahzuf
- ramali musammani maqsur
- ramali musammani mashkul
- ramali musammani maxbun
- ramali musammani maxbuni mahzuf
- ramali musammani maxbuni maqsur
- ramali musammani solimi maxbuni maqtu'
- Ramali musammani maxbuni maqtuyi musabbag'

Turkiy adabiyotda ramal bahri, asosan, **musamman** va **musaddas** shakllarda uchraydi. Dastavval musamman ruknli vaznlarni ko'rib chiqamiz.

Ramali musammani solim

Yuqorida biz ruknlarning bir misrada 4, bir baytda 8 marta takrorlanishidan musamman shakli yuzaga kelishini ta'kidlab o'tgan edik. Agar har bir misradagi rukn to'liq holatda takrorlansa ***solim*** hisoblanishi ham aytib o'tildi. Ramal bahridagi birinchi vazn **ramali musammani solim** deb ataladi. Ya'ni ***foilotun*** rukni mazkur baytda 8 marta hech qanday o'zgartirishlarsiz, to'liq holda takrorlanadi. Taqtiyi quyidagicha:

foilotun foilotun foilotun foilotun
– V – – / – V – – / – V – – / – V – –

Ammo bunday vazn xush ohangga ega emas, shu sababli mumtoz adabiyotimizda ushbu vaznda deyarli she'r bitilmagan. Hazrat Navoiy bu vaznni tajribadan o'tkazish maqsadida bir g'azal yozgan bo'lib, u «Navodir ush-shabob» devonidan 199-raqam bilan o'rin olgan. G'azal matla'si quyidagicha:

Ey jalol-u rahmatingdin gar zalil-u, gar muazzaz,
Safhayi kavnayn o'lub oting tarozidin mutarraz...

Ey	ja	lo	l-u	rah	ma	ting	din	gar	za	li	l-u	gar	mu	az	zaz
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–
Saf	ha	yi	kav	nay	no'	lub	o	ting	ta	ro	zi	din	mu	tar	raz
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–

Ramali musammani mahzuf

Mazkur vazn dastlabki uch ruknning *foilotun*, so'nggi to'rtinchi ruknning *foilun* tarzida kelishidan yaraladi. Ya'ni vaznning taqtiyi:

foilotun foilotun foilotun foilun
– V – – / – V – – / – V – – / – V –

UNUTMANG!

Muayyan bahrga doir vaznni aniqlashda vazn tarkibida asliy rukn ishtirok etsa-da, nomlanishda asosan o'zgarishga uchragan (tarmoq) ruknlar e'tiborga olinadi. Masalan, «*Ramali musammani mahzuf*» vaznida dastlabki ruknlarda foilotun aynan o'zgarishsiz, ya'ni solim tarzida takrorlanadi, to'rtinchi ruknning oxirgi bo'g'ini tashlab yuborilgan, ya'ni mahzuf. Lekin aksariyat hollarda vaznni nomlashda «solim» so'zi qo'llanilmasdan, asosan o'zgarishga uchragan rukn – «mahzuf»ga e'tibor qaratiladi, solim esa xotirada saqlanadi.

Ramali musammani mahzuf vazni turkiy she'riyatda eng ko'p istifoda etilgan bo'lib, «Xazoyin ul-maoniy»dagi 2600 g'azaldan 1101 tasi ushbu o'lchovda bitilgan.

Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.
(«G'aroyib us-sig'ar», 249-g'azal)

O	ra	zin	yop	qach	ko'	zim	din	so	chi	Lur	har	lah	za	yosh
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–
Bo'y	la	kim	pay	do	bo'	lur	yul	duz	ni	hon	bo'l	g'ach	qu	yosh
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–

Misollar:

Ey azaldin dardi ishqing birla jonim hamnafas,
Yo'q visoling davlatidin o'zga ko'nglumda havas. (Atoyi)

Ohkim, devona ko'nglum mubtalo bo'ldi yana,
Bu ko'ngulning ilkidin jong'a balo bo'ldi yana. (Gadoyi)

Davlati vasl iltimosi ne hikoyatdur manga,
Ulki, yoding birla jon bersam, kifoyatdur manga. (Lutfiy)

Necha zulfungtak ko'ngul holing parishon qilg'asan,
Bo'lmag'aymu javr qilmoqdin pushaymon qilg'asan.
(Hofiz Xorazmiy)

Hur gadokim bo'ryoyi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidin hojat emas xil'at anga.
(«G'aroyib us-sig'ar», 8-g'azal)

Ko'nglum ichra dard-u g'am avvalg'ilarg'a o'xshamas
Kim, ul oyning hajri ham avvalg'ilarg'a o'xshamas.
(«Navodir ush-shabob», 238-g'azal»)

Yordin hijron chekar ushshoqi zor, ey do'stlar,
Necha tortay hajr, chun yo'q menda yor, ey do'stlar.
(«Badoyi' ul-vasat», 140-g'azal)

Gul kerakmastur menga, majlisda sahbo bo'lmasa,
Naylayin sahboni, bir gul majlisaro bo'lmasa?
(«Favoyid ul-kibar», 24-g'azal)

Kelki, sensiz tobakay maqtuli hijron bo'lg'amen?
Choraye qilkim, sening ollingda qurbon bo'lg'amen! *(Bobur)*

Ramali musammani maqsur

Mazkur vaznda ***foilotun*** rukni 3 marotaba takrorlanib, 4-rukn ***foilon*** shaklida keladi. Aynan oxirgi rukn – ***foilon***ning vazndagi nomi maqsur bo'lganligi uchun, vazn *ramali musammani maqsur* deb ataladi. Taqtiyi quyidagicha:

foilotun foilotun foilotun foilon
– V – – / – V – – / – V – – / – V ~

Og'zining sirri manga ma'lum agar ermas, ne ayb,
Hech kimga zarraye chun bermamish haq ilmi g'ayb...

Og'	zi	ning	sir	ri	ma	nga	ma'	Lum	a	qar	er	mas	ne	ayb
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	~
Hech	(i)	kim	ga	zar	ra	ye	chun	ber	ma	mish	haq	il	mi	g'ayb
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	~

Misollar:

Ey kamoli husn, Yusufdin jamoling yodgor,
Bo'ldi hajringdin biaynih ko'zlarim Ya'qubvor. *(Atoyi)*

Ey musalsal zulfi purtobing shabi dayjuri husn,
Oftobi tal'atingdin dog'i tole' nuri husn.

Subh erur soqi-yu, men maxmurmen, sen mayparast,
Tut quyoshdek jomni, moni nedur bo'lmoqqa mast... (Navoiy)

Charx izing gardiga qildi kavkabi sayyor xarj,
Javhar olmoqg'a g'aniy qilg'an kebi dinor xarj... (Navoiy)

Necha davron g'ussasi bo'lg'ay mening jonimg'a xos,
Koshki o'lsam, dog'l bu g'ussadin bo'lsam xalos. *(Bobur)*

Ramali musammani mashkul

Ushbu vaznning 1-va 3-rukni ***failotu*** (VV – V), 2-va 4-ruknlari ***foilotun*** (– V– –) tarzida keladi. Bir baytda ruknlarning umumiy soni 8 tani tashkil etib, 1-va 3-ruknlar – ***failotu*** (VV – V)ning nomi mashkul ekanligini hisobga olsak, vaznni ***ramali musammani mashkul*** deb ataymiz. Taqtiyi:

failotu foilotun failotu foilotun
V V – V/ – V – – /V V – V / – V – –

Mazkur vazn o'qilishi jihatidan og'ir ohangga ega bo'lganligi uchun turkiy she'riyat, xususan, hazrat Navoiy ijodida keng o'ringa ega emas. Sakkizta qisqa va sakkizta cho'ziq hijoning guruhlanib takrorlanishi muayyan murakkablikni vujudga keltiradi. Navoiygacha bu vazn Lutfiy va Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. «Xazoyin ul-maoniy»da bu vaznda yozilgan bitta g'azal mavjud.

Yana shu'laliq ko'ngulni g'aming etti pora-pora,
Buki butrashur, erur poralari emas sharora.
(«Badoyi" ul-vasat», 523-g'azal)

Ya	na	shu'	la	liq	ko'ng	ul	ni	g'a	mi	nget	ti	po	ra	po	ra
V	V	–	V	–	V	–	–	V	V	–	V	–	V	–	–
Bu	ki	but	ra	shur	e	rur	po	ra	la	ri	e	mas	sha	ro	ra
V	V	–	V	–	V	–	–	V	V	–	V	–	V	–	–

Misollar:

Bu kechar jahonda soqiy, chu emas vafo nishoni,
Bari aysh birla kechsa kerak ushbu umri foniy. (Lutfiy)

Faraxu nishot berur labi shakkarini yodi,
Chun erur mudom yodi manga umrning ziyodi.
(Hofiz Xorazmiy)

Ramali musammani maxbun

Mazkur vazn taqtiyida dastavval ***foilotun*** rukni, so'ng 3 marta ***failotun*** rukni keladi. ***Failotun*** rukni esa maxbun deb ataladi. Shu sabab vazn nomi **Ramali musammani maxbun**dir.

Taqtiyi quyidagicha:

foilotun failotun failotun failotun
– V – – | V V – – | V V – – | V V – –

UNUTMANG!

Ushbu vaznning birinchi rukni ba'zan «failotun» tarzida ham kelishi mumkin, ya'ni birinchi misra foilotun bilan boshlansa, keyingi misra failotun bilan boshlanishi (yoki aksincha) mumkin va bu holat ramal bahrining maxbun tarmog'idagi barcha vaznlarga tegishlidir.

Har tarafkim borur ag'yor ila jonon talashurmen,
Chun ajal qasd qilur o'lmakima, jon talashurmen.

(«Badoyi ul-vasat», 471-g'azal)

Har	ta	raf	kim	bo	ru	rag'	yor	i	la	jo	non	ta	la	shur	men
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–
Chun	a	jal	q as	d(i)	qi	lur	o'l	ma	ki	ma	jon	ta	la	shur	men
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–

Misollar:

Subhi davlat yuzung, ey tavsani gardun, sanga ashhab,
Boshing ustidagi dur, o'ylaki, tong boshida kavkab. (Navoiy)

Ey, ko'ngul ichra mayi vasling uchun kom tamanno,
Jong'a ham furqating o'ti aro bu xom tamanno.

(«Favoyid ul-kibar», 5-g'azal)

Kotibi sun' chu har kimga bir ishni raqam aylab,
Sabz xatlar g'amig'a bizni qazo muttaham aylab.

(«Favoyid ul-kibar», 57-g'azal)

Ramali musammani maxbuni mahzuf

Ushbu vaznda ilk rukn foilotun shaklida keladi. Keyingi 2-va 3-ruknlar failotun bo'lib, bu maxbun deb atalishi ma'lum. Oxirgi 4-rukn esa failun bo'lib, bu maxbuni mahzufdir. Shu asosda uning taqtiyini chizadigan bo'lsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

foilotun failotun failotun failun
– V – – | V V – – | V V – – | V V –

Endi vaznni nomlaymiz: bahr nomi ramal, bir baytda 8 ta rukn, demak, musamman, birinchi rukn solim, qolganlari maxbun, oxirgi rukn esa maxbuni mahzuf, bularning hammasi esa ramali musammani maxbuni mahzuf nomida aks etar ekan.

Bo'lmayin husn ko'ngul topmadi ishq ichra tarab,
Anga haqdin talabi ishqdurur husn talab.

(«Badoyi' ul-vasat», 46-g'azal)

Bo'l	ma	yin	hus	n(i)	ko'	ngul	top	ma	di	ish	qich	ra	ta	rab
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–
Ang	a	haq	din	ta	la	bi	lsh	q(i)	du	rur	hus	n(i)	ta	lab
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–

Misollar:

Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul
Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul

(Lutfiy)

O'zgalar birla borib mayli sharob aylamagil,
Jigarimni g'am o'ti birla kabob aylamagil.

(Hofiz Xorazmiy)

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,
Ko'ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?

(«Navodir ush-shabob», 483-g'azal)

Kosh sanchilsa iki ko'zuma ko'yung tikani,
Kirpiking ignasi birla chiqarur bo'lsa ani.

(«Navodir ush-shabob», 585-g'azal)

Ey visol ahli, ul oy ko'nglini xushhol tutung,
Gar halokim xabaridin ovunurkim, ovutung. (Navoiy)

Ramali musammani maxbuni maqsur

Ushbu vaznni hosil qilish uchun yuqoridagi vaznning oxirgi ruknini maxbuni mahzuf, ya'ni failun (VV–)dan maxbuni maqsur – failon (V V~)ga o'zgartiramiz. Shunda quyidagi manzara hosil bo'ladi:

foilotun failotun failotun failon
– V – – | V V – – | V V – – | V V ~

Demak, bu vazn yuqorisidagidan bor-yo'g'i oxirgi ruknning o'zgarishi bilan farqlanmoqda.

Vahki, ul mug'bacha har damki chekar bodayi nob,
Qo'zg'alur arbadasidin bu ko'han dayri xarob.

(«Badoyi" ul-vasat», 42-g'azal)

Vah	ki	ul	mug'	ba	cha	har	dam	ki	che	kar	bo	da	yi	nob
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	~
Qo'z	g'a	lur	ar	ba	da	si	din	bu	ko'	han	day	ri	xa	rob
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	~

Misollar:

Labi la'lingkim erur oshiqinga obi hayot,
Xizri xatting ko'runur tegrasida chun zulumot. (Hofiz Xorazmiy)

Ishq tobidin o'lubmen meni bemor zaif,
Tob ko'p ko'rsa aningdekki bo'lur tor zaif.

(«Badoyi' ul-vasat», 306-g'azal)

Ishq aro nofi emas oqil-u farzonag'a pand,
Qayda bas naf yeturgay meni devonag'a pand.

(«Favoyid ul-kibar», 116-g'azal)

Ramali musammani maxbuni maqtu'

Ushbu vazn yuqorida keltirilgan ramali musammani maxbuni mahzuf hamda ramali musammani maxbuni maqsurdan faqat oxirgi ruknning o'zgarishi bilan farqlanadi, ya'ni oxirgi rukn fa'lun (– –) tarzida keladi. Bu rukn, bilamizki, maqtu' deyiladi. Taqti' esa quyidagi shaklda namoyon bo'ladi:

foilotun failotun failotun fa'lun
– V – – | V V – – | V V – – | – –

Necha bo'lg'ay manga hajr ichra tazallum, yo Rab?
Ayla bu zulm aro holimg'a tarahhum, yo Rab.

(«G'aroyib us-sig'ar», 47-g'azal)

Ne	cha	bo'l	g'ay	ma	nga	haj	rich	ra	ta	zal	lum	yo	Rab
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	–	–
Ay	la	bu	zul	ma	ro	ho	lim	g'a	ta	rah	hum	yo	Rab
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	–	–

Misollar:

Mubtalo bo'ldi ko'ngul dard bila darmon qil,
Mushkilimni bilib, ey jon-u jahon, oson qil.

(Hofiz Xorazmiy)

Navbahor o'ldi-yu, men hajrida, soqiy, may tut,
Toki yig'lay qilibon arbada andoqki bulut.

(«Navodir ush-shabob», 71-g'azal)

Ishq aro men kibi yo'q besar-u somon bo'lg'an,
Xonumon buzg'an aloxon-u alomon bo'lg'an.

(«Navodir ush-shabob», 488-g'azal)

Ramali musammani maxbuni maqtuyi musabbag'

Ushbu vazn biz yuqorida o'rgangan vaznlardan oxirgi ruknning fa'lon (– ~)ga almashishi natijasida yuzaga keladi, taqtiyi esa quyidagichadir:

foilotun failotun failotun fa'lon
– V – – | V V – – | V V – – | – ~

Fa'lon (– ~) rukni maqtuyi musabbag' deb ataladi. Shuning uchun ushbu vaznning birinchi rukni solim, o'rtadagi 2- va 3-ruknlari maxbun, oxirgisi maqtuyi musabbag' ekanligini hisobga olsak, uning atalishi ramali musammani maxbuni maqtuyi musabbag'dir.

Manga ul ko'zi qora dedi chuchuk chandin so'z,
Ne ajab oni qorako'z desam-u shirin so'z.

(«Navodir ush-shabob», 219-g'azal)

Ma	nga	ul	ko'	zi	qo	ra	de	di	chu	chuk	chan	din	so'z
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	–	~
Ne	a	jab	o	ni	qo	ra	ko'z	de	sa	mu	shi	rin	so'z
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	–	~

Misollar:

Qotilekim, anga ermas kishi aslo gustox,
To'ldi qonimki, bo'lubmen meni shaydo gustox.

(«Badoyi'' ul-vasat», 108-g'azal)

Ey yuzung bog'i nasimida havoyi navro'z,
La'li tojing bo'lub ul bog'da bo'stonafro'z.
(«Badoyi" ul-vasat», 215-g'azal)

Savol va topshiriqlar:

1. Ramali musammani solim vazni qanday hosil bo'ladi?
2. Navoiyning ramali musammani solimda yozilgan g'azalini «Navodir ush-shabob» devonidan toping, daftaringizga ko'chiring va barcha baytlarning taqtiyini chizing.
3. Ramali musammani mashkul vaznining birinchi va uchinchi ruknlari qanday nomlanadi? Ushbu vaznning turkiy she'riyatda keng istifoda etilmaganligi sabablari haqida o'ylab ko'ring.
5. Ramal bahridagi maxbun va maxbuni mahzuf ruknlari o'rtasida qanday farq bor?
6. Ramali musammani maxbuni mahzuf va ramali musammani maxbun vaznlari o'rtasidagi farqni ayting.
7. Ramal bahridagi maqtuyi musabbag' hamda maqtu' ruknlarining afoyillarini ayting. Ular o'rtasidagi farqni tushuntiring.
8. Quyidagi baytlarning vaznini aniqlang:

Dilraboliq fannida sohibqironsen, ey habib,
Chashm ichinda nur-u ham jism ichra jonsen, yo habib. (Atoyi)

Davri yuzungda saning mehr-u qamardur paydo
Labi la'lingda taqi sshahd-u shakardur paydo (Hofiz Xorazmiy)

Har ne, shah maqsudidur, darveshning mardudidur!
Ko'r ne himmatdur munga, ne nav' erur holat anga (Navoiy)

***

Aylamang bekasligimni ta'n, bir kun bor edi
Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey do'stlar. (Navoiy)

***

Yuzida kufr o'tining shu'lasidin yuz ming nur,
Sochida din xalalidin tushubon yuz ming tob. (Navoiy)

***

Hajr anduhidamen, soqiy, ul oydin so'z deb,
Meni bir-ikki to'la sog'ari may birla ovut. (Navoiy)

***

Bu mahol amredurur, chunki taxayyul birla
Qila olmon iki la'lini tamosho gustox. (Navoiy)

RAMAL BAHRINING MUSADDAS VAZNLARI

Tayanch tushunchalar:
- ramali musaddasi mahzuf
- ramali musaddasi maqsur
- ramali musaddasi maxbuni mahzuf
- ramali musaddasi maxbuni maqsur
- ramali musaddasi maxbuni maqtu'
- ramali musaddasi maxbuni maqtuyi musabbag'

Ramal bahrining musaddas ruknli vaznlari xuddi musamman vaznlar singari tuzilishga ega bo'lib, faqatgina misra tarkibida bir ruknning kam ekanligi bilan farqlanadi.

Shu sababli ushbu vaznlarga ta'rif berishda ularning nomlari, taqtiyi va misollar keltirish bilan cheklanamiz.

Ramali musaddasi mahzuf

Taqtiyi:

foilotun foilotun foilun
– V – – | – V – – | – V –

Shahsuvorim har qachon javlon qilur,
Mahv o'lub bilman o'zumni, Haq bilur.
(«Navodir ush-shabob», 189-g'azal)

Shah	su	vo	rim	qa	chon	jav	lon	(i)	qi	lur
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–
Mah	vo'	lub	bil	man	o'	zim	ni	Haq	bi	lur
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–

Misollar:

Muntazirdur ko'zlarim diydorina,
Kim quloqim shakkarin guftorina (Hofiz Xorazmiy)

Soqiyo, hijron tunidur, boda tut,
Ul quyosh birla bu shomimni yorut.
(«Favoyid ul-kibar», 71-g'azal)

Ishq aro pok-u qalandarliq kerak,
Shu'la bahrida samandarliq kerak. («Lison ut-tayr»)

Ramali musaddasi maqsur

Taqtiyi:

foilotun foilotun foilon
– V – – | – V – – | – V ~

Gulshaningdin yeldek, ey ra'no nihol,
Men yomon bordim, vale sen yaxshi qol.

(«Navodir ush-shabob», 380-g'azal)

Gul	sha	ning	din	yel	de	key	ra'	no	ni	hol
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	~
Men	yo	mon	bor	dim	va	Le	sen	yax	shi	qol
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	~

Misollar:

Ey, xayolingdin manga har dam nishot,
Ko'ngluma vasling so'zidin inbisot.

(«Favoyid ul-kibar», 282-g'azal)

Ishq avjidin qayonkim tushti barq,
Jonni aylar shu'la selobida g'arq.

(«Lison ut-tayr»)

Ramali musaddasi maxbuni mahzuf

Taqtiyi:

foilotun failotun failun
– V – – | V V – – | V V –

Yor ul vaqt jafo rasmi tutub
Kim, vafo da'b-u tariqin unutub.

(«Navodir ush-shabob», 66-g'azal)

Yor	(*i*)	ul	vaq	t(*i*)	ja	fo	ras	mi	tu	tub
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–
Kim	va	fo	da'	b-u	ta	ri	qin	u	nu	tub
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–

Misollar:

Ishqdin yonsa tanim so'rma sabab,
Kuysa xoshok yolindin ne ajab.

(«G'aroyib us-sig'ar», 50-g'azal)

Ey, g'aming gavhari jon-u tan aro,
Ikki dur yanglig' iki maxzan aro.

(«Navodir ush-shabob», 22-g'azal)

Ramali musaddasi maxbuni maqsur

Taqtiyi:

foilotun failotun failon
– V – – | V V – – | V V ~

Bodadin jon isi kasb etti mashom,
Go'yiyo la'linga yetmish edi jom.

(«Badoyi' ul-vasat», 421-g'azal)

Bo	da	din	jon	i	si	kas	bet	ti	ma	shom
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	~
Go'	yi	yo	la'	li	nga	yet	mish	e	di	jom
–	V	–	–	V	V	–	–	V	V	~

Misollar:

Ey, sening dard-u g'aming jonima xos
Kim, alardin tilamon jonni xalos.

(«Favoyid ul-kibar», 275-g'azal)

Kimga berdi quyosh avjida nashast,
Kim yana qilmadi tufroqqa past.

(«Favoyid ul-kibar», soqiynoma)

Ramali musaddasi maxbuni maqtu'

Taqtiyi:

foilotun failotun fa'lun
– V – – | V V – – | – –

Soqiyo, tut qadahi shohona,
Qatrasi la'l, vale yakdona.

(«Favoyid ul-kibar», soqiynoma)

So	qi	yo	tut	qa	da	hi	sho	ho	na
–	V	–	–	V	V	–	–	–	–
Qat	ra	si	la'l	(*i*)	va	le	yak	do	na
–	V	–	–	V	V	–	–	–	–

Misollar:

Ko'zi hajri meni bemor etti,
Qora og'riqqa giriftor etti.

(«G'aroyib us-sig'ar», 639-g'azal)

May uchun dayrdadur oromim,
Dayrning eski safoli jomim.

(«Navodir ush-shabob», 421-g'azal)

Ramali musaddasi maxbuni maqtuyi musabbag'

Taqtiyi:

foilotun failotun fa'lon
– V – – | V V – – | – ~

Soqiyo, qil to'la jomi zarkor,
Bir g'azal boshla Faridun osor.

(«Favoyid ul-kibar», soqiynoma)

Bo	qi	yo	qil	to'	la	jo	mi	zar	kor
–	V	–	–	V	V	–	–	–	~
Ba	g'a	zal	bosh	la	Fa	ri	dun	o	sor
–	V	–	–	V	V	–	–	–	~

Misollar:

Saltanat bog'ida sarvi gulchehr,
Makramat avji uza raxshon mehr. (Soqiynoma)

Ey buti sarv, qadi gulruxsor,
G'unchang aytur chog'i shirin guftor. (Tarji'band)

Savol va topshiriqlar:

1. Turkiy she'riyatda ramali musaddasi solim vazni qo'llanganmi?
2. Quyidagi baytlarning vazni va taqtiyini aniqlang:

Bo'lg'ali qoshing kamon-u g'amza tiyr,
Kelmadi kofir ko'zingtak go'shagir. (Hofiz Xorazmiy)

O'z vujudingg'a tafakkur aylagil,
Har ne istarsen – o'zungdin istagil. ("Lison ut-tayr")

Ayrilur go'yo quyoshdin bir shihob,
Oti na'lidin har o'tkim, ayrilur. (Navoiy)

Gar buzuq ko'nglumni mardud aylading,
Bok emastur o'zgalarning ko'nglin ol. (Navoiy)

Ushbu maykim, ani ta'rif ettim,
Zikrin aylarda-o'q o'zdin kettim. (Navoiy)

HAZAJ BAHRI

Tayanch tushunchalar:

- hazaj
- mafoiylun
- mafoiylon
- mafoilun
- mafoiylu
- fauvlun
- mafoiyl
- maf'uvlu
- maf'uvlun
- foilun
- faal
- fauvl
- fa'
- fo'

Hazaj bahri mafoiylun (V – – –) asliy ruknining baytdagi takroriga asoslangan bo'lib, qo'llanilishi jihatidan turkiy she'riyatda ramal bahridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. «Hazaj» so'zi arabcha «yoqimli ovoz», «xushohang kuy» degan ma'nolarni anglatadi.

Hazaj bahrining asliy ruknidan tarmoq ruknlar yasaladi. Bu qanday yuz beradi? Tarmoq ruknlar mafoiylun asliy ruknining hijolarini turlicha o'zgartirish: tashlab yuborish, qisqartirish yoki cho'zish orqali paydo bo'ladi. Ushbu tarmoqlarni birin-ketin ko'rib chiqsak.

1. Mafoiylon tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining oxirgi bo'g'inini o'ta cho'ziq hijoga aylantirish orqali paydo bo'ladi va faqat misraning oxirida keladi.

mafoiy***lun*** V – – –

↓ ↓

mafoiy***lon*** V – – ~

2. Mafoilun tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining uchinchi hijosini qisqartirish hisobiga shakllanadi.

mafoiy***lun*** V – – –

↓ ↓

mafoi***lun*** V – V –

3. Mafoiylu tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining oxirgi hijosini qisqartirish natijasida paydo bo'ladi.

mafoiy***lun*** V – – –

↓ ↓

mafoiy***lu*** V – – V

4. **Fauvlun** tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining oxirgi hijosini tashlab yuborish natijasida paydo bo'ladi.



5. **Mafoiyl** tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining oxirgi hijosini tashlab yuborish va uchinchi hijoni o'ta cho'ziqqa aylantirish natijasida paydo bo'ladi.



6. **Maf'uvlu** tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining birinchi, ya'ni qisqa hijosi tushirilib, oxirgi cho'ziq hijo qisqa hijoga aylantirilishi orqali vujudga keladi. Hosil qilingan foiylu rukni o'ziga teng maf'uvlu bilan almashtiriladi.



7. **Maf'uvlun** tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining birinchi, ya'ni qisqa hijosi tushirilishi natijasida paydo bo'ladi. Vujudga keltirilgan foiylun rukni o'ziga teng maf'uvlun bilan almashtiriladi.



8. **Foilun** tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining birinchi hijosini tashlab yuborib, uchinchi hijosini qisqartirish natijasida paydo bo'ladi.



9. Faal tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining uchinchi va to'rtinchi, ya'ni cho'ziq hijolarini tashlab yuborish natijasida paydo bo'ladi. Hosil qilingan mafo rukni o'ziga teng faal rukni bilan almashtiriladi.

mafo***iylun***		V – – –
↓ ↓		↓ ↓
mafo	= faal	V –

10. Fauvl tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining uchinchi va to'rtinchi, ya'ni cho'ziq hijolarini tashlab yuborish hamda ikkinchi hijosini o'ta cho'ziq hijoga aylantirish natijasida paydo bo'ladi. Hosil qilingan mafo rukni o'ziga teng fauvl rukni bilan almashtiriladi.

mafo***iylun***		V – – –
↓ ↓		↓ ↓
mafo	= fauvl	V ~

11. Fa' tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining avvalgi uch hijosini tashlab yuborish orqali vujudga keladi. Hosil qilingan lun rukni o'ziga teng fa' rukni bilan almashtiriladi.

mafoiylun		V – – –
↓ ↓ ↓ ↓		↓ ↓ ↓
	lun = fa'	–

12. **Fo'** tarmoq rukni mafoiylun asl ruknining avvalgi birinchi, uchinchi va to'rtinchi hijolarini tashlab yuborib, ikkinchi hijoni o'ta cho'ziqqa aylantirish orqali vujudga keladi.

mafoi***ylun***		V – – –
↓ ↓ ↓		↓ ↓ ↓
fo	= fo'	~

Endi ushbu chizmalarni bir jadvalga birlashtiramiz:

№	Tarmoq rukn nomi	Taqtiyi	Afoyili	Kelish o'rni
1	Mafoiylon	V – – ~	Musabbaq'	So'nggi ruknda
2	Mafoilun	V – V –	Maqbuz	O'rta ruknlarda
3	Mafoiylu	V – – V	Makfuf	O'rta ruknlarda

6	Fauvlun	V – –	Mahzuf	So'nggi ruknda
8	Mafoiyl	V – ~	Maqsur	So'nggi ruknda
9	Maf'uvlu	– – V	Axrab	Birinchi va o'rta ruknlarda
7	Maf'uvlun	– – –	Axram	Birinchi va o'rta ruknlarda
8	Foilun	– V –	Ashtar	Birinchi va o'rta ruknlarda
9	Faal	V –	Ajabb	So'nggi ruknlarda
10	Fauvl	V ~	Ahtam	So'nggi ruknlarda
11	Fa'	–	Abtar	So'nggi ruknlarda
12	Fo'	~	Azall	So'nggi ruknlarda



Savol va topshiriqlar:

1. «Hazaj» so'zining lug'aviy ma'nosini aytib bering.
2. Asliy rukndan tarmoq ruknlar hosil qilish usullari haqida nimalarni bilasiz?
3. Mafoiylun asliy ruknidan hosil bo'ladigan tarmoq ruknlarni sanang.

HAZAJ BAHRINING MUSAMMAN VAZNLARI

Tayanch tushunchalar

- hazaji musammani solim
- hazaji musammani musabbag'
- hazaji musammani axrab
- hazaji musammani axrabi musabbag'
- hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf
- hazaji musammani axrabi makfufi maqsur
- hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod

Hazaji musammani solim

Hazaj bahriga doir musamman vaznlarning dastlabkisi hazaji musammani solim bo'lib, biz ushbu vazn haqida ilk mavzularda ham gaplashgan edik. Esingizda bo'lsa, uning taqtiyi quyidagicha edi:

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

Manga ne manzil-u ma'vo ayon, ne xonumon paydo,
Ne jonimdin asar zohir, ne ko'nglumdin nishon paydo.

(«Favoyid ul-kibar», 34-g'azal)

Ma	nga	ne	man	zi	l-u	ma'	vo	a	von	ne	xo	nu	mon	pay	do
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–
Ne	jo	nim	din	a	sar	zo	hir	ne	ko'ng	lum	din	ni	shon	pay	do
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–

Misollar:

Xazontek ayladi baxtim, bu yil fasli bahorimni,
Ki hijrong'a mubaddal qildi nogah vasli yorimni. (Atoyi)

Ko'zungkim dam-badam yuz ming tuman turluk qiron aylar,
Qamuq zarroti olamni o'zitek notavon aylar. (Gadoyi)

Suratingni kimki ko'rdi, qildi jono, jon fido,
Siyratingg'a xud qilur olib farishta iqtido. (Lutfiy)

Baloyi ishqdin bo'ldi ko'zumning chashmasi daryo,
Aliftak qaddim ul daryoning ichra ko'runur yakto. (Hofiz Xorazmiy)

O'lukni tirguzur la'ling Masihoso kalom aylab,
Takallum choshniysin sharbati yuhyil-izom aylab.

(«G'aroyib us-sig'ar», 59-g'azal)

Tirik qolsam gar o'zni bazmi vasling ichra solg'aymen,
Firoqing shiddatin de olmasam xud yig'lay olg'aymen.
(«Navodir ush-shabob», 470-g'azal)

Bu yanglig' bilsam erdi hajrning muhlik qaro shomin,
Qarorimni erdim o'lguncha ilikdin vasl ayyomin?! (Bobur)

Hazaji musammani musabbag'

Bu vazn hazaji musammani solimdan faqatgina oxirgi ruknning o'zgarishga uchrashi (cho'ziq hijoning o'ta cho'ziq hijoga almashishi) bilan farqlanadi. Taqtiyi quyidagicha:

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylon
V – – – / V – – – / V – – – / V – – ~

Demak, 4-ruknning oxirgi hijosini o'ta cho'ziqqa aylantirish natijasida yangi vazn paydo bo'lyapti. Biz mazkur rukn nomini musabbag' deb olaymiz, vaznni esa hazaji musammani musabbag' tarzida nomlaymiz.

Qadoyi faqr ila so'z ayta olmas podsho gustox,
Shah ollinda nechukkim, dam ura olmas gado gustox.
«G'aroyib us-sig'ar», 107-g'azal

Qa	do	yi	faq	ri	la	so'z	ay	ta	ol	mas	pod	(i)	sho	gus	tox
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	~
Shah	ol	lin	da	ne	chuk	kim	dam	u	ra	ol	mas	qa	do	gus	tox
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	~

Misollar:

Sen o'z xulqungni tuzgil, bo'lma el axloqidin xursand,
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'lmadi farzand.
(«G'aroyib us-sig'ar», 115-g'azal)

Sarig' kog'azmudurkim, so'zi hajrim ayladim tahrir
Va yoxud shu'la tushti safhag'a ul so'z etib ta'sir.
(«Navodir ush-shabob», 133-g'azal)

Qaro zulfung firoqida parishon ro'zgorim bor,
Yuzungnung ishtiyoqida ne sabr-u ne qarorim bor. (Bobur)

Hazaji musammani axrab

Mazkur vaznni hosil qilishda musamman shaklidagi mafoiylun ruknlarining 1-hamda 3-o'rinlari maf'uvluga almashtiriladi va quyidagi manzara hosil bo'ladi:

maf'uvlu mafoiylun maf'uvlu mafoiylun
– – V / V – – – / – – V / V – – –

Ma'lumki, maf'uvlu rukni axrab deb ataladi. Demak, ushbu vaznni hazaji musammani axrab deb nomlaymiz. Bu vazn mumtoz adabiyotimizdagi ohangi yoqimli bo'lgan vaznlardan hisoblanadi.

To tushta yuzin ko'rdum, bo'lmish manga kom uyqu,
Lekin g'amidin bo'lmish ko'zumga harom uyqu.

(«Badoyi' ul-vasat», 514-g'azal)

To	tush	ta	yu	zin	ko'r	dum	bo'l	mish	ma	nga	kom	uy	qu
–	–	V	V	–	–	–	–	–	V	V	–	–	–
Le	kin	g'a	mi	din	bo'l	mish	ko'	zum	ga	ha	rom	uy	qu
–	–	V	V	–	–	–	–	–	V	V	–	–	–

Misollar:

May birla yuzung tim-tim ahmarmu ekin oyo
Yo shu'la aro bir-bir ahgarmu ekin oyo?

(«G'aroyib us-sig'ar», 115-g'azal)

Sho'x ikki g'izolingni noz uyqusidin uyg'at,
To uyqulari ketsun, gulzor ichida o'ynat.

(«Navodir ush-shabob», 75-g'azal)

Hazaji musammani axrabi musabbag'

Ushbu vaznning vujudga kelishi oxirgi ruknning mafoiylonga, ya'ni musabbag' shakliga o'zgarishi bilan bog'liq. 4-ruknning so'nggi hijosi o'ta cho'ziq bo'lgani uchun, biz bu vaznni hazaji musammani axrabi musabbag' deb ataymiz.

Taqtiyi:
maf'uvlu mafoiylun maf'uvlu mafoiylon
– – V / V – – – / – – V / V – – ~

Turkiy adabiyotda ushbu vaznda birgina g'azal yozilgan bo'lib, hazrat Alisher Navoiy qalamiga mansub:

Bog' ichra sanga sochti gul oq-u qizil yafroq,
Shah boshig'a andoqkim el oq-u qizil yormoq.

(«Badoyi ul-vasat», 317-g'azal)

Bog'	ich	ra	sa	nga	soch	ti	gul	o	q-u	qi	zil	yaf	roq
–	–	V	V	–	–	–	–	–	V	V	–	–	~
Shah	bo	shi	g'a	an	doq	kim	el	o	q-u	qi	zil	yor	moq
–	–	V	V	–	–	–	–	–	V	V	–	–	~

Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf

Mazkur vazn turkiy aruzning eng xushohang va o'ynoqi ritmga ega bo'lgan musiqiy vaznlaridan biri hisoblanadi. Bunda 1-rukn maf'uvlu (asrab), 2- va 3-ruknlar mafoiylu (makfuf), 4-rukn fauvlun (mahzuf) tarzida kelib, uning taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun
– – V / V – – V / V – – V / V – –

Vaznni tashkil etayotgan ruknlarning nomlaridan kelib chiqib uni hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf deb ataymiz.

UNUTMANG!
Garchi taqti'da ikki marta *mafoiylu* rukni qatnashayotgan bo'lsa-da, vaznni nomlashda ulardan faqat bittasi hisobga olinadi.

Yor bordi-yu, ko'nglumda aning nozi qoliptur,
Andoqki qulog'im to'la ovozi qoliptur.

(«G'aroyib us-sig'ar», 187-g'azal)

Yor	bor	di	yu	ko'ng	lim	da	a	ning	no	zi	qo	lip	tur
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–
An	doq	ki	qu	lo	g'im	to'	la	o	vo	zi	qo	lip	tur
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–

Misollar:

Jon qolmadi g'amdin, vale jonona inonmas,
Faryodim eshitmas, dag'i afg'ona inonmas. (Atoyi)

Yo Rab, ne ajab jonsen, ayo zoti mutahhar –
Kim, lutf ila sen boshtin ayoq ruhi musavvar. (Gadoyi)

Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting,
Men xasta gado holini sultonima ayting. (Lutfiy)

Yuzung borida mehr ila mohtob kerakmas,
Qoshing qoshida toq ila mehrob kerakmas. (Hofiz Xorazmiy)

Bo'lsa ikimizning yuzi aksi suda paydo,
Ul su ne taraf borsa, ochilg'ay guli ra'no.

(«G'aroyib us-sig'ar», 35-g'azal)

G'urbatta ul oy hajri meni pir qilibtur,
Hijron bila g'urbat manga ta'sir qilibtur. (Bobur)

Yer tutqali ul kofiri xudkom ko'ngulda,
Yo'q menda ko'ngul uylaki orom ko'ngulda.
(«Navodir ush-shabob», 26-g'azal)

Hazaji musammani axrabi makfufi maqsur

Yuqoridagi vaznning 4-rukni fauvlun (mahzuf)ning oxirgi cho'ziq hijosini o'ta cho'ziq hijoga aylantirib, ruknni mafoiyl (maqsur)ga o'zgartirsak, hazaji musammani axrabi makfufi maqsur vazni hosil bo'ladi. Uning taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoiylu mafoiylu mafoiyl
– – V/ V – – V / V – – V / V – ~

Ul turki xitoning erur andoq ko'zi qiymoch
Kim, nozdin o'lmas demak ollindaki, ko'z och.
(«Navodir ush-shabob», 100-g'azal)

Ul	tur	ki	xi	to	ning	e	ru	ran	doq	ko'	zi	qiy	moch
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	~
Kim	no	z(*i*)	di	no'l	mas	de	ma	kol	lin	da	ki	ko'z	och
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	~

Misollar:

Ey zotinga har necha qilib aql tafakkur,
Ul fikrga bo'lmay samare g'ayri tahayyur.
(«G'aroyib us-sig'ar», 132-g'azal)

Holim kim ekin aylaguchi yorg'a ma'ruz,
Men bedil ishin qilg'uchi dildorg'a ma'ruz.
(«Favoyid ul-kibar», 277-g'azal)

Hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod

Mumtoz adabiyotimizda mustazod deb atalgan lirik janr biz quyida o'rganadigan vazndagina yoziladi. Uning taqtiyi, aslida, biz yuqorida o'rgangan hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vazni bilan deyarli bir xil bo'lib, faqat so'nggi rukndan so'ng yana ikki rukn – maf'uvlu hamda fauvlun orttiriladi. Aslida, mustazod so'zining o'zi ham lug'aviy jihatdan «orttirilgan, ziyoda qilingan» degan ma'nolarni ifodalaydi. Aynan shu sababli ham mazkur vazn hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod deb nomlanadi. Uning taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun
– – V/ V – – V / V – – V / V – –
maf'uvlu fauvlun
– – V/ V – –

UNUTMANG!

Yuqoridagi vaznlarda kuzatilgani kabi, asosiy misradagi 4-rukn yoki qo'shimcha misradagi so'nggi *fauvlun* (mahzuf) rukni *mafoiyl* (mausur)ga o'zgarishi ham mumkin. Bunda vazn nomiga maqsur so'zi qo'shib aytiladi.

Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyoti to'rt devonining har biriga bittadan mustazod kiritilgan bo'lib, ulardan birini keltirib o'tamiz:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli, mazhar sanga ashyo,
Sen lutf bila kavn-u makon ichida mavli, olam sanga mavlo.

(«G'aroyib us-sig'ar»)

Ey	hus	nu	nga	zar	ro	ti	ja	hon	ich	ra	ta	jal	li
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–
								maz	har	sa	nga	ash	yo
								–	–	V	V	–	–
Sen	lut	f(f)	bi	la	kav	n-u	ma	kon	i	chi	da	mav	lo
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–
								o	lam	sa	nga	mav	lo
								–	–	V	V	–	–

Misollar:

Ey ko'zlari bodom-u sochi dom-u yuzi ol, kel tarki jafo qil.
Solma bu havodorni ko'zdin, so'zini ol, oshiqg'a vafo qil.

(Hofiz Xorazmiy)

Ey g'amzasi fitna, ko'zi fatton, o'zi ofat, rahm ayla bu jona
Xatm o'ldi sanga saltanati mulki latofat, ey shohi yagona.

(Gadoyi)

Din ofati bir mug'bachayi mohliqodur, mayxora-vu bebok
Kim, ishqidin oning vatanim dayri fanodur, sarmast-u yaqom chok.

(«Navodir ush-shabob»)

Ne vo'sma-vu, ne kesmadur ul zulfi sumansoy, ne g'amzayi jodu,
Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy, xurshid anga ko'zgu.

(«Badoyi'' ul-vasat»)

Bordim bu sahar dayri fano sori urub gom, maxmuri shabona,
Tortar edi har lahza sabuh ahli ichib jom,noqusi mug'ona.

(«Favoyid ul-kibar»)

Savol va topshiriqlar:

1. Hazaji musammani solim hamda hazaji musammani musabbag' vaznlari o'rtasidagi farq qaysi o'rinda ko'rinadi?
2. Hazaji musammani axrab vaznida axrab rukni qaysi o'rinda keladi?
3. Hazaji musammani axrab vaznidagi to'rtinchi ruknning oxirgi hijosini o'ta cho'ziqqa aylantirsak, vazn qanday nomlanadi?
4. Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida makfuf rukni qaysi o'rinlarda keladi? Ushbu vazn ohangi sizga mumtoz qo'shiqchilikdagi qaysi kuyni eslatdi?
5. Agar vazn tarkibida bir xil rukn ikki marta takrorlanib kelsa, bu uning nomlanishida qay shaklda ko'rinadi?
6. «Mustazod» so'zining ma'nosi nima? Mustazod janrida yoziladigan she'rning vazni qaysi vazn asosida va qay yo'l bilan shakllanadi?
7. Quyidagi baytlarning vaznini aniqlang:

Bir oh ila kul bo'ldum, ey charx, tilab topib,
Farhod ila Majnung'a oshiqliq ishin o'rgat.

***

Men ishq rumuzin demay o'ldum, safar etkim,
Farhod ila Majnunning o'kush rozi qoliptur.

Keynicha ko'ngulsizdur erishmakka Navoiy,
Ul sho'x chu o'z mulkiga bordi ko'ngul olg'och.

***

Ul nodiradinkim, laqabin hur demishlar, husnung erur ahsan.
Ul manzaradinkim, otidur jannati a'lo, ko'yung erur a'lo.

***

Bo'lub nafsingg'a tobi, band etarsen tushsa dushmanni,
Senga yo'q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band.

HAZAJ BAHRINING MUSADDAS VAZNLARI

Tayanch tushunchalar:
- hazaji musaddasi mahzuf
- hazaji musaddasi maqsur
- hazaji musaddasi axrabi maqbuzi solim
- hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf
- hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur
- hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf

Hazaji musaddasi mahzuf

Taqtiyi: mafoiylun mafoiylun fauvlun
V – – – / V – – – / V – –

Mazkur vaznda juda ko'plab she'rlar yozilgan bo'lib, bu uning xushohangligi bilan bog'liq. Ushbu vaznda she'r o'qish ham oson. Mumtoz adabiyotimizda ishqiy mavzudagi dostonlar, xususan, Sayfi Saroyining «Suhayl va Guldursun», Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z», Qutbning «Xusrav va Shirin», Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonlari va barcha nomalar shu vaznda yozilgan.

Hazrat Navoiy qalamiga mansub bir baytni tahlil qilsak:

Firoqing do'zaxi ichra vujudum
Bo'lubtur o't, nafaslar anda dudum.

(«Favoyid ul-kibar», 400-g'azal)

Fi	ro	qing	do'	za	xi	ich	ra	vu	ju	dum
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–
Bo'	lup	tur	o't	na	fas	lar	an	da	du	dum
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–

Misollar:

Seni husn ichra oydin pok derlar,
Meni mehring yo'linda xok deriar.

(Atoyi)

Buti siyminbarim, bizni unutma,
Dudoqi shakkarim, bizni unutma.

(Gadoyi)

Nigoro, sensizin mandin ne hosil?
Agar jon bo'lmasa, tandin ne hosil? (Lutfiy)

O'shul shohi zamong'a to gadoman,
Gado ko'rma manikim, podshoman. (Hofiz Xorazmiy)

Ko'ngullar quti shirin dostoning,
Bag'irlar qoni la'li durfishoning.
(«G'aroyib us-sig'ar», 356-g'azal)

Firoqing tig'idin yuz pora jonim,
Ne jonim, balki jismi notavonim.
(«Farhod va Shirin»)

Gahi sog'in ne bo'ldi zorlarni,
Unutmog'il burung'i yorlarni. (Bobur)

Hazaji musaddasi maqsur

Mazkur vazn yuqorida keltirilgan hazaji musaddasi mahzuf vaznidan oxirgi ruknda sodir bo'lgan o'zgarish bilan farqlanadi:

mafoiylun mafoiylun mafoiyl
V – – – / V – – – / V – ~

Ushbu vazn yuqorida keltirilgan o'lchov bilan birgalikda bir she'riy asarning o'zida o'zaro almashinib kelaverishi mumkin. Xususan, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida mazkur o'lchov hazaji musaddasi mahzuf vazni bilan birgalikda almashinib qo'llangan.

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm. («Farhod va Shirin»)

Ja	hon	da	qol	ma	di	ul	yet	ma	gan	ilm
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	~
Bi	lib	tah	qi	qi	ni	kas	bet	ma	gan	ilm
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	~

Misollar:

Ko'ngul to bo'ldi zulfungg'a giriftor,
Parishonliq mango borg'oncha ortor. (Atoyi)

Firoqing haddin oshti asru, ey moh,
Seni dardi dilimdin qildim ogoh. (Gadoyi)

Sening usruk ko'zungga ne xabar bor,
Kim ondin aql-u jong'a ko'p xatar bor. (Lutfiy)

Ko'rub dardim tarahhum qilmading hech,
To'kub ashkim tabassum qilmading hech.
(«Navodir ush-shabob», 99-g'azal)

Ko'ngulning xonumonin berdi barbod,
G'ami ishqingki, xonumoni obod.
(«Badoyi' ul-vasat», 117-g'azal)

Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi solim

Mazkur vaznning 1-rukni maf'uvlu (– –V) bo'lib, mafoiylun asl ruknining o'zgarishidan hosil qilinib, axrab deya nomlanadi. 2-rukn mafoilun (V– V–) bo'lib, uni maqbuz deb ataymiz. So'nggi 3-rukn (V– V–) maoiylun (V– – –) asl rukn solim shaklida kelib, taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoilun mafoiylun
– – V / V – V – / V – – –

Ruknlarning bir baytdagi soni (6 ta) hamda rukn nomlarini hisobga olib vaznni hazaji musaddasi axrabi maqbuzi solim deb ataymiz. Alisher Navoiyning bu vaznda yozilgan birgina g'azali mavjud:

Bog' ichra chu garm bo'ldi bozoring,
Yuz vajh ila bo'ldi gul xaridoring.
(«Favoyid ul-kibar», 345-g'azal)

Bog'	ich	ra	chu	gar	m(i)	bo'l	di	bo	zo	ring
–	–	V	V	–	V	–	V	–	–	–
Yuz	vaj	hi	la	bo'l	di	gul	xa	ri	do	ring
–	–	V	V	–	V	–	V	–	–	–

Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf

Mazkur vaznning ilk rukni maf'uvlu (– – V) bo'lib, u axrab deb nomlanadi. Ikkinchi rukni esa mafoilun (V– V–) tarzida bo'lib, u maqbuzdir. Uchinchi rukn esa fauvlun (V– –) mahzuf deb atalishini bilasiz. Shunga binoan vaznning taqtiyi quyidagicha:

maf'uvlu mafoilun fauvlun
– – V / V – V – / V – –

Ruknlar ketma-ketligini saqlab qolib, vazn nomini hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf deb nomlaymiz. Mazkur vazn musiqiy va yoqimli

ohangga ega bo'lib, mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan. Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni ham aynan shu vaznda yozilgan.

Dostondan olingan bir baytni tahlil qilamiz:

Ey, aql sening yo'lungda g'ofil
Kim, telba sening yo'lungda oqil.

Ey	aq	l(*i*)	se	ning	yo'	lung	da	g'o	fil
–	–	V	V	–	V	–	V	–	–
Kim	tel	ba	se	ning	yo'	lung	da	o	qil
–	–	V	V	–	V	–	V	–	–

Misollar:

Qon bo'ldi ko'ngul firoqi birla,
Kuydi jonim ishtiyoqi birla. (Atoyi)

Dilbar eshigida tursa bo'lmas,
Burqa'siz ul oyni ko'rsa bo'lmas. (Lutfiy)

Ko'zung ne balo qaro bo'luptur
Kim, jong'a qora balo bo'luptur.
(«G'aroyib us-sig'ar», 161-g'azal)

Yo'q dahrda garchi yor sendek,
Dushman dog'i qayda bor sendek?
(«Navodir ush-shabob», 337-g'azal)

Ko'nglumni chu ul pari olibtur,
Devona bo'lurg'a ne qolibtur. *(Bobur)*

Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur

Mazkur vazn biz yuqorida ko'rib o'tgan hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzufdan 3-rukndagi oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farqlanishini kuzatish mumkin:

maf'uvlu mafoilun mafoiyl
– – V / V – V – / V – ~

Shuning uchun bu ikkala vazn asarlar tarkibida almashinib qo'llanaveradi. Masalan, «Layli va Majnun»dan olingan quyidagi baytlarni tahlil qilsak:

Gulga beribon zumurradiy taxt,
G'uncha kibi aylading javonbaxt.
...Chun ko'kni xusufzod qilding,
Oyning kumushin savod qilding.

Gul	ga	be	ri	bon	zu	mur	ra	diy	taxt
–	–	V	V	–	V	–	V	–	~
O'un	cha	ki	bi	ay	la	ding	ja	von	baxt
–	–	V	V	–	V	–	V	–	~

Misollar:

Ey, deb sifatingda ahli idrok,
Lav loqa la-mo xalaqt-ul-aflok.

(«G'aroyib us-sig'ar», 322-g'azal)

Gohiki kasofat etti mahtob,
Mehr oltunin aylading siyahtob.

(«Layli va Majnun»)

Hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf

Mazkur vaznning 1-rukni maf'uvlun (– – –, nomi axram), 2-rukni foilun (–V–, nomi ashtar), 3-rukni fauvlun (V– –, nomi mahzuf) bo'lib, taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun mafoilun fauvlun
– – – / V – V – / V – –

Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostonidagi 240 misra aynan mana shu vaznda bitilgan.

Kecha anga bo'lmasun debon biym,
Berding nargisga mash'ali siym...
...Ko'rsang ul yon duri yagona,
Sen qilg'ung ko'z yoshini dona...
Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin ragimda qon qil...

Ke	cha	a	nga	bo'l	ma	sun	de	bon	biym
–	–	V	V	–	V	–	V	–	~
Ber	ding	nar		gis	ga	mash'	a	li	siym
–	–	–	–	–	V	–	V	–	~

Ushbu jadvalda 1-misra axrab, 2-misra axramda berilgan berilgan.

Savol va topshiriqlar:

1.Hazaji musaddasi mahzuf vaznida turkiy she'riyatda qaysi dostonlar yaratilgan?

2. Hazaji musaddasi mahzuf vaznining uchinchi rukni oxirgi hijosi o'ta cho'ziq hijoga almashtirilsa, vazn qanday nomlanadi?

3. «Layli va Majnun» dostoni hazajning qaysi vaznida yozilgan?

4. Hazaj bahrining musaddas vaznlaridan qaysilari bir doston yoki she'r tarkibida almashinib kelishi mumkin?

5. Quyidagi baytlarning vaznlarini aniqlang:

Kular, ey bog'bon, har g'uncha go'yo
Ki, g'ofildur xazondin gulsitoning.

***

Nargis kebi sarg'arib aso tutqan,
Ko'ptur qora ko'zlar ichra bemoring.

***

Begona bo'luptur oshnodin,
Begonag'a oshno bo'luptur.

***

Kim tutsa shafoating umidi,
Bebokligidin anga ne bok.

***

Yo Rab, eshigingda ul gadomen
Kim, boshtin ayoqqacha xatomen.

RUBOIY VAZNLARI

Tayanch tushunchalar

- ruboiy
- dubaytiy
- tarona
- axrab
- axram
- axrab shajarasi
- axram shajarasi

Mumtoz adabiyotimizda ruboiy janri alohida o'rin tutib, uning o'ziga xos shartlari mavjud. Shulardan biri mazkur janrning o'ziga xos maxsus vaznda yozilishidir. Bu hazaj bahrining axrab va axram shajarasi bo'lib, bu haqda Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida shunday yozadi: «Ruboiy vaznikim, oni «dubaytiy» va «tarona» ham derlar, hazaj bahrining «axram» va «axrab»idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag'oyat raboyanda».

Hazaj bahrining axrab shajarasi 12 vaznni, axram shajarasi yana 12 vaznni o'z ichiga oladi, ushbu jami 24 vazn ruboiy vaznlari hisoblanadi. Ruboiyning she'riy o'lchovi bilan bog'liq muhim xususiyat shundaki, boshqa she'riy janrlardan farqli o'laroq, uning to'rt misrasi mazkur shajaralarga mansub 4 xil vaznda yozilishi mumkin.

Hazaj bahri vaznlarini o'rganish jarayonida ruboiy vaznlariga ham to'xtalib o'tish lozim topildi.

Dastavval hazaj bahrining asliy rukni hisoblangan mafoiylun ruknidan hosil bo'lgan hamda ruboiy vaznlarini shakllantiradigan tarmoq ruknlar bilan tanishib olsak:

№	Rukn nomi	Afoyili	Taqtiyi
1	Maqbuz	Mafoilun	V – V –
2	Makfuf	Mafoiylu	V – –V
3	Axram	Maf'uvlun	– – –
4	Axrab	Maf'uvlu	– – V
5	Ashtar	Foilun	– V –
6	Ajabb	Faal	V –
7	Ahtam	Fauvl	V ~
8	Abtar	Fa'	–
9	Azall	Fo'	~

Demak, ruboiy janridagi she'rlar aynan mana shu ruknlar ishtirokida hosil bo'lgan vaznlarda yoziladi. Xo'sh, bu vaznlar qanday shakllantiriladi?

Yuqorida aytildiki, ruboiy hazaj bahrining axrab va axram shajarasi vaznlarida yoziladi. Biz buni qanday tasavvur qilamiz?



Quyidagi shaklga e'tibor qarating:

Bu hazaj bahridan hosil bo'lgan ikki shajara – axrab va axramning boshlanishidir. Endi har bir shajarani alohida o'rganib chiqamiz. Dastavval axrab shajarasiga diqqat qaratsak.

AXRAB SHAJARASI

Axrabning afoyili maf'uvlu bo'lib, chizmasi – – V dir. «Shajara» so'zi arabcha «daraxt» ma'nosini bildiradi. Aynan maf'uvluni daraxtning ildizi sifatida tasavvur qilamiz. Undan ikki uchta yirik shox chiqadi va ularning nomi mafoilun (maqbuz), mafoiylu (makfuf), mafoiylun (solim)dir:



Ko'rib turibmizki, axrab (maf'uvlu)dan uchta shox «o'sib» chiqdi. Quyida ana shu «shox»larning har biri ikkita, bu ikkitaliklar ham yana ikkitadan shoxchaga ega ekanligining guvohi bo'lamiz.

Ya'ni maqbuz (mafoilun)dan solim (mafoiylun) va makfuf (mafoiylu) shoxchalari paydo bo'ladi:



O'z o'rnida bu ikki shoxchadan ham yana ikki shox shakllanadi. Mafoiylun, ya'ni solim shoxchasidan fa' (abtar) hamda fo' (azall) «o'sib chiqadi»:

Endi aynan shu shoxning yana bir shoxchasi – mafoiylu, ya'ni makfuf shoxchasiga nazar solsak. Undan faal (ajabb) hamda fauvl (ahtam) «paydo bo'ldi»



Aynan shu holat axrabdan paydo bo'lgan qolgan ikki «shox»ga ham tegishli, ularning barchasini umumlashtirsak, quyidagi shakl namoyon bo'ldi:



Ko'rinyaptiki, mazkur axrab shajarasida ruboiy vaznlarining 12 tasi mujassam bo'lgan ekan.

UNUTMANG!

Ruboiy vaznlari, odatda, musamman shaklida kelib, misradagi to'rtinchi rukn bevosita uchinchi ruknga bog'liq bo'ladi. Ya'ni uchinchi ruknning oxirgi hijosi cho'ziq bo'lsa, to'rtinchi rukn ham cho'ziq hijo bilan, qisqa bo'lsa, qisqa hijo bilan boshlanadi.

Demak, ruboiy hazaj bahrida, musamman shaklida yoziladi. Dastavval axrabdan «o'sib» chiqqan birinchi shoxcha – «maqbuz», ya'ni mafoilun (V –V–)dan hosil bo'ladigan vaznlar bilan tanishib olamiz. Keyin navbati bilan boshqa shoxchalardan hosil bo'ladigan vaznlarni ham o'rganamiz.

I. Axrab shajarasidagi maqbuz shahobchasi vaznlari

Hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar

Axrabdan so'ng maqbuz (mafoilun, V–V–), undan so'ng esa solim (mafoiylun, V – – –), oxirgi rukn sifatida abtar (fa', –) kelmoqda. Bu esa chizmada quyidagicha namoyon bo'ladi.

maf'uvlu mafoilun mafoiylun fa'
– – V / V – V – / V – – – / –

Vaznni hosil qilayotgan rukn nomlarini hisobga olib uni hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar deb nomlaymiz.

Misol:

Til so'z bila to qizitti hangomamni,
Bir ham tiya olmadim bu xudkomamni.
Har necha itikrak ayladim xomamni,
Ul xoma qaroroq ayladi nomamni.

(G'aroyib us-sig'ar, 133-ruboiy)

Ushbu ruboiyning barcha misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

Hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall

Mazkur vazn hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar vaznidan oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farqlanadi. O'ta cho'ziq hijoning yakka o'zi kelishi fo' (azall) deb ataladi. Shu bois ushbu vaznni hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall deb ataymiz. Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoilun mafoiylun fo'
– – V / V – V – / V – – – / ~

Misol:

Mahbubdurur gul-u visoli matlub,
Ko'rmak ani gulbun uzra bilgil mahsub.
Bazm ichra uzub keturgan ermas marg'ub,
Ul navki majlis ichra o'lgan mahbub.

(G'aroyib us-sig'ar, 16-ruboiy)

Ushbu ruboiyning barcha misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

Hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb

Mazkur vaznning birinchi rukni maf'uvlu (axrab), ikkinchi rukni mafoilun (maqbuz), uchinchi rukni mafoiylu (makfuf) bo'lib, oxirgi rukni faal (ajabb) tarzida keladi. Ruknlarning atalishidan kelib chiqib vaznni hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb deb nomlaymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoilun mafoiylu faal
– – V / V – V – / V – – V / V –

Misol:

Qo'rqutma meni tamug'din, ey zohidi yax,
Jannat manga bo'lg'usi debon urma zanax
Kim, do'zax aning yodi bila jannat erur,
Jannat bori sening biladur do'zax.

(G'aroyib us-sig'ar, 27-ruboiy)

Ushbu ruboiyning 1-, 2-misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

Hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ahtam

Mazkur vazn yuqorida biz o'rgangan hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb vaznidan oxirgi ruknning o'zgarishi bilan farqlanadi. Ya'ni faal (ajabb)ni fauvl (ahtam) rukni bilan almashtiramiz va uni hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ahtam deb nomlaymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoilun mafoiylu fauvl
– – V / V – V – / V – – V / V ~

Misol:

Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,
Har va'daki aylasa, vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart.

(G'aroyib us-sig'ar, 62-ruboiy)

Ushbu ruboiyning 1-, 2-misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

II. Axrab shajarasidagi makfuf shahobchasi vaznlari

Hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar

Mazkur vaznning birinchi rukni, odatdagidek, maf'uvlu (axrab), ikkinchi rukni esa mafoiylu (makfuf), uchinchi rukni mafoiylun (solim), so'nggi rukni fa (abtar)dan iborat. Ruknlarning nomlaridan kelib chiqib vaznni hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar deb ataymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoiylu mafoiylun fa'
– – V / V – – V / V – – – / –

Misol:

Jonimg'a qilur javr-u jafo yor asru
Kim, yor ichida javr-u jafo bor asru.
Bo'ldum chekibon javr-u jafo zor asru,
Men javrkash-u, yor jafokor asru.

(G'aroyib us-sig'ar, 108-ruboiy)

Ushbu ruboiyning barcha misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

Hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall

Mazkur o'lchov biz yuqorida o'rgangan hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar vaznidan oxirgi rukn fa' (abtar)ning, ya'ni oddiy cho'ziqning fo' (azall)ga, ya'ni o'ta cho'ziqqa almashganligi bilan farqlanadi. Nomlanishda ham xuddi shunday: hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoiylu mafoiylun fo'
– – V / V – – V / V – – – / ~

Misol:

Yoshimg'a bag'ir qoni chu erdi monand,
Ko'z asradi yoshdek bo'lub andin xursand.
Turmodi ko'zumda yetkach ul sarvi baland,
Bo'lmas kishi farzandi kishiga farzand.

(G'aroyib us-sig'ar, 29-ruboiy)

Ushbu ruboiyning 1-, 2-, 4-misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

Hazaji musammani axrabi makfufi ajabb

Ruboiyning mazkur vazni quyidagicha hosil qilinadi: birinchi rukn, odatdagidek, maf'uvlu (axrab), ikkinchi va uchinchi ruknlar mafoiylu

(makfuf), to'rtinchi rukn esa faal (ajabb)dir. Taqtiyi quyidagicha:

maf'uvlu mafoiylu mafoiylu faal
– – V / V – – V / V – – V / V –

Misol:

Johilki, hasad bo'lg'ay aning jahlig'a zam,
Nur el ko'zidin anglasa o'z ko'zida kam,
Ko'zlarni alishmoqqa chekib tig'i sitam,
El ko'zini ham o'yg'a-yu o'z ko'zini ham.

(G'aroyib us-sig'ar, 94-ruboiy)

Ushbu ruboiyning barcha misralari yuqoridagi vazn asosida yozilgan.

Hazaji musammani axrabi makfufi ahtam

Mazkur vazn yuqorida biz ko'rib chiqqan hazaji musammani axrabi makfufi ajabb vaznidan oxirgi rukn – faal (ajabb)ning fauvl (ahtam)ga o'zgarishi bilan farq qiladi. Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvl
– – V / V – – V / V – – V / V ~

Misol:

Chun xanjari hajring manga qat etti hayot,
Bori g'am-u darding o'qini tinmayin ot
Kim, oncha qovursun par o'lub butsa qanot,
Toyir bo'lubon yetkamen oxir sanga bot.

(G'aroyib us-sig'ar, 21-ruboiy)

III. Axrab shajarasidagi solim shahobchasi vaznlari

Mazkur shahobcha vaznlari turkiy she'riyat, xususan, Alisher Navoiy she'riyatida u qadar keng qo'llanilmagan, shoir ruboiylarining ba'zi misralari ushbu vaznlarda bitilgan.

Hazaji musammani axrabi solimi axrami abtar

Ushbu vazn ruknlari quyidagi tartibda tashkil topadi:
1-rukn: maf'uvlu (axrab).
2-rukn: mafoiylun (solim).
3-rukn: maf'uvlun (axram).
4-rukn: fa' (abtar).
Ruknlar tartibidan kelib chiqib vaznni hazaji musammani axrabi solimi axrami abtar deb nomlaymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoiylun maf'uvlun fa'
– – V / V – – – / – – – / –

Hazaji musammani axrabi solimi axrami azall

Ushbu vazn ruknlari quyidagi tartibda tashkil topadi:
1-rukn: maf'uvlu (axrab).
2-rukn: mafoiylun (solim).
3-rukn: maf'uvlun (axram).
4-rukn: fo (azall).
Ko'rinib turibdiki, mazkur vazn yuqoridagisidan oxirgi ruknning o'ta cho'ziq ekanligi bilan farqlanadi.
Ruknlar tartibidan kelib chiqib hazaji musammani axrabi solimi axrami azall deb nomlaymiz.
Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoiylun maf'uvlun fo'
– – V / V – – – / – – – / ~

Hazaji musammani axrabi solimi axrabi ajabb

Ushbu vazn ruknlari quyidagi tartibda tashkil topadi:
1-rukn: maf'uvlu (axrab).
2-rukn: mafoiylun (solim).
3-rukn: maf'uvlu (axrab).
4-rukn: faal (ajabb).
Ruknlar tartibidan kelib chiqib hazaji musammani axrabi solimi axrabi ajabb deb nomlaymiz.
Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoiylun maf'uvlu faal
– – V / V – – – / – – V / V –

Hazaji musammani axrabi solimi axrabi ahtam

Ushbu vazn ruknlari quyidagi tartibda tashkil topadi:
1-rukn: maf'uvlu (axrab).
2-rukn: mafoiylun (solim).
3-rukn: maf'uvlu (axrab).
4-rukn: fauvl (ahtam).
Ko'rinib turibdiki, mazkur vazn yuqoridagisidan oxirgi ruknning o'ta cho'ziq ekanligi bilan farqlanadi.

Ruknlar tartibidan kelib chiqib hazaji musammani axrabi solimi axrabi qabb deb nomlaymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu mafoiylun maf'uvlu fauvl
– – V / V – – – / – – V / V –

Savol va topshiriqlar:

1. Ruboiy she'riy janri haqida nimalarni bilasiz?
2. Ruboiy hazaj bahrining qaysi shajaralarida yoziladi?
3. Ruboiylar jami nechta vaznda yoziladi? Ularning nechtasi axrabga, nechtasi axramga tegishli?
4. Ruboiy vaznlarini hosil qilishda mafoiylun asl ruknining qayi turmoqlaridan foydalaniladi?
5. Ruboiydagi bir misrada dastavval axrab rukni kelsa, undan so'ng qaysi ruknlarni keltirish mumkin?
6. Ruboiy vaznida uchinchi va to'rtinchi ruknlarning o'zaro bog'liqligini qanday tushunasiz?
7. Axrab shajarasidagi barcha vaznlarni daftaringizga yozing hamda ularni yod oling.
8. Alisher Navoiy qalamiga mansub axrab shajarasida yozilgan to'rt ruboiyni yod oling.
9. *Quyidagi ruboiylarning vaznlarini aniqlang:*

Bo'ldi mening o'lmagimga savdo bois,
Savdog'a havoyi jomi sahbo bois.
Sahbog'a dag'i dayr-u chalipo bois,
Bu barchag'a ul dilbari tarso bois.

***

Ko'nglumni olibdur ul shahi sabzdavoj
Kim, g'amza bila olur mamolikdin boj.
Boshi uza mamlakat xiroji bir toj,
Toji uza gavhari mamolikka xiroj.

***

Kunduz ko'rsang o'zungni mahzun, qadah ich,
Andoqki, quyosh ravshan-u mavzun qadah ich.
Ul damki, quyosh botti, shafaqgun qadah ich,
Jomingni qilib nechukki gardun, qadah ich.

RUBOIY VAZNINING AXRAM SHAJARASI

Tayanch tushunchalar

- axram
- axrab
- makfuf
- azall
- ashtar
- solim
- abtar

Axram shajarasi hazajning solim (mafoiylun) aslidan hosil qilingan bo'lib, lug'aviy jihatdan «burni kesilgan» ma'nosini bildiradi. Axram rukni uchun maf'uvlun (– – –) afoyili olingan.

Ruboiyning mazkur axram shajarasi axrab shajarasidan birinchi va ikkinchi ruknlarning o'zgarishi bilan farqlanadi. Ya'ni bu shajarada birinchi rukn axram (maf'uvlun) deb atalib, undan keyingi ruknlar esa ashtar (foilun), maf'uvlu (axrab), maf'uvlun (axram) afoyillaridan biri bo'lishi mumkin. Qolgan uchinchi va to'rtinchi ruknlar esa axrab shajarasidan farqlanmaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, axram shajarasi vaznlari turkiy she'riyatda u qadar keng qo'llanilmagan.

Quyida biz axram shajarasining chizmasi bilan tanishamiz.



Endi Alisher Navoiy she'riyatida qo'llangan ruboiy vaznining axram shajarasiga kiruvchi vaznlarni o'rganib chiqamiz.

I. Axram shajarasidagi ashtar shahobchasi vaznlari

Hazaji musammani axrami ashtari solimi abtar

Axram shajarasining ushbu vazni quyidagicha hosil bo'ladi: dastlabki rukn maf'uvlun (axram), ikkinchi rukn foilun (ashtar), uchinchi rukn mafoiylun (solim) va so'nggi rukn fa' (abtar) kelib, quyidagicha nomlaymiz: hazaji musammani axrami ashtari solimi abtar.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun foilun mafoiylun fa'
– – – / – V – / V – – – / –

Misol tarzida keltirilgan quyidagi ruboiyning to'rtinchi misrasi aynan hazaji musammani ashtari solimi abtar vaznida yozilgan:

Hajringda mening sabrima juz nuqson yo'q,
Ko'nglum aro g'ayri nola-u afg'on yo'q,
Jonimg'a hayot umidi xud imkon yo'q,
Yo'q, yo'q, yo'q, sabr yo'q, ko'ngul yo'q, jon yo'q.

Hazaji musammani axrami ashtari solimi azall

Axram shajarasining ushbu vazni quyidagicha hosil bo'ladi: dastlabki rukn maf'uvlun (axram), ikkinchi rukn foilun (ashtar), uchinchi rukn mafoiylun (solim) va so'nggi rukn fo' (azall) kelib, quyidagicha nomlaymiz: hazaji musammani axrami ashtari solimi azall.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun foilun mafoiylun fo'
– – – / – V – / V – – – / ~

Navoiy qalamiga mansub quyidagi ruboiyning ikkinchi misrasi aynan hazaji musammani axrami ashtari solimi azall vaznida yozilgan:

Yosh ulg'aysa toqi muqarnasdur dard,
Balki mamlu sipehri atlasdur dard,
Qari kishiga, balki, kam ermasdur dard,
Yuz sihhati bo'lsa, qariliq basdur dard.

Hazaji musammani axrami ashtari makfufi ahtam

Axram shajarasining ushbu vazni quyidagicha hosil bo'ladi:
Birinchi rukn: mafuvlun (axram).
Ikkinchi rukn: foilun (ashtar).
Uchinchi rukn: mafoiylu (makfuf).
To'rtinchi rukn: faal (ahtam).

Ruknlarning atalishidan kelib chiqib, vaznni hazaji musammani axrami ashtari makfufi ahtam deb nomlaymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun foilun mafoiylu faal
– – – / – V – / V – – V / V –

Misol sifatida keltirilgan Alisher Navoiy qalamiga mansub quyidagi ruboiyning birinchi misrasi aynan ushbu vaznda bitilgan:

Xushtur bo'lsoq ikov-la hamdam sen-u men,
Bir-biriga desak, yetushsa har g'am sen-u men,
Bo'lsoq bor esak haramg'a mahram sen-u men,
Mug' dayri aro bo'lsa vatan ham sen-u men.

Hazaji musammani axrami ashtari makfufi ajabb

Axram shajarasining ushbu vazni quyidagicha hosil bo'ladi:
Birinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Ikkinchi rukn: foilun (ashtar).
Uchinchi rukn: mafoiylu (makfuf).
To'rtinchi rukn: fauvl (ajabb).

Ruknlarning atalishidan kelib chiqib, vaznni hazaji musammani axrami ashtari makfufi ajabb deb nomlaymiz.
Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun foilun mafoiylu fauvl
– – – / – V – / V – – V / V ~

II. Axram shajarasidagi axrab shahobchasi vaznlari

Hazaji musammani axrami axrabi solimi abtar

Axram shajarasiga tegishli bo'lgan ushbu vazn quyidagicha hosil qilinadi:

Birinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Ikkinchi rukn: maf'uvlu (axrab).
Uchinchi rukn: mafoiylun (solim).
To'rtinchi rukn: fa' (abtar).

Ruknlarning nomlaridan kelib chiqib, vaznni hazaji musammani axrami axrabi solimi abtar deb ataymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun maf'uvlu mafoiylun fa'
– – – / – – V / V – – – / –

Misol sifatida keltirilgan Alisher Navoiy qalamiga quyidagi ruboiyning ikkinchi va to'rtinchi misralari aynan ushbu vaznda yozilgan:

Olam tarki kishiga himmatdin erur
Kim, ko'p shiddat ul sori rag'batdin erur,
Nafsingg'a qayu alamki shiddatdin erur,
Maxfiy tutmoq oni muruvvatdin erur.

Hazaji musammani axrami axrabi solimi azall

Axram shajarasiga tegishli bo'lgan ushbu vazn quyidagicha hosil qilinadi:
Birinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Ikkinchi rukn: maf'uvlu (axrab).
Uchinchi rukn: mafoiylun (solim).
To'rtinchi rukn: fo' (azall).

Ruknlarning nomlaridan kelib chiqib vaznni hazaji musammani axrami axrabi solimi azall deb ataymiz.

Mazkur vazn biz yuqorida ko'rib o'tgan hazaji musammani axrami axrabi solimi abtar vaznidan so'nggi ruknining o'ta cho'ziq, ya'ni fo (azall) ekanligi bilan farqlanadi.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun maf'uvlu mafoiylun fo'
– – – / – – V / V – – – / ~

Misol sifatida keltirilgan hazrat Navoiy qalamiga mansub quyidagi ruboiyning ikkinchi misrasi aynan mazkur vaznda yozilgan:

Ey joni habib-u ko'ngli ahbobqa lol,
Men ham qildim jon-u ko'ngulni irsol,
Ko'nglimga ber ahbob bila jomi visol,
Jonimni habib ayog'i tufrog'ig'a sol.

Hazaji musammani axrami axrabi makfufi ajabb

Axram tarmog'iga tegishli bo'lgan mazkur vazn quyidagi tartibda hosil qilinadi:

Birinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Ikkinchi rukn: maf'uvlu (axrab).
Uchinchi rukn: mafoiylu (makfuf).
To'rtinchi rukn: faal (ajabb).

Ruknlarning nomlaridan kelib chiqib, vaznni hazaji musammani axrami axrabi makfufi ajabb deb ataymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun maf'uvlu mafoiylu faal
– – – / – – V / V – – V / V –

Misol sifatida tanlangan Alisher Navoiy qalamiga mansub quyidagi ruboiyning uchinchi misrasi aynan ushbu vaznda bitilgan:

Har kimki tamadurur giriftorlig'i,
Ne sud anga ahli saxo yorlig'i,
Izzat bermas naqd-u diram borlig'i
Kim, bo'ldi tamadin kishining xorlig'i.

Hazaji musammani axrami axrabi makfufi ahtam

Mazkur vazn biz yuqorida o'rgangan hazaji musammani axrami axrabi makfufi ajabb vaznidan so'nggi ruknning qisqa va o'ta cho'ziq, ya'ni ahtam (fauvl) ekanligi bilan farqlanadi.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun maf'uvlu mafoiylu fauvl
– – – / – – V / V – – V / V ~

Misol tariqasida keltirilgan hazrat Navoiy qalamiga mansub quyidagi ruboiyning uchinchi misrasi aynan mazkur vaznda bitilgan:

Ul damki quyosh ayladi mag'ribqa ruju',
Gar suhbat o'shul quyosh bila topsa vuqu',
Xushtur qilmoq jom quyoshig'a shuru',
Ul damg'achakim, qilur quyosh jomi tulu'.

III. Axram shajarasidagi axram shahobchasi vaznlari

Hazaji musammani axrami abtar

Axram shajarasiga tegishli bo'lgan ushbu vazn quyidagicha hosil qilinadi:
Birinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Ikkinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Uchinchi rukn: maf'uvlun (axram).
To'rtinchi rukn: fa' (abtar).

Ruknlarning nomlaridan kelib chiqib, vaznni hazaji musammani axrami abtar deb ataymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun maf'uvlun maf'uvlun fa'
– – – / – – – / – – – / –

Hazaji musammani axrami azall

Axram shajarasiga tegishli bo'lgan ushbu vazn quyidagicha hosil qilinadi:
Birinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Ikkinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Uchinchi rukn: maf'uvlun (axram).
To'rtinchi rukn: fo' (azall).

Ruknlarning nomlaridan kelib chiqib vaznni hazaji musammani axrami azall deb ataymiz.
Mazkur vazn biz yuqorida ko'rib o'tgan vazndan so'nggi ruknining o'ta cho'ziq, ya'ni fo' (azall) ekanligi bilan farqlanadi.
Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun maf'uvlun maf'uvlun fo'
– – – / – – – / – – – / ~

Hazaji musammani axrami axrabi ajabb

Axram shajarasiga tegishli bo'lgan ushbu vazn quyidagicha hosil qilinadi:

Birinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Ikkinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Uchinchi rukn: maf'uvlu (axrab).
To'rtinchi rukn: faal (ajabb).

Ruknlarning nomlaridan kelib chiqib vaznni hazaji musammani axrami axrabi ajabb deb ataymiz.
Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun maf'uvlun maf'uvlu faal
– – – / – – – / – – V/ V –

Hazaji musammani axrami axrabi ahtam

Axram shajarasiga tegishli bo'lgan ushbu vazn quyidagicha hosil qilinadi:
Birinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Ikkinchi rukn: maf'uvlun (axram).
Uchinchi rukn: maf'uvlu (axrab).
To'rtinchi rukn: fauvl (ahtam).

Ruknlarning nomlaridan kelib chiqib vaznni hazaji musammani axrami axrabi ahtam deb ataymiz.
Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlun maf'uvlun maf'uvlu fauvl
– – – / – – – / – – V/ V ~

Savol va topshiriqlar:

1. «Axram» so'zining ma'nosi haqida nima bilasiz?
2. Axram rukni bilan boshlangan vazndan keyin qaysi ruknlar kelishi mumkin?
3. Ruboiyning to'rt misrasida bir, ikki, uch yoki to'rt xil vazn qo'llanishi haqida nima deb o'ylaysiz? Buning sababi nimada?
4. Axram shajarasidagi qaysi vaznda cho'ziq hijolar soni boshqalariga nisbatan ko'proq?
5. Axram shajarasidagi barcha vaznlarning shakllanish tartibini o'rganing, daftaringizga yozing va yod oling.
6. Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotidan axrab va axram shajarasi vaznidagi ruboiylarni aniqlang hamda kamida to'rt ruboiy yod oling.
7. Quyidagi ruboiylarning vaznlarini aniqlang:

***

Ko'nglum saydi uzub ulustin payvand,
Sargashtasifatlig' bila erdi xursand,
Qullobi muhabbating yana soldi kamand
Saydeki, uzub edi rasan, ayladi band.

***

Olloh, Olloh! Bu dag'i inshomu ekin,
Yoruhi quds fayzidin iymomu ekin,
Insho demay, anfosi Masihomu ekin
Yo qudrati Olloh-u taolomu ekin?

***

Yo Rab, ul javohirlarniki manzum ettim,
Chekkanim anga har nuktaki ma'lum ettim,
Har nuktaga bir tarona marqum ettim,
Ko'p gavhar aning zimnida maktum ettim.

RAJAZ BAHRI

Tayanch tushunchalar:

- rajaz
- mustaf'ilun
- muftailun
- mafoilun
- mafoilon
- muzol
- matviy
- maxbun
- maxbuni muzol

Rajaz arabcha so'z bo'lib, «tezlik», «shitob», «iztirob» ma'nolarini bildiradi. Mazkur bahr mustaf'ilun asli va uning takroridan hosil bo'ladi. Mustaf'ilun asliy ruknidan hosil bo'ladigan tarmoqlarni ko'rib chiqamiz:

1. Mustaf'ilon tarmoq rukni mustaf'ilun asliy ruknining oxirgi bo'g'inini o'ta cho'ziq hijoga aylantirish orqali paydo bo'ladi va faqat misraning oxirida keladi.

mustaf'i**lun** – – V –
↓ ↓
mustaf'i**lon** – – V –

2. Muftailun tarmoq rukni mustaf'ilun asliy ruknining ikkinchi hijosini qisqartirish hisobiga shakllanadi. Hosil bo'lgan mustailun rukni o'ziga teng muftailunga almashtiriladi.

mustaf'i**lun** – – V –
↓ ↓
mustai**lun**= muftailun – V V –

3. Mafoilun tarmoq rukni mustaf'ilun asliy ruknining birinchi, ya'ni cho'ziq hijsioni qisqartirish orqali hosil qilinadi. Hosil bo'lgan mutaf'ilun rukni o'ziga teng mafoilunga almashtiriladi.

mustaf'i**lun** – – V –
↓ ↓
mutaf'i**lun**= mafoilun V – V –

4. Mafoilon tarmoq rukni avval mustaf'ilun asl ruknining birinchi, ya'ni cho'ziq hijosini qisqartirish, so'ngra hosil bo'lgan mutaf'ilun ruknining oxirgi ruknini o'ta cho'ziqqa aylantirish orqali hosil qilinadi va bu rukn o'ziga teng mafoilonga almashtiriladi.

mustaf'ilun	– – V –
↓ ↓	↓ ↓
mutaf'ilon= mafoilon	V – V ~

Mustaf'ilun aslining quyidagi tarmoqlari mavjud:

№	Rukn nomi	Afoyili	Taqtiyi
1	Muzol	Mustaf'ilon	– – V ~
2	Matviy	Muftailun	–V V –
3	Maxbun	Mafoilun	V – V –
4	Maxbuni muzol	Mafoilon	V – V ~

Biz ushbu qo'llanmada rajaz bahrining barcha vaznlariga to'xtalib o'tirmaymiz, balki turkiy she'riyatda, xususan Alisher Navoiy she'riyatida qo'llanilgan vaznlarnigina o'rganamiz.

Rajazi musammani solim

Mazkur vazn mustaf'ilun (solim) asliy ruknining har bir misrada to'rt marta, bir baytda sakkiz marta takrorlanishidan hosil bo'ladi.

Taqtiyi quyidagichadir:

mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun
– – V – / – – V – / – – V – / – – V –

Yer uzra tim-tim qon yoshim go'yoki tommas dam-badam
Kim, naqdi vasling bay'ig'a ko'zlar sanar bir-bir diram.

Yer	uz	ra	tim	tim	qon	yo	shim	go'	yo	ki	tom	mas	dam	ba	dam
–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–
Kim	naq	di	vas	ling	bay'	I	g'a	ko'z	lar	sa	nar	bir	bir	di	ram
–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–

Misollar:

Har kim aning zulfi bila nogoh biror savdo qilur,
Kuch birla o'zin ul kishi sho'ridavu shaydo qilur.

(Lutfiy)

Men masti g'arqi bodamen, aksim emas may ichra, vah,
Soqiyg'a bovar bo'lmasa, bexudlug'um bastur guvah.

(«G'aroyib us-sig'ar», 557-g'azal)

Ey navbahori orazing subhig'a jonparvar havo,
Andin gul-u bulbul topib yuz barg birla ming navo.
(«Badoyi' ul-vasat», 1-g'azal)

Rajazi musammani muzol

Mazkur vazn rajazi musammani solim vaznidan oxirgi rukndagi so'nggi hijoning o'ta cho'ziq, ya'ni mustaf'ilon (muzol) ekanligi bilan farqlanadi. Shunga ko'ra vaznni rajazi musammani muzol deb ataymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilon
– – V – / – – V – / – – V – / – – V ~

Quyidagi baytning birinchi misrasi ushbu vaznda bitilgan:

Keldim qochib g'am xaylidin mayxonag'a, ey piri dayr,
Tengri panohing, gar manga xum keynida bersang panah.
("G'aroyib us-sig'ar", 557-g'azal)

Rajazi musammani matviyi maxbun

Mazkur vazn birinchi va uchinchi ruknlarning muftailun (matviy), ikkinchi va to'rtinchi ruknlarning mafoilun (maxbun) tarzida takrorlanib kelishidan hosil bo'ladi. Ruknlarning nomlaridan kelib chiqib vaznni rajazi musammani matviyi maxbun deb nomlaymiz.

UNUTMANG!
Mustaf'ilun asliy ruknidan hosil qilinadigan *mafoilun* tarmoq ruknini mafoiylunning tarmoq rukni bo'lgan *mafoilun* bilan adashtirmang!

Taqtiyi quyidagichadir:

muftailun mafoilun muftailun mafoilun
– V V – / V – V – /– V V – / V – V –

Suvda yuzungmu aksi yo chashma aro pariymudur,
Chashmayi mehr ichinda yo lam'ayi mushtariymudur?

Suv	da	yu	zung	mu	aks	si	yo	chash	ma	a	ro	pa	riy	mu	dur
–	V	V	–	V	–	V	–	–	V	V	–	V	–	V	–
Chash	ma	yi	meh	ri	chin	da	yo	lam'	a	yi	mush	ta	riy	mu	dur
–	V	V	–	V	–	V	–	–	V	V	–	V	–	V	–

Misollar:

Ey begim, ushbu yuz degul, shams bila qamarmudur?
Ey begim, ushbu so'z degul, shahd bila shakarmudur?
(Atoyi)

Donayi xoli uzra ko'r sabzayi xat nishonasi,
Donayi xol emas, erur mehr giyoh donasi.
(«G'aroyib us-sig'ar», 626-g'azal)

Nuqtayi mushkdur bu yo xoli aning jabin aro,
Kufr savodini ne xush sizdi bayozi din aro.
(«Navodir ush-shabob», 21-g'azal)

Savol va topshiriqlar:

1. «Rajaz» so'zining lug'aviy ma'nosi haqida to'xtaling.
2. Mustaf'ilun asl ruknidan hosil bo'ladigan tarmoq ruknlarning nomlarini ayting va ularning paydo bo'lish yo'llarini tushuntiring.
3. Mustaf'ilun asliy ruknidagi oxirgi rukn o'ta cho'ziqqa aylantirilsa, biz uni qanday nom bilan ataymiz?
4. Mafoiylun hamda mustaf'ilun asliy ruknlari asosida bo'lsa-da, bir xil nomlanadigan ruknni ayting.
5. Quyidagi baytlarning vaznlarini aniqlang:

Gulxan aro ostingda kul, uryon boshingda ishq o'ti,
Bu nav' taxt-u toj ila sensen, Navoiy, podshah.

***

Tiyra firoq tunlari sharhini ayt demakim,
Ming kecha deb tuganmagay bir kechaning fasonasi.

***

Aql-u havos erur adam, jon-u ko'ngulga yo'q vujud,
Tafriqa tushkali men-u, ul buti nozanin aro.

***

Fikri bu korxonani qilg'ay edi halok, agar
Bo'lmasa aql zoyili jomi mayi mug'onasi.

***

Xotami la'l og'zidur, lek hadisi jon olur,
Zahr nihon qilibdurur la'li magar nigin aro.

MUTAQORIB BAHRI

Tayanch tushunchalar:

- mutaqorib
- fauvlun
- fauvlon
- fauvlu
- faal
- fa'lu
- fa'lun
- asram
- aslam

«Mutaqorib» so'zi arabcha bo'lib, «bir-biriga yaqinlashuvchi» degan ma'noni bildiradi. Turkiy she'riyatda aruz tizimining ilk bor qo'llanilishi aynan shu bahr nomi bilan bog'liq, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostoni mazkur bahrda yaratilgan. She'riyatimizda mutaqorib bahrining faqat musamman shakli qo'llanilgan. Mazkur vazn fauvlun ruknining takrori asosida yuzaga keladi.

UNUTMANG!
Mutaqorib bahrining asliy rukni hisoblanmish *fauvlun*ni hazaj bahrining tarmoq rukni – *fauvlun* bilan adashtirmaslik lozim!

Fauvlun aslidan hosil bo'ladigan tarmoq ruknlarni ko'rib chiqamiz:

1. Fauvlon tarmoq rukni fauvlun asliy ruknining oxirgi bo'g'inini o'ta cho'ziq hijoga aylantirish orqali paydo bo'ladi va faqat misraning oxirida keladi.

fauv**lun**	V – –
↓	↓
fauv**lon**	V – ~

2. Fauvlu tarmoq rukni fauvlun asliy ruknining oxirgi hijosini qisqartirish hisobiga shakllanadi.

fauv**lun**	V – –
↓	↓
fauv**lu**	V – V

3. Faal tarmoq rukni fauvlun asliy ruknining so'nggi hijosini tashlab yuborish orqali hosil qilinadi. Hosil bo'lgan fauv rukni o'ziga teng faalga almashtiriladi.

fauv**lun** V – –
↓ ↓
fauv = faal V –

4. Fauvl tarmoq rukni fauvlun asliy ruknining oxirgi hijosini tashlab yuborish va ikkinchi hijoni o'ta cho'ziqqa aylantirish natijasida paydo bo'ladi.

fauv**lun** V – –
↓ ↓
fauv = fauv**l** V ~

5. Fa'lu tarmoq rukni fauvlun asliy ruknining birinchi, ya'ni qisqa hijosini tashlab yuborish va oxirgi cho'ziq hijoni qisqa hijoga aylantirish natijasida paydo bo'ladi. Hosil qilingan rukn o'ziga teng fa'luga almashtiriladi.

fauv**lun** V – –
↓ ↓ ↓ ↓
uvlu = fa'fu – V

6. Fa'lun tarmoq rukni fauvlun asliy ruknining birinchi, ya'ni qisqa hijosini tashlab yuborish orqali vujudga keladi. Hosil qilingan **uvlun** rukni o'ziga teng fa'lunga almashtiriladi.

fauv**lun** V – –
↓ ↓
uvlun = fa'lun – –



Mutaqorib bahri vaznlari fauvlun asli va uning quyidagi tarmoq ruknlari takroridan hosil bo'ladi:

№	Rukn nomi	Afoyili	Taqtiyi
1	Musabbag'	Fauvlon	V – ~
2	Maqbuz	Fauvlu	V – V
3	Mahzuf	Faal	V –
4	Maqsur	Fauvl	V ~
5	Asram	Fa'lu	–V
6	Aslam	Fa'lun	– –

Endi hazrat Navoiy she'riyatida uchraydigan mutaqorib bahri vaznlari bilan tanishamiz.

Mutaqoribi musammani solim

Mazkur vazn fauvlun (solim) aslining baytda sakkiz marta takror kelishidan hosil bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib vaznni mutaqoribi musammani solim deb nomlaymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

fauvlun fauvlun fauvlun fauvlun
V – – / V – – / V – – / V – –

Labingkim o'luk tirguzur jonmu erkin,
Agar jon emas, obi hayvonmu erkin?

La	bing	kim	o'	luk	tir	gu	zur	jon	mu	er	kin
V	–	–	V	–	–	V	–	–	V	–	–
A	gar	jon	e	mas	o	bi	hay	von	mu	er	kin
V	–	–	V	–	–	V	–	–	V	–	–

Misollar:

Yana sensizin munisim g'am bo'luptur,
Ko'zumga yurak qoni hamdam bo'luptur.
(«G'aroyib us-sig'ar», 160-g'azal)

Ko'ngul ichra g'am kamligi asru g'amdur,
Alam yo'qlug'i dag'i qattiq alamdur.
(«Navodir ush-shabob», 134-g'azal)

Mutaqoribi musammani mahzuf

Mazkur vazn mutaqoribi musammani solimdan oxirgi ruknning faal (mahzuf) ekanligi bilan farqlanadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib

vaznni mutaqoribi musammani mahzuf deb nomlaymiz.

Turkiy adabiyotda Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» dostonining asosiy qismi, Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» dostoni, Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonlari shu vaznda yozilgan.

Taqtiyi quyidagichadir:

fauvlun fauvlun fauvlun faal
V – – / V – – / V – – / V –

Labing sori tokim nazardur mango,
Yosh o'rnida xuni jigardur mango.

La	bing	so	ri	to	kim	na	zar	dur	ma	ngo
V	–	–	V	–	–	V	–	–	V	–
Yo	sho'r	ni	da	xu	ni	ji	gar	dur	ma	ngo
V	–	–	V	–	–	V	–	–	V	–

Misollar:

Nechakim kuyar hajr aro jon manga,
Emas tarkini qilmoq imkon manga.
(«Navodir ush-shabob», 14-g'azal)

Havo xushdurur, tut qadah, yor, axi,
Qadahni o'zung burna sipqor, axi.
(«Badoyi'' ul-vasat», 632-g'azal)

Mutaqoribi musammani maqsur

Mazkur vazn mutaqoribi musammani mahzuf vaznidan to'rtinchi ruknning oxirgi hijosi o'ta cho'ziq, ya'ni fauvl (maqsur) ekanligi bilan farqlanadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib vaznni mutaqoribi musammani maqsur deb nomlaymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

fauvlun fauvlun fauvlun fauvl
V – – / V – – / V – – / V ~

Bahor elga aysh-u, manga iztirob,
Kulub holima barqu yig'lab sahob.
(«Navodir ush-shabob, 61-g'azal»)

Ba	hor	el	ga	ay	shu	ma	nga	iz	ti	rob
V	–	–	V	–	–	V	–	–	V	~
Ku	lub	ho	li	ma	bar	qu	yig'	lab	sa	hob
V	–	–	V	–	–	V	–	–	V	~

Misollar:

Meni ishqdin man etar soda shayx,
Dema soda shayx, aytkim, loda shayx.

(«Navodir ush-shabob», 112-g'azal)

Tun-u kun xarobot aro mayparast.
Qilib o'zni isyon mayi birla mast.

(«Saddi Iskandariy»)

Mutaqoribi musammani aslam

Mazkur vazn birinchi va uchinchi ruknlarning fa'lun (aslam), ikkinchi va to'rtinchi ruknlarning fauvlun (solim) tarzida kelishidan hosil bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan vaznni mutaqoribi musammani aslam deb nomlaymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

fa'lun fauvlun fa'lun fauvlun
– – / V – – / – – / V – –

Qon aylading ko'nglumni nihoni,
Ko'rgil iki ko'zumda nishoni.

Qon	ay	la	ding	ko'ng	lum	ni	ni	ho	ni
–	–	V	–	–	–	–	V	–	–
Ko'r	gil	I	ki	ko'	zum	da	ni	sho	ni
–	–	V	–	–	–	–	V	–	–

Misollar: ...Xusrav, Navoiyyo seni ko'rsa,
Shahni degay Malikshahi soniy.

(«Navodir ush-shabob», 593-g'azal)

Mutaqoribi musammani asrami mahzuf

Mazkur vaznning birinchi va uchinchi ruknlari fa'lu (asram), ikkinchi rukni fauvlun (solim), to'rtinchi rukni faal (mahzuf) ko'rinishida bo'lib, mutaqoribi musammani asrami mahzuf deb nomlanadi.

Taqtiyi quyidagichadir:

fa'lu fauvlun fa'lu faal
– V / V – – / – V / V –

Bazm aro gar yo'q may bila daf,
Ham yomon ermas un bila kaf.

(«G'aroyib us-sig'ar», 308-g'azal)

Baz	ma	ro	gar	yo'q	may	bi	la	daf
–	V	V	–	–	–	V	V	–
Ham	yo	mon	er	mas	un	bi	la	kaf
–	V	V	–	–	–	V	V	–

Misollar:

O'qung uchun xasta Navoiy,
Ko'zi qarosin qildi hadaf.

(«G'aroyib us-sig'ar», 308-g'azal)

Kelki, g'amingdin jong'a yetibmen,
Hajrda o'lmak chora etibmen.

(«Mezon ul-avzon»dan)

O'n olti ruknli mutaqoribi maqbuzi aslam

Mazkur vaznda yozilgan she'rning har misrasida sakkizta rukn ishtirok etib, bir bayt jami o'n olti rukndan iborat bo'ladi. Ushbu vaznda yozilgan she'rlar u qadar ko'p emas.

Birinchi rukn fauvlu (maqbuz), ikkinchi rukn fa'lun (aslam) tarzida kelib, ayni shu ko'rinish bir misrada to'rt marta qaytariladi va mutaqorib bahrining o'n olti ruknli mutaqoribi maqbuzi aslam vazni hosil bo'ladi.

Taqtiyi quyidagichadir:

fauvlu fa'lun fauvlu fa'lun fauvlu fa'lun fauvlu fa'lun
V – V / – – / V – V / – – / V – V / – – / V – V / – –

Sipehr bog'in nujum vardi chu qildi ul nav'ikim xavarnaq,
Yuzidin ul sham' anjuman ichra soldi yuz ming safo-u ravnaq.

Si	peh	r(i)	bo	g'in	nu	ju	m	var	di	chu	qil	di	ul	nav	'i	kim
V	–	V	–	–	V	–	V	–	V	V	–	V	–	–	V	–
														ha	var	naq
														V	–	–
Yu	zi	din	ul	sham	'	an	ju	man	Ich	ra	sol	di	yuz	ming	sa	fo
V	–	V	–	–	V	–	V	–	V	V	–	V	–	–	V	–
														u	rav	naq
														V	–	–

Misollar:

Ne pok Majnunki, bir pariy chehra pok husnig'a zor bo'lg'ay,
Bu pok ishq ichra pok jon tarki etsa, ne ixtiyor bo'lg'ay.

Vafo yo'linda Navoiy o'ldi-yu ko'rmadi g'ayri bevafolig',
Vafo shiori bilurki, yorig'a bevafolig' shior bo'lg'ay.

(«Favoyid ul-kibar», 634-g'azal)

Savol va topshiriqlar:

1. «Mutaqorib» so'zining lug'aviy ma'nosini tushuntiring.
2. Mutaqorib bahrida turkiy she'riyatda dastlab kimning qaysi asari yaratilgan?
3. Mutaqorib bahrini qaysi asliy rukn shakllantiradi?
4. Fauvlun asliy ruknidan hosil bo'ladigan tarmoq ruknlar nomini va ularning paydo bo'lish yo'llarini ayting.
5. Mutaqorib bahri vaznlari hosil qiladigan ohangni his etishga harakat qiling, ularda qanday holat aks etishi mumkin deb o'ylaysiz?
6. Quyidagi baytlarning vaznlarini aniqlang:

Birovga musallam tariqi tasavvuf
Ki, zotida mavjud emastur taxalluf.

***

Yaqin bilki, ul kundur ofat kuni,
Ne ofat kunikim, qiyomat kuni.

***

Ey sho'xi zebo, ey sarvi ra'no,
Bo'ldum g'amingdin majnun-u shaydo.

***

Agar so'rarsen va gar tilarsen,
O'zung bilarsen, nekim qilarsen.

MUTADORIK VA KOMIL BAHRLARI

Tayanch tushunchalar

- mutadorik
- foilun
- foilon
- failun
- fa'lun
- fa'lon
- komil
- mutafoyilun
- komili musammani solim

Mutadorik bahri

«Mutadorik» so'zi arabcha bo'lib, lug'aviy jihatdan «bir-biriga ulanuvchi» degan ma'noni anglatadi. Mutadorik bahri vaznlari foilun asli va undan hosil bo'ladigan tarmoq ruknlarning takroridan yaraladi.

UNUTMANG!
Mutadorik bahrining asliy rukni hisoblanmish *foilun*ni ramal bahrining tarmoq rukni – *foilun* bilan adashtirmang!

Foilun aslidan hosil bo'ladigan tarmoq ruknlarni ko'rib chiqamiz:

1. **Foilon** tarmoq rukni foilun asl ruknining oxirgi bo'g'inini o'ta cho'ziq hijoga aylantirish orqali paydo bo'ladi va faqat misraning oxirida keladi.

foilatun – V –
↓ ↓
foilon – V –

2. **Failun** tarmoq rukni foilun asl ruknining birinchi cho'ziq hijosini qisqartirish hisobiga shakllanadi.

foilun – V –
↓ ↓
failon V V –

3. **Fa'lun** tarmoq rukni foilun asl ruknining so'nggi cho'ziq hijosi tashlab yuboriladi va hosil bo'lgan foil rukni o'ziga teng fa'lunga almashtiriladi.

foilun – V –
↓ ↓
foil = fa'lun – –

4. Fa'lon tarmoq rukni foilun asl ruknining so'nggi cho'ziq hijosi tashlab yuboriladi va hosil bo'lgan foil rukni o'ziga teng fa'lunga almashtiriladi.

foilun – V –
↓ ↓
foil = fa'lon – –

Mazkur foilun aslidan quyidagi tarmoq ruknlar hosil bo'ladi:

№	Rukn nomi	Afoyilu	Taqtiyi
1	Maqsur	Foilon	–V ~
2	Maxbun	Failun	V V –
3	Maqtu	Fa'lun	– –
4	Maqtuyi musabbag'	Fa'lon	– ~

Ushbu bahr she'riyatimizga Alisher Navoiy tomonidan olib kirilgan. Endi mutadorik bahridagi vaznlar bilan tanishamiz.

Mutadoriki musammani solim

Mazkur vazn boshqa bahrlarning solim vaznlari kabi foilun ruknining bir misrada to'rt marta takrorlanib kelishidan boshlanadi.

Taqtiyi quyidagichadir:

foilun foilun foilun foilun
– V – / – V – / – V – / – V –

Jong'a la'ling mayi jomidur multamas,
Ne Xizr suyi, ne Jomi Jamdur havas.

Jon	q'a	la'	ling	ma	yi	jo	mi	dur	mul	ta	mas
–	V	–	–	V	–	–	V	–	–	V	–
Ne	xiz	r(i)	su	yi	ne	jo	mi	jam	dur	ha	vas
–	V	–	–	V	–	–	V	–	–	V	–

Misollar:

Ey, sanga muqtadoliq iki kavn aro,
Anta xayrul bashar, anta xayrul varo.

(«Badoyi' ul-vasat», 7-g'azal)

Ne mongishdurki, tanlar habosi aning,
Ne boqishdurki, jonlar fidosi aning.

(«Mezon ul-avzon»dan)

Mutadoriki musammani maqtu'

Bu vaznda Alisher Navoiy birgina g'azal yozgan. Navoiydan so'ng Ogahiy, Muqimiy, Uvaysiy kabi shoirlar ushbu vaznda g'azal yaratdilar. Mazkur vaznda barcha hijolar faqat cho'ziq hisoblanadi. Ya'ni foilun aslidan hosil bo'lgan fa'lun (maqtu)ning bir misrada to'rt marta takrorlanishi ushbu vaznni shakllantiradi.

Taqtiyi quyidagichadir:

fa'lun fa'lun fa'lun fa'lun
– – / – – / – – / – –

Borg'il, ey hamdam, har yoni,
Ko'ngul itmish, topg'il oni.

(«Favoyid ul-kibar», 638-g'azal)

Bor	g'il	ey	ham	dam	har	yo	ni
–	–	–	–	–	–	–	–
Ko'n	gul	it	mish	top	g'il	o	ni
–	–	–	–	–	–	–	–

Misollar:

Kim, ul dilbar qilmish va'da
Bu tun bo'lmoqqa mehmoni.

(«Favoyid ul-kibar», 638-g'azal)

Bo'lmang bizga hargiz moyil,
Ne holing bordur, ey qotil?

(«Mezon ul-avzon»dan)

Komil bahri

«Komil» so'zi arabcha bo'lib, lug'aviy jihatdan «yetuk», «kamchiligi yo'q» ma'nolarini anglatadi. Mazkur vazn mutafoyilun asliy rukni takroridan hosil bo'ladi. Navoiy she'riyatida faqat komili musammani solim vazni istifoda etilgan, ushbu vazn mutafoyilun (solim)ning bir misrada to'rt marta takrorlanib kelishi bilan paydo bo'ladi.

Taqtiyi quyidagichadir:

mutafoilun mutafoilun mutafoilun mutafoilun
V V – V – / V V – V – / V V – V – / V V –V–

Ne	xa	yol	e	di	ya	na	kim	ko'	ngul	qu	shi	say	di	ni	ha	va
V	V	–	V	–	V	V	–	V	–	V	V	–	V	–	V	V
														say	la	ding
														–	V	–
Ba	da	nim	q'a	har	sa	ri	din	ha	dang	o	ti	bon	a	nga	qa	fa
V	V	–	V	–	V	V	–	V	–	V	V	–	V	–	V	V
														say	la	ding
														–	V	–

Savol va topshiriqlar:

1. «Mutadorik» so'zining lug'aviy ma'nosini tushuntiring.
2. Mutadorik bahriga tegishli bo'lgan vaznlar nomini ayting.
3. Komil bahri haqida ma'lumot bering.
4. Mutadorik va komil bahrining Alisher Navoiy she'riyatida keng istifoda etilmaganligi sabablari haqida nima deya olasiz?
5. Quyidagi baytlarning vaznlarini aniqlang:

Kech topardin talab ahli maqsadg'a yo'l,
Go'yiyo tinmayin nola aylar jaras.

***

Soqiy, bizni g'amdin qutqar,
Kelturgil rohi rayhoni.

***

Ey Navoiy, taning ichra jon yo'qsa ajab,
Kim ko'rubtur iki bulbul-u bir qafas?

TURLI ASLIY RUKNLAR VA ULARNING TARMOQLARIDAN TARKIB TOPGAN BAHRLAR. SARI' BAHRI

Tayanch tushunchalar:

- sari'
- xafif
- mujtass
- muzori''
- munsarih
- mustaf'ilun
- maf'uvlotu
- muftailun
- foilun
- foilon

Biz yuqorida bir xil asliy ruknlar hosil bo'luvchi bahrlar va ularning vaznlari bilan tanishdik.

Yana shunday bahrlar borki, ular biz o'rganib chiqqan bahrlardan biroz farq qiladi, ya'ni ularning tarkibida ikkita asliy rukn ishtirok etadi. Masalan, mustaf'ilun va maf'uvlotu degan ikki asliy rukn birgalikda bir misrada keladi va yangi bahr hosil bo'ladi. Demak, bir bahr tarkibida ikki asliy rukn kelyapti. Biz tanishgan ramal, hazaj yoki rajaz bahrlari faqatgina bir asliy rukn hamda shu rukn asosida hosil bo'lgan tarmoq ruknlaridan shakllanar edi. Endilikda ko'rib chiqishni reja qilayotganimiz – navbatdagi bahrlar esa turli xil asliy ruknlardan tashkil topadi. Turkiy adabiyot, xususan, Navoiy she'riyatida foydalanilgan bunday bahrlar quyidagilardir: sari', xafif, mujtass, muzori'', munsarih.

Sari' bahri

«Sari'» so'zi arabcha bo'lib, lug'aviy jihatdan «shitob bilan yuruvchi», «tez» degan ma'nolarni anglatadi. Turkiy she'riyatda mazkur bahrning faqat musaddas ruknli vaznlaridan foydalanilgan. Sari bahrining solim shakli quyidagicha hosil qilinadi:

1) birinchi va ikkinchi ruknlarga mustaf'ilun asli joylashtiriladi;
2) uchinchi ruknda esa maf'uvlotu asli keltiriladi.

Shu tariqa quyidagi taqti' yuzaga keladi:

mustaf'ilun mustaf'ilun maf'uvlotu
– – V – / – – V – / – – – V

UNUTMANG!

Maf'uvlotu asliy rukni alohida olinganda bahr hosil qilolmaydi, uning mustaf'ilun asliy rukni bilan birgalikdagi birikuvidan sari va munsarih bahrlari vujudga keladi. Turkiy she'riyatda ushbu bahrlarning solim shakli qo'llanilmagan.

Quyidagi jadvalda sari' bahrini hosil qiluvchi tarmoq ruknlarni keltiramiz:

№	Tarmoq rukn nomi	Afoyilu	Taqtiyi	Qaysi asliy rukndan hosil qilinganligi
1	Muftailun	Matviy	– V V –	Mustaf'ilun
2	Foilun	Matviyi makshuf	– V –	Maf'uvlotu
3	Foilon	Matviyi mavquf	– V ~	Maf'uvlotu

She'riyatimizda sari' bahrning ikki vaznidan foydalanilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

Sari'i musaddasi matviyi makshuf

Bu vaznda Alisher Navoiyning ikki g'azali, bir fardi hamda «Hayrat ul-abror» dostoni yozilgan. Vazn quyidagicha hosil qilinadi:

1) dastavval birinchi va ikkinchi rukn o'rnida mustaf'ilun aslining tarmoq rukni hisoblangan muftailun keltiriladi. Bilamizki, bu tarmoq rukn matviy deb nomlanadi. Biz bu haqda rajaz bahri bilan tanishganimizda ham ma'lumot olgan edik. Demak, birinchi va ikkinchi ruknlar muftailun muftailun ko'rinishida bo'ladi;

2) uchinchi rukn esa maf'uvlotu aslining tarmoq rukni hisoblangan foilun kelishi bilan shakllanadi. Bu o'rinda foilun rukni matviyi makshuf deb ataladi.

Mazkur holatni umumlashtirsak, quyidagi taqti' paydo bo'ladi:

muftailun muftailun foilun
– V V – / – V V – / – V –

UNUTMANG!

Maf'uvlotu asliy rukni vazn tarkibida solim shaklida qo'llanilmaydi, she'riyatimizda uning ikki tarmog'i – matviyi makshuf (foilun) va matviyi mavquf (foilon)dangina foydalanilgan. Ushbu tarmoq ruknlarni *foilotun* asliy ruknining *foilun* va *foilon* tarmoqlari bilan adashtirmang.

Alisher Navoiy qalamiga mansub g'azal matlasini tahlil qilib ko'ramiz:

Yor labi aksi tushub jom aro,
Bodag'a jon ta'mi berur kom aro.

(«Favoyid ul-kibar», 22-g'azal)

Yor	(i)	la	bi	ak	si	tu	shub	jom	a	ro
–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	–
Bo	da	g'a	jon	ta'	mi	be	rur	kom	a	ro
–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	–

Misollar:

Ohki, ishq ayladi shaydo meni,
Soldi junun ko'yiga savdo meni.

(«Badoyi' ul-vasat», 639-g'azal)

Garchi gunahning had-u poyoni yo'q,
Aylamasang afv ham imkoni yo'q...

...Bo'lsa navo birla bari muhtaram,
Aylama mahrum Navoiyni ham.

(«Hayrat ul-abror»)

Sari'i musaddasi matviyi mavquf

Mazkur vazn yuqoridagi o'lchovdan oxirgi hijoning o'ta cho'ziq bo'g'in ekanligi bilan farqlanadi. Ushbu o'lchov «Hayrat ul-abror»« dostonida sariyi musaddasi matviyi makshuf vazni bilan birgalikda qo'llanilgan.

Taqtiyi quyidagicha:

muftailun muftailun foilon
– V V – / – V V – / – V ~

O'z ishingga har necha ko'p bo'lsa mayl,
Tengri ishiga ani qilg'il tufayl.

O'z	i	shi	nga	har	ne	cha	ko'p	bo'l	sa	mayl
–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	~
Teng	ri	i	shi	g'a	a	ni	qil	g'il	tu	fayl
–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	~

Misollar:

Qilma ulus irz-u iyolig'a qasd,
Aylama el joni-yu molig'a qasd...

... Dema yilon, ajdar erur ganj sanj,
Muzmar aning javfida yuz turfa ganj.

(«Hayrat ul-abror»)

Savol va topshiriqlar:

1.Turli asliy ruknlardan tashkil topadigan vazn deganda qanday bahrni tushunasiz?

2. Turkiy she'riyatda qaysi bahrlar ikki asliy ruknlar hamda ularning tarmoqlaridan tashkil topgan?

3. «Sari» so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.

4. Maf'uvlotu asliy rukni mustaqil holda qaysi bahrni hosil qiladi?

5. Sari bahrini hosil qiluvchi asliy ruknlar nomini ayting.

6. Sariyi musaddasi matviyi makshuf vazni qanday hosil qilinadi?

7. Alisher Navoiy she'riyatida sari' bahrining qaysi vaznlaridan foydalanilgan?

8. Quyidagi baytlaming vaznlarini aniqlang:

Bas ani inson atag'il beriyo
Kim, ishidur sabr ila shukr-u hayo.

***

Bizga qizil gul yuzung afkandasi,
Savsani ozod qading bandasi.

***

Yor Navoiyni tilab, ey ko'ngul,
Yo seni o'lturgusidur, yo meni.

XAFIF BAHRI

Tayanch tushunchalar:

- xafif
- foilotun
- failotun
- failun
- failon
- fa'lun
- fa'lon

«Xafif» so'zi arabcha bo'lib, lug'aviy jihatdan «yengil» degan ma'noni bildiradi. Mumtoz she'riyatimizda xafif bahrining faqat musaddas shaklidan foydalanilgan, quyidagicha hosil qilinadi:

1) birinchi va uchinchi ruknlarda foilotun asli keltiriladi;
2) ikkinchi rukn esa mustaf'ilun aslidan tashkil topadi.

Shundan so'ng quyidagi manzara hosil bo'ladi:

foilotun mustaf'ilun foilotun
– V – – / – – V – / – V – –

UNUTMANG!
Xafif bahri ham turkiy she'riyatda sari bahri singari solim shakllarda uchramaydi.

Quyidagi jadvalda xafif bahrini hosil qiluvchi tarmoq ruknlarni keltiramiz:

№	Tarmoq rukn nomi	Afoyilu	Taqtiyi	Qaysi asliy rukndan hosil qilinganligi
1	Mafoilun	Maxbun	V – V –	Mustaf'ilun
2	Failotun	Maxbun	V V– –	Foilotun
3	Failun	Maxbuni mahzuf	V V–	Foilotun
4	Failon	Maxbuni maqsur	V V~	Foilotun
5	Fa'lun	Maqtu	– –	Foilotun
6	Fa'lon	Maqtuyi musabbag'	– ~	Foilotun

Ushbu bahrga xos muhim xususiyatlardan biri ko'pvaznlilik bo'lib, birinchi rukn foilotun (– V – –) yoki failotun (V V – –) va uchinchi rukn failun (VV–), failon (VV~), fa'lun (– –), fa'lon (– ~) tarzida bir she'riy asarda o'zaro almashinib qo'llanaveradi, bu holat bir she'rning bir necha vaznda yozilish imkoniga ega bo'lishini ta'minlaydi. Xususan, Alisher Navoiyning «Sab'ayi sayyor» dostoni mazkur bahrda yozilgan bo'lib, xafif bahriga xos ko'pvaznlilik xususiyati ushbu dostondagi voqealar, qahramonlarning ruhiy holati, bir hikoyatdan boshqasiga o'tish paytlari, syujet chiziqlarining o'zgarishida nihoyatda qo'l kelgan. She'riyatimizda xafif bahrining quyidagi vaznlaridan foydalanilgan.

Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf

Mazkur vazn quyidagicha hosil qilinadi:

1) birinchi ruknda foilotun (ba'zan uning tarmog'i failotun) qo'llaniladi;

2) ikkinchi ruknga mustaf'ilun aslidan paydo bo'ladigan mafoilun tarmoq rukni joylashadi. Biz mafoilunni maxbun deb ataymiz. Bu haqda rajaz bahri haqida ma'lumot berganimizda aytib o'tgan edik;

3) uchinchi rukn foilotun aslidan hosil bo'lgan failun, ya'ni maxbuni mahzuf tarmoq ruknidan tashkil topadi. Biz bu haqda ramal bahri haqida fikr yuritganimizda aytib o'tgandik.

Mazkur holatni umumlashtirganda quyidagi manzarani ko'ramiz:

foilotun mafoilun failun
– V – – / V – V – / VV –

Ruknlarning nomlaridan kelib chiqib vaznni xafifi musaddasi maxbuni mahzuf deb ataymiz.

Kelmay ul qotili zamona menga,
Bo'ldi hajr o'lgali bahona menga.

(«Navodir ush-shabob», 13-g'azal)

Kel	ma	yul	qo	ti	li	za	mo	na	me	nga
–	V	–	–	V	–	V	–	V	V	–
Bo'l	di	haj	ro'l	ga	li	ba	ho	na	me	nga
–	V	–	–	V	–	V	–	V	V	–

Shuningdek, mazkur vazn Alisher Navoiyning «Sab'ayi sayyor» dostonida qo'llanilgan asosiy she'riy o'lchovlardan biri hisoblanadi:

Misollar:

Qilmag'il borg'ali shitob yana,
Solma ko'nglumga iztirob yana.

(«Navodir ush-shabob», 529-g'azal)

Manga ne had demak sangaki, ne qil,
Neki bo'lg'ay sanga rizo ani qil.

(«Sab'ayi sayyor»)

Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqsur

Mazkur vazn biz yuqorida ko'rib o'tgan hazaji musaddasi maxbuni mahzuf vaznidan oxirgi ruknining so'nggi hijosi o'ta cho'ziqligi bilangina farqlanadi:

foilotun mafoilun failon
– V – – / V – V – / VV ~

Mazkur vaznda Alisher Navoiy bir g'azal yaratgan:

Har nechakim sanga jafoda rusux,
Men jafokashgadur vafoda rusux.

«Badoyi ul-vasat», 112-g'azal

Har	ne	cha	kim	sa	nga	ja	fo	da	ru	sux
–	V	–	–	V	–	V	–	V	V	~
Men	ja	fo	kash	ga	dur	va	fo	da	ru	sux
–	V	–	–	V	–	V	–	V	V	~

Shuningdek, ushbu vazn «Sab'ayi sayyor» dostonida qo'llanilgan she'riy o'lchovlardan biridir.

Misollar:

Bu raiyatqa rahmat aylab iloh
Kim, berib boshlarig'a sen kibi shoh...

...Bu tanazzul sharaf qilib sanga fosh,
Hamal ayvonida nechukki quyosh.

(«Sab'ayi sayyor»)

Xafifi musaddasi maxbuni maqtu

Mazkur vazn quyidagicha hosil qilinadi:

1) birinchi ruknda foilotun yoki failotun;

2) ikkinchi ruknda mafoilun (maxbun);

3) uchinchi ruknda fa'lun (maqtu) tarmoq ruknlari ishtirok etadi. Ularni umumlashtirsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

foilotun mafoilun fa'lun
– V – – / V – V – / – –

Ruknlarning nomlanishini hisobga olib vaznni xafifi musaddasi maxbuni maqtu' deb ataymiz.

Lab uza xatti anbar oludi
Otashin la'lining erur dudi. («Favoyid ul-kibar», 602-g'azal)

Lab	u	za	xat	ti	an	ba	ro	lu	di
–	V	–	–	V	–	V	–	–	–
O	ta	shin	la'	li	ning	e	rur	du	di
–	V	–	–	V	–	V	–	–	–

Shuningdek, ushbu vazn ham «Sab'ayi sayyor» dostonida qo'llanilgan she'riy o'lchovlardan biridir.

Misollar:

Har necha javr qilsa noz ahli,
Tortmay naylagay niyoz ahli?

Halab ahli ko'p erdi g'oyatsiz,
Yo'lda suv oz edi nihoyatsiz.

(«Sab'ayi sayyor»)

Xafifi musaddasi maxbuni maqtuyi musabbag'

Mazkur biz yuqorida ko'rib o'tgan vazndan oxirgi ruknning so'nggi hijosi o'ta cho'ziqqa aylanishi bilan farqlanadi. Shunda taqti' quyidagicha ko'rinish oladi:

foilotun mafoilun fa'lon
– V – – / V – V – / – ~

Mazkur vaznda Alisher Navoiy bir g'azal yaratgan:

Faqr ahlig'a podsho muhtoj,
O'ylakim shohg'a gado muhtoj.

(«G'aroyib us-sig'ar», 100-g'azal)

Faq	r(i)	ah	li	g'a	pod	(i)	sho	muh	toj
–	V	–	–	V	–	V	–	–	~
O'y	la	kim	shoh	(i)	g'a	ga	do	muh	toj
–	V	–	–	V	–	V	–	–	~

Shuningdek, ushbu vazn ham «Sab'ayi sayyor» dostonida qo'llanilgan she'riy o'lchovlardan biridir:

Misollar:

Ham ibodat eliga sen ma'bud,
Ham taashshuq eliga sen maqsud...

...Yuz jahon jurmum o'lsa ham ne bok,
Bahri afvung qoshindadur xoshok.

(«Sab'ayi sayyor»)

Savol va topshiriqlar:

1. «Xafif» so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.
2. Xafif bahri qaysi asliy ruknlar asosida paydo bo'ladi?
3. Xafif bahri vaznlarini hosil qiladigan tarmoq ruknlar nomlarini ayting.
4. Xafif bahridagi vaznlarning xilma-xilligi she'riyatda qanday qulaylik tug'diradi?
5. Quyidagi baytlarning vaznlarini aniqlang:

Soqiyo, tut qadahki, ranji xumor
Qiladur jonima azob yana.

***

Nargis ul nur birla ochti basar,
Adam uyqusidin ko'zinda asar.

***

Ul qilib jilva bu bo'lub shaydo,
Ishq bo'ldi jahon aro paydo.

MUJTASS BAHRI

Tayanch tushunchalar:

- mujtass
- mustaf'ilun
- foilotun
- mafoilun
- failotun
- failun
- failon
- fa'lun
- fa'lon

«Mujtass» so'zi arabcha bo'lib, «ildizi bilan yulib olingan» degan ma'noni bildiradi. Agar e'tibor qaratilsa, mujtass bi xafif bahrining old qismiga bir rukn qo'shish bilan hosil bo'ladi. Shu sababli lig'aviy ma'nosi ildizi bilan yulib olingan. Mazkur bahr mustaf'ilun hamda foilotun asllarining almashinib kelishidan hosil bo'ladi va turkiy she'riyatda faqat musamman ko'rinishida uchraydi:

mustaf'ilun foilotun mustaf'ilun foilotun
– – V – / – V – – / – – V – / – V – –

UNUTMANG!
Turkiy she'riyatda mujtass bahrining solim shakli qo'llanilmagan.

Mujtass bahri vaznlari mazkur ikki aslning tarmoq ruknlari takroridan shakllanadi. Quyidagi jadvalda mujtass bahrini hosil qiluvchi tarmoq ruknlarni keltiramiz:

№	Tarmoq rukn nomi	Afoiyli	Chizmasi	Qaysi asliy rukndan hosil qilinganligi
1	Mafoilun	Maxbun	V – V –	Mustaf'ilun
2	Failotun	Maxbun	V V– –	Foilotun
3	Failun	Maxbuni mahzuf	V V–	Foilotun
4	Failon	Maxbuni maqsur	V V~	Foilotun
5	Fa'lun	Maqtu	– –	Foilotun
6	Fa'lon	Maqtuyi musabbag'	– ~	Foilotun

Endi mujtass bahri vaznlari bilan tanishib chiqamiz. She'riyatimizda mazkur bahrga oid quyidagi 5 vazndan foydalanilgan:

Mujtassi musammani maxbun

Birinchi va uchinchi ruknlarning mafoilun (maxbun), ikkinchi va to'rtinchi ruknlarning failotun (maxbun) tarzida kelishi natijasida mujtassi musammani maxbun vazni hosil bo'ladi.

Taqtiyi quyidagichadir:

Mafoilun failotun mafoilun failotun
V – V – / V V– – / V – V –/ V V – –

Ruknlar nomidan kelib chiqib vaznni mujtassi musammani maxbun deb ataymiz.

Labingni so'rg'ali muhri sukut og'zima tushmish
Ki, ul shakkar bila ernim biri-biriga yopushmish.

(«Navodir ush-shabob», 261-g'azal)

La	bing	ni	so'r	g'a	li	muh	ri	su	kut	(i)	og'	zi	ma	tush	mish
V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	V	V	–	–
Ki	ul	shak	kar	bi	la	er	nim	bi	ri	bi	ri	ga	yo	push	mish
V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	V	V	–	–

Misollar:

Yana balo choqinin ishq telba jonima urdi,
Fano quyuni yetibon kulumni ko'kka sovurdi.

(«G'aroyib us-sig'ar», 612-g'azal)

Ne itni ul buti begonavash itiki sog'indim.
It oshnog'a yoling'on kebi ul itka yolindim.

(«Navodir ush-shabob», 396-g'azal)

Mujtassi musammani maxbuni mahzuf

Mazkur vazn quyidagicha shakllanadi:

1) birinchi va uchinchi ruknlar mafoilun (maxbun) tarzida;
2) ikkinchi rukn esa failotun (maxbun) tarzida;
3) to'rtinchi rukn failun (mahzuf) tarzida keladi va ruknlar nomidan kelib chiqib vazn nomini mujtassi musammani mahzuf deb ataymiz.

Taqtiyi quyidagichadir:

mafoilun failotun mafoilun failun
V – V – / V V– – / V – V –/ V V –

Ne maxlasim bor aning ishqidin kanora qilib,
Ne to'ymog'im bor aning husnig'a nazora qilib.

(«G'aroyib us-sig'ar», 64-g'azal)

Ne	max	la	sim	bor	a	ning	ish	qi	din	ka	no	ra	qi	lib
V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	V	V	–
Ne	to'y	mo	g'im	bo	ra	ning	hus	ni	g'a	na	zo	ra	qi	lib
V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	V	V	–

Misollar:

Nafis kiyguluk o'lsa yalang tanimg'a havas,
Hasir naqshi hasiriy libos o'rnig'a bas.
(«G'aroyib us-sig'ar», 226-g'azal)

Ko'ngulga itkali andin topilmadi xabare,
Topilsa ham, anga mendin topilmag'ay asare.
(«Navodir ush-shabob», 594-g'azal)

Mujtassi musammani maxbuni maqsur

Mazkur vazn yuqorida biz o'rgangan mujtassi musammani maxbuni mahzufdan oxirgi rukn – failun (mahzuf)ning failon (maqsur)ga o'zgarishi bilan farqlanadi.

Taqtiyi quyidagichadir:

mafoilun failotun mafoilun failon
V – V – / V V– – / V – V –/ V V ~

Badang'a kelmadi to azmi ko'yung ayladi ruh
Ki, ruh shaxsini ul g'amza ayladi majruh.
(«G'aroyib us-sig'ar», 102-g'azal)

Ba	dan	g'a	kel	ma	di	to	az	mi	ko'	yung	ay	la	di	ruh
V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	V	V	~
Ki	ruh	(i)	shax	si	ni	ul	g'am	za	ay	la	di	maj	(i)	ruh
V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	–	V	~

Misollar:

Nachukki dard qirog'i ayog'ing ostida dol,
Uzor nuqtasi yanglig' uzor ustida xol.
(«Badoyi' ul-vasat», 378-g'azal)

Erur hamisha xazon bargidek boshimda sharor,
Senga ne g'amki, boshing uzradur hamisha bahor.
(«Favoyid u-kibar», 133-g'azal)

Mujtassi musammani maxbuni maqtu'

Ushbu vazn quyidagicha hosil qilinadi:
1) birinchi va uchinchi ruknlar mafoilun (maxbun);
2)ikkinchi rukn failotun (maxbun);
3) to'rtinchi rukn fa'lun (maqtu') tarzida keladi hamda bu holat taqti'da quyidagicha namoyon bo'ladi:

mafoilun failotun mafoilun fa'lun
V – V – / V V– – / V – V –/ – –

Tilab yuzungni ko'ngul hajrdin farog' istar,
Qorong'u tunda nachukkim kishi charog' istar.
(«Badoyi ul-vasat», 167 g'azal)

Ti	lab	yu	zung	ni	ko'	ngul	haj	r(i)	din	fi	rog'	is	tar
V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	–	–
Qo	ron	g'u	tun	da	na	chuk	kim	ki	shi	cha	rog'	is	tar
V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	–	–

Misollar:

Qaro ko'zum, kel-u, mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.
(«G'aroyib us-sig'ar», 371-g'azal)

Jamolin ayla ulus ko'zidin nihon, yo Rab,
Nihon o'tumni aning ko'nglig'a ayon, yo Rab.
(«Badoyi' ul-vasat», 47-g'azal)

Mujtassi musammani maxbuni maqtuyi musabbag'

Mazkur vazn biz yuqorida o'rganib chiqqan mujtassi musammani maxbuni maqtudan oxirgi rukn – fa'lun (maqtu)ning fa'lon (maqtuyi musabbag')ga o'zgarishi bilan farqlanadi. Bu taqti'da quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

mafoilun failotun mafoilun fa'lon
V – V – / V V– – / V – V –/ – ~

Zihi visolingga tolib tutub o'zin matlub,
Muhabbatidin otingni habib atab mahbub.
(«G'aroyib us-sig'ar», 40-g'azal)

Zi	hi	vi	so	li	nga	to	lib	tu	tub	o'	zin	mat	buli
V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	–	–
Mu	hab	ba	ti	di	no	ting	ni	ha	bib	a	tab	mah	buli
V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	–	–

Misollar:

Pariydek ulki erur xo'blar aro mahjub.
Hijob siz-u, men uldur bu telbaga matlub.
(«Badoyi' ul-vasat», 43-g'azal)

Boshig'a may chiqibon bo'ldi ul sitamgar mast,
Yo'q ahli husn aro bir uyla qotili sarmast.
(«Badoyi' ul-vasat», 77-g'azal)

Savol va topshiriqlar:

1. «Mujtass» so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.
2. Mujtass bahri qaysi asliy ruknlar asosida paydo bo'ladi?
3. Mujtass bahri vaznlarini shakllantiruvchi tarmoq ruknlarni sanang.
4. Mujtass bahrining turkiy she'riyatda solim shakllari uchraydimi?
5. Mujtass bahrining Alisher Navoiy istifoda etgan vaznlarini aytib bering.
6. Quyidagi baytlarning vaznlarini aniqlang:

Yuzung xijolatidin arg'uvong'a tushti tag'ayyur,
Daraxti rangidin anglar kishiki qoni qurushmish.

***

Bizing sori nega ul sho'xi ishvagar kelmas,
Bilurki furqatidin o'lmisham, magar kelmas.

***

Firoq isitmasi andoq tanimdin o't chiqorur
Ki, gar tabib iligim tutsa, bormog'i qoborur.

MUZORI' BAHRI

Tayanch tushunchalar

- muzori'
- mafoiylun
- maf'uvlu
- mafoiylu
- foilotun
- faoilotu
- foiliyyon
- foilun
- foilon

«Muzori'» so'zi arabcha bo'lib, «o'xshash», «monand» degan ma'noni bildiradi. Adabiyotimizda, xususan, Navoiy she'riyatida mazkur bahrning faqat musamman shakllaridan foydalanilgan. Muzori' bahri birinchi va uchinchi ruknlarda mafoiylun hamda ikkinchi va to'rtinchi ruknlarda foilotun asllarining takroridan hosil bo'ladi:

mafoiylun foilotun mafoiylun foilotun
V – – – / – V – –/ V – – – / – V – –

UNUTMANG!
Muzori' bahrining solim shakli she'riyatimizda istifoda etilmagan.

Mafoiylun va foilotun asllarining quyidagi tarmoq ruknlari muzori' bahrini hosil qilishda ishtirok etadi:

№	Tarmoq rukn nomi	Afoiyli	Taqtiyi	Qaysi asliy rukndan hosil qilinganligi
1	Maf'uvlu	Axrab	– – V	Mafoiylun
2	Mafoiylu	Makfuf	V– – V	Mafoiylun
3	Foilotun	Solim	– V– –	Foilotun
4	Foilotu	Makfuf	– V– V	Foilotun
5	Foiliyyon	Musabbaq'	– V– ~	Foilotun
6	Foilun	Mahzuf	– V–	Foilotun
7	Foilon	Maqsur	– V ~	Foilotun

Endi bevosita Alisher Navoiy she'riyatida qo'llangan muzori' bahri vaznlari bilan tanishib chiqsak.

Muzori'yi musammani axrab

Mazkur vazn quyidagicha hosil qilinadi:

1) birinchi va uchinchi ruknlar maf'uvlu (axrab);

2) ikkinchi va to'rtinchi ruknlar foilotun (solim) tarzida keladi. Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu foilotun maf'uvlu foilotun
– – V/ – V – – / – – V / – V – –

Dilbar yuzin ko'rarga bo'ldi niqob mone',
Ul nav'kim, quyoshqa bo'lg'ay sahob mone'.

(«Favoyid ul-kibar», 291–g'azal)

Dil	bar	yu	zin	ko'	rar	ga	bo'l	di	ni	qob	(i)	mo	ne'
–	–	V	–	V	–	–	–	–	V	–	V	–	–
Ul	nav	'(i)	kim	qu	yosh	qa	bo'l	g'ay	sa	hob	(i)	mo	ne'
–	–	V	–	V	–	–	–	–	V	–	V	–	–

Misollar:

Bo'lmas qora ko'z eldin tutmoq kishi vafo ko'z,
Sendin netib vafo ko'z tutqaymen, ey qaro ko'z.

(«Navodir ush-shabob», 220-g'azal)

Ham subhi orazingdur vardiyatun-nasoyim,
Ham shomi sunbulingdur miskiyatush-shamoyim.

(«Navodir ush-shabob», 395-g'azal)

Muzori'yi musammani axrabi musabbag'

Mazkur vazn yuqorida biz ko'rib o'tgan muzori'yi musammani axrabdan to'rtinchi ruknning foilotun (solim)dan foiliyyon (musabbag')ga almashishi bilan hosil bo'ladi. Vaznning taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu foilotun maf'uvlu foiliyyon
– – V/ – V – – / – – V / – V – ~

Mazkur vaznda Alisher Navoiyning birgina g'azali yaratilgan bo'lib, «Navodir ush-shabob» devonidan 126-raqam ostida o'rin olgan:

Ruxsori jonibida ul xoli anbarolud,
O't go'shasida go'yo anbar tushub qilur dud.

Rux	so	ri	jo	ni	bi	da	ul	xo	li	an	ba	ro	lud
–	–	V	–	V	–	–	–	–	V	–	V	–	~
O't	go'	sha	si	da	go'	yo	an	bar	tu	shub	qi	lur	dud
–	–	V	–	V	–	–	–	–	V	–	V	–	~

Muzori'yi musammani axrabi makfufi mahzuf

Ushbu vazn quyidagicha hosil qilinadi:
1) birinchi rukn maf'uvlu (axrab);
2) ikkinchi rukn foilotu (makfuf);
3) uchinchi rukn mafoiylu (makfuf);
4) to'rtinchi rukn foilun (mahzuf) tarzida keladi.

Taqtiyi quyidagicha:

maf'uvlu foilotu mafoiylu foilun
– – V/ – V – V / V – – V / – V –

Ey hamd o'lub mahol fasohat bilan sanga,
Andoqki, qurb taqvo-vu toat bilan sanga.
(«G'aroyib us-sig'ar», 4-g'azal)

Ey	ham	do'	lub	ma	hol	(i)	fa	so	hat	bi	lan	sa	nga
–	–	V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–
An	doq	ki	qur	b(i)	taq	vo	vu	to	at	bi	lan	sa	nga
–	–	V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–

Misollar:

Ming zaxm urdi xanjari ishqing bu tan aro,
Bu tanni hajr tashladi yuz ming tikan aro.
(«G'aroyib us-sig'ar», 21-g'azal)

Ko'nglum harimi ichra qilur jilva ul pari,
Andoqki, Ka'ba ichra haramning kabutari.
(«Favoyid ul-kibar», 647-g'azal)

Muzori'yi musammani axrabi makfufi maqsur

Mazkur bahr yuqorida biz ko'rib o'tgan muzori'yi musammani axrabi makfufi mahzufdan so'nggi ruknning maqsur (foilon)ga almashinishi bilan hosil bo'ladi. Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu foilotu mafoiylu foilon
– – V/ – V – V / V – – V / – V ~

Xol-u xating xayolidin, ey sarvi gul'uzor,
Gohe ko'zumga xol tushuptur, gahe g'ubor.
(«G'aroyib us-sig'ar», 171-g'azal)

Xo	l-u	xa	ting	xa	yo	i	di	ney	sar	vi	gul'	u	zor
–	–	V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	~
Go	ne	ko'	zum	ga	xol	(i)	tu	shup	tur	ga	he	g'u	bor
–	–	V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	~

Misollar:

Ruxsor ila labingdin etar ko'nglum inbisot
Kim, gul chog'ida boda erur mujibi nishot.
(«G'aroyib us-sig'ar», 283-g'azal)

Yuz sehr qilsa kimgaki ellikdin o'tti yosh,
Atfol sahrosi qilur atrofidek maosh.

(«Navodir ush-shabob», 250-g'azal)

Muzori'yi musammani axrabi makfufi solim

Turkiy adabiyotda faqatgina Alisher Navoiy she'riyatida qo'llanilgan mazkur vazn quyidagicha hosil qilinadi:

1) birinchi rukn maf'uvlu (axrab);
2) ikkinchi rukn foilotu (makfuf);
3) uchinchi rukn mafoiylu (makfuf);
4) to'rtinchi rukn foilotun (solim) tarzida.

Taqtiyi quyidagichadir:

maf'uvlu foilotu mafoiylu foilotun
– – V/ – V – V / V – – V / – V – –

Kofirgun libos aro ul sarvinoz ekinmu
Yo shami hajr daf'ig'a shami tiroz ekinmu?

(«Navodir ush-shabob», 512-g'azal)

Ko	fir	(i)	gun	li	bos	a	ro	ul	sar	vi	noz	e	kin	mu
–	–	V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	–
Yo	sham	i	hai	r(i)	daf'	I	g'a	sham	I	ti	roz	e	kin	mu
–	–	V	–	V	–	V	V	–	–	V	–	V	–	–

Savol va topshiriqlar:

1. «Muzori'» so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.
2. Muzori' bahri qaysi asliy ruknlar takroridan hosil bo'ladi?
3. Muzori' bahri vaznlarini hosil qiluvchi tarmoq ruknlar nomlarini va ularning asosi hisoblangan asliy ruknlarni sanab bering.
4. Muzori' bahri vaznlari nomlarini ayting va ularning ruknlaridagi farqlarni tushuntiring.
5. Quyidagi baytlarning vaznlarini aniqlang:

Ul ko'ydin kelur yel ko'zlarni ravshan aylab,
Eldin ne bo'ldi tutsam men dag'i to'tiyo ko'z.

***

Bilkim, bu yo'lda zod erur a'moli xayr-u bas,
Yo'q ilm-u fazl-u mansab-u mol-u urug'-qayosh.

***

Jonimni o'rtagan yuz-u xolingni bilmasang,
O't shu'lasida ayla gumon bir o'chuk sharor.

MUNSARIH BAHRI

Tayanch tushunchalar:

- munsarih
- mustaf'ilun
- maf'uvlotu
- matviy
- matviyi makshuf
- matviyi mavquf
- manhur
- tavil
- ariz

«Munsarih» so'zi arabcha bo'lib, «oson va ravon qilingan», «erkin» degan ma'nolarni bildiradi. Adabiyotimizda, xususan, Navoiy she'riyatida mazkur bahrning faqat musamman shakllaridan foydalanilgan. Munsarih bahri misradagi birinchi va uchinchi ruknning mustaf'ilun, ikkinchi va to'rtinchi ruknning maf'uvlotu tarzida kelishidan hosil bo'ladi:

mustaf'ilun maf'uvlotu mustaf'ilun maf'uvlotu
– – V – / – – – V / – – V –/ – – – V

UNUTMANG!
Turkiy she'riyatda munsarih bahrining solim shakli qo'llanilmagan.

Quyidagi jadvalda munsarih bahrini hosil qiluvchi tarmoq ruknlarni keltiramiz:

№	Tarmoq rukn nomi	Afoiyli	Taqtiyi	Qaysi asliy rukndan hosil qilinganligi
1	Muftailun	Matviy	– V V –	Mustaf'ilun
2	Foilun	Matviyi makshuf	– V –	Maf'uvlotu
3	Foilon	Matviyi mavquf	– V ~	Maf'uvlotu
4	Foilotu	Matviy	– V –V	Maf'uvlotu
5	Fa	Manhur	–	Maf'uvlotu

UNUTMANG!
Maf'uvlotu asliy ruknidan hosil qilinuvchi foilotu va fa tarmoq ruknlarini foilotun aslidan vujudga keladigan tarmoq ruknlar bilan adashtirmang!

Mumtoz adabiyotimizda munsarih bahrining quyidagi ikki vazni qo'llanilgan:

Munsarihi musammani matviyi makshuf

Mazkur vazn quyidagicha shakllantiriladi:

1) birinchi hamda uchinchi ruknlarga muftailun (matviy) tarmoq rukni qo'yiladi;

2) ikkinchi va to'rtinchi ruknlar foilun (makshuf) tarmoq ruknining o'zaro takroridan hosil bo'ladi.

Taqtiyi quyidagichadir:

muftailun foilun muftailun foilun
– V V – / – V –/ – V V – / – V –

Bo'ldi ayog'ing qora ziynat-u peroyadin,
Uylaki bo'lg'ay qora sham tubi soyadin.

Bo'l	di	a	yo	g'ing	qo	ra	ziy	na	t-u	pe	ro	ya	din
–	V	V	–	–	V	–	–	V	V	–	–	V	–
Uy	la	ki	bo'l	g'ay	qo	ra	sham	(i)	tu	bi	so	ya	din
–	V	V	–	–	V	–	–	V	V	–	–	V	–

Misollar:

Ko'nglum ochilmas dame bu badani zordin,
Uylaki mahkam tugun inichkarak tordin.
(«G'aroyib us-sig'ar», 464-g'azal)

Vahki chamandin yana esdi shamol o'zgacha,
Har dam o'lur atridin ko'ngluma hol o'zgacha.
(«Favoyid ul-kibar», 548-g'azal)

Munsarihi musammani matviyi mavquf

Ushbu vazn munsarihi musammani matviyi makshuf she'riy o'lchovidan oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farqlanadi. Taqtiyi quyidagicha:

muftailun foilun muftailun foilon
– V V – / – V – /– V V – / – V ~

Mazkur vaznda Alisher Navoiyning birgina g'azali yaratilgan bo'lib, «G'aroyib us-sig'ar» devonidan 274-raqam bilan o'rin olgan:

Boda meni ayladi zuhd-u riyodin xalos,
Zuhd-u riyo yo'qki, ming ranj-u anodin xalos.

Bo	da	me	ni	ay	la	di	zuh	d-u	ri	yo	din	xa	los
–	V	V	–	–	V	–	–	V	V	–	–	V	~
Zuh	du	ri	yo	qo'y	ki	ming	ran	j-u	a	no	din	xa	los
–	V	V	–	–	V	–	–	V	V	–	–	V	~

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon»da «chinga» deb ataluvchi xalq qo'shig'ining ohangi shu vaznga mos tushishini aytib o'tadi.

Munsarlhi musammani matviyi manhur

Mazkur vazn quyidagicha shakllantiriladi:
1) birinchi va uchinchi rukn muftailun (matviy);
2) ikkinchi rukn foilotu (matviy);
3) to'rtinchi rukn fa (manhur) tarzida keladi.
Taqtiyi quyidagichadir:

muftailun foilotu muftailun fa'
– V V – / – V – V / – V V –/ –

Ushbu vazn turkiy she'riyatda ilk marta Alisher Navoiy tomonidan qo'llanilgan:

Ko'nglum aro bir ajab muhol havastur,
Lablaridinkim husull mumkin emastur.

(«Favoyid ul-kibar», 198-g'azal)

Ko'ng	lu	ma	ro	bir	a	jab	mu	hol	(i)	ha	vas	tur
–	V	V	–	–	V	–	V	–	V	V	–	–
Lab	la	ri	din	kim	hu	su	li	mum	ki	ne	mas	tur
–	V	V	–	–	V	–	V	–	V	V	–	–

TAVIL BAHRI

«Tavil» so'zi arabcha bo'lib, «uzun» degan ma'noni bildiradi. Tavil bahri ham maxsus asliy ruknga ega emas. Uning solim ruknlari fauvlun (V– –), mafoiylun (V – – –), fauvlun (V– –), mafoiylun (V – – –) bo'lib, she'riyatda tavilning asosan musamman ruknli vaznlaridan foydalanilgan. «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida tavil bahrining faqat bir vazni istifoda etilgan, Alisher Navoiyning 3 g'azali ushbu o'lchov asosida yaratilgan.

Tavili musammani solim

Ushbu vazn turkiy she'riyatda ilk marta Alisher Navoiy tomonidan istifoda etilgan bo'lib, taqtiyi quyidagichadir:

fauvlun mafoiylun fauvlun mafoiylun,
V – – / V – – – / V – – / V – – –

Yuzungdek qamar yo'qtur, qadingdek shajar yo'qtur,
Shajar bo'lsa ham anda, labingdek samar yo'qtur.
(«Navodir ush-shabob», 166-g'azal)

Yu	zing	dek	qa	mar	yo'q	tur	qa	ding	dek	sha	jar	yo'q	tur
V	–	–	V	–	–	–	V	–	–	V	–	–	–
Sha	jar	bo'l	sa	ham	an	Da	la	bing	dek	sa	mar	yo'q	tur
V	–	–	V	–	–	–	V	–	–	V	–	–	–

Misollar:

Zihi naxli qaddingdin xijil sarv bo'stoni,
Xat ichra labingdin munfail rohi rayhoni.
(«Badoyi' ul-vasat», 593-g'azal)

Labing chashmayi hayvon, qading ruhi insoni,
Bu ob-u havo birla birining yo'q imkoni.
(«Favoyid ul-kibar», 640-g'azal)

ARIZ BAHRI

«Ariz» so'zi arabcha bo'lib, «keng», «enli» degan ma'nolarni bildiradi. Ushbu bahr aruz ilmining ixtirochisi Xalil ibn Ahmaddan so'ng fors-tojik aruzshunoslari tomonidan kashf qilingan.

Ariz bahri ham yuqoridagi bahrlar singari maxsus asliy ruknga ega emas. Uning solim ruknlari mafoiylun (V – – –), fauvlun (V– –), mafoiylun (V – – –) fauvlun (V– –) bo'lib, she'riyatda ariz bahrining asosan musamman ruknli vaznlaridan foydalanilgan. Agar e'tibor qaratilsa, ariz bahrida ruknlar tavil

bahrinikiga o'xshash, faqat arizda avval mafoiylun, keyin fauvlun keladi. Shu sababli ariz maqlubi tavil" deb ham ataladi. "«Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida ariz bahrining faqat bir vazni istifoda etilgan bo'lib, Alisher Navoiyning bir g'azali ushbu o'lchov asosida yaratilgan.

Arizi musammani musabbag'

Ushbu vaznning taqtiyi quyidagicha:

mafoiylun fauvlun mafoiylun fauvlon
V – – – / V – –/ V – – – / V – ~

Alisher Navoiyning mazkur vaznda yozilgan yagona g'azali «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotining «Navodir ush-shabob» devoniga 322-raqam bilan kiritilgan:

Sanoyi zoting ichra topib ajz, ahli idrok,
Gahi louhsi aytib zamone mo arafnok.

Sa	no	yi	zo	ti	ngich	ra	to	pib	aj	zah	li	id	rok
V	–	–	–	V	–	–	V	–	–	–	V	–	–
Ga	hi	lo	uh	si	ay	tib	za	mo	ne	mo	a	raf	nok
V	–	–	–	V	–	–	V	–	–	–	V	–	–

Savol va topshiriqlar:

1. «Munsarih», «tavil» hamda «ariz» so'zlarining lug'aviy ma'nolarini ayting.
2. Munsarih bahrini hosil qiluvchi asliy ruknlarni ayting.
3. Munsarih bahri vaznlarining nomlarini ayting va ularning hosil bo'lish yo'llarini tushuntiring.
4. Tavil bahri haqida so'zlab bering.
5. Ariz bahri va u bilan bog'liq ma'lumotlarni keltiring.
6. Quyidagi baytlarning vaznlarini aniqlang:

Yor ila ag'yordin bir nafas ayrilmasun,
Kimki tilar bo'lmag'ay noz-u jafodin xalos.

***

Bas manga vayron maqar, sen quvon, ey charxi dun,
Toqi muqarnas bila shamsayi zarkordin.

***

Latofatda bir ondur sangakim, ulus andin
Xarob o'ldilar, lekin kishi bilmadi oni.

***

Firoqing so'gi ichra kecha ko'zdin sochib ashk,
Visoling hasratidin yaqosin subh etib chok.

MUMTOZ ARUZSHUNOSLIK ASOSLARI

Tayanch tushunchalar

- aruz
- aruz ta'limi
- juzv
- sabab
- vatad
- fosila
- aruz doiralari

Aruz vazni alohida ilm sifatida Xalil ibn Ahmad tomonidan bir tizimga solingach, bu ta'limot keyinchalik arab olimlaridan Ibn Abdu Rabbihning «Al-iqd ul-farid», Ibn as-Sarrojning «Me'yor fi-avzoni she'r», Sohib ibn Abbodning «Al-iqna» va «Al-Va'fa», Abu Zakariyo al-Xatib Tabriziyning «Al-kafi fi-l aruz va l-qavofiy», Abu Abdulloh Xorazmiyning «Mafotih ul-ulum» kabi asarlarida davom ettirildi.

Aruz ilmiy-nazariy ta'limot sifatida, ayniqsa, o'rta asr fors aruzshunosligida o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Bu davrda she'rshunoslikka doir o'nlab asarlar vujudga keldi. Ular orasida Shamsi Qays Roziyning «Al-mo'jam», Nosiriddin Tusiyning «Me'yor ul-ash'or», Vohid Tabriziyning «Jami muxtasar», Yusuf Aziziyning «Aruz», Sayfiy Buxoriyning «Aruzi Sayfiy», Atoulloh Husayniyning «Badoyi' us-sanoye», Abdurahmon Jomiyning «Risolayi aruz», Muhammad G'iyosuddining «G'iyos ul-lug'at» asarlari aruzning nazariy asoslari chuqur va batafsil tarzda bayon qilinganligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Turkiy adabiyotda yaratilgan Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», Zahiriddin Muhammad Boburning «Muxtasar» («Risolayi aruz») asarlari ham aruzshunoslik ilmiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Mumtoz aruzshunoslarimiz aruz nazariyasini tushuntirishda bo'g'inlardan emas, balki juzv deb ataluvchi bo'laklardan foydalanganlar. Juzv tushunchasini zamonaviy aruzshunoslik nuqtayi nazaridan izohlaymiz.

Ma'lumki, arab alifbosida unli tovushlarni ifodalaydigan harflar mavjud emas. Balki unlilar harakat deb nomlanadi. Buni quyidagi misol orqali tushunib olamiz. Dastavval mana bu arabiy harflarga diqqat qarating: مكتب Bu xarflar bizning alifboda shunday yoziladi: «mktb». Albatta, undoshlarning bu ko'rinishi ma'no anglatmaydi. Agar bu arabiy harflarga quyidagi belgilarni qo'yib chiqsak, holat o'zgaradi: مَكْتَبٌ Bu so'zni endi «maktab» deb o'qish mumkin. Aynan uch unlini bildiradigan َ (fatha, ya'ni qisqa «a» unlisi), ِ (kasra, ya'ni qisqa «i» unlisi) hamda ُ (zamma, ya'ni qisqa «u» unlisi) harakat deb ataladi. Agar qaysi undosh harf ustida bu harakatlardan biri kelsa, ushbu harf mutaharrik, ya'ni harakatli harf deyiladi, agar undosh harf ustida hech qanday harakat bo'lmasa, u sokin harf deyiladi hamda unga qo'yiladigan ْ belgisi sukun deyiladi. Biz ko'rib chiqqan مَكْتَبٌ (maktab) so'zida «م» (mim) hamda «ت» (te) undoshlari mutaharrik, ya'ni harakatli, «ك» (kof) hamda «ب» (be) undoshlari sokin hisoblanadi.

Juzv atamasini to'liq tushunib olish uchun ham biz mutaharrik hamda sokin harflarning ma'nolarini bilib olishimiz zarur edi. Mana endi bemalol harakat va sukunni farqlay olamiz.

Juzv (arabcha «qism, bo'lak, parcha») mutaharrik va sokin harflardan tashkil topuvchi aruziy birlik hisoblanadi. Juzvlar ruknlarni hosil qilishda ishtirok etadi (biz o'tgan darslar davomida rukn nima ekanligini juda yaxshi o'zlashtirib oldik) va uch turga ajratiladi:

1. Sabab (arabcha «arqon»). Ushbu juzv harflarning qay tartibda birikishiga qarab o'z ichida yana ikkiga bo'linadi:

a) sababi xafif (yengil sabab) – bir mutaharrik va bir sokin harfdan hosil qilinuvchi bo'lak. Masalan, «زَرْ» (zar) degan so'zni olaylik. Bunda, ko'rib turibmizki, «زَ» (z) undoshi ustida fatha turibdi, demak, u mutaharrik, «رْ» (r) undoshi ustida esa hech qanday harakat yo'q, demak, u sokin harf. Sababi xafif esa aynan shunday: bir mutaharrik va bir sokin harfdan iborat bo'ladi. Zamonaviy aruzshunoslikda esa bu bir cho'ziq hijo (–)ga teng bo'ladi. Masalan, «ham», «nam», «men» kabilar. Agar bu so'zlarga diqqat qilsak, ularning bir undoshi mutaharrik va biri sokin;

b) sababi saqil (og'ir sabab) – ikki mutaharrik harfning ketma-ket kelishidan yaraluvchi bo'lak. Masalan, «يَرَ» (yara) so'ziga diqqat qaratsak, unda ikkala undosh ham mutaharrik ekanligini ko'ramiz. Demak, bu sababi saqildir. Zamonaviy aruzshunoslikda esa u ikki qisqa hijoning ketma-ket kelishini (V V) bildiradi. Bunga «tana», «kapa», «sana» va boshqa so'zlar misol bo'la oladi.

Fikrlarimizni shu o'ringacha tartibga solsak. Demak, juzv uch turli ekan, undan biri sabab bo'lib, sabab ham ikkiga bo'linadi: sababi xafif, sababi saqil. Biz bu fikrni jadval shaklida ko'rsak, yodda saqlanishi osonlashadi:

JUZV					
Sabab		Vatad		Fosila	
Sababi xafif	Sababi saqil	Vatadi majmu'	Vatadi mafruq	Fosilayi kubro	Fosilayi sug'ro

Endi juzvning keyingi turiga nazar solsak.

2. Vatad (arabcha «qoziqcha»). U ham ikki turga bo'linadi:

a) vatadi majmu (birikkan vatad) – ikki mutaharrik va bir sokin harfning birikuvidan hosil bo'luvchi bo'lak. Quyidagi so'zlarga diqqat qiling: «سَهَرْ» (sahar). Bunda birinchi kelayotgan «سَ» (sin) hamda «هَ» (ho) undoshlari harakatli, so'nggi harf «رْ» (re) esa sokin. Demak, u vatadi majmu. Zamonaviy aruzshunoslikda qisqa hijodan so'ng cho'ziq hijo kelsa, bu vatadi majmuni bildiradi: V –

Masalan, «chaman», «taraf», «vatan» kabi;

b) vatadi mafruq (ajralgan vatad) – ikki mutaharrik va ular o'rtasida

kelgan bir sokin harf yoki bir mutaharrik harfdan so'ng ikki sokin harfning kelishidan tashkil topuvchi bo'lak. Masalan, «سَقْلَ» (saqla) so'zida «س» (sin) va «ل» (lom) harflari mutaharrik, o'rtasidagi «ق» (qof) esa sokin. Demak, bu vatadi mafruq.

Yoki «قَدْرْ» (qadr) so'zini olsak. Qoidagi binoan, bir mutaharrik «ق» (qof) va ikki sokin harf «د» (d) hamda «ر» (r) harflari kelmoqda. Bu ham vatadi mafruqdir.

Zamonaviy aruzshunoslikda cho'ziq hijodan so'ng qisqa hijoning kelishi yoki o'ta cho'ziq hijoni (– V) bildiradi: masalan, «asra», «bahra», «kuyla» yoki «ishq», «mehr», «dard» va boshqalar.

Navbatdagi juzv esa fosiladir.

3. Fosila (arabcha «palos», «oraliq») ham ikki turga bo'linadi:

a) fosilayi sug'ro (kichik fosila) – uch mutaharrik harfdan so'ng bir sokin harfning kelishidan tashkil topuvchi bo'lak. Misol tariqasida «قَرَدِم» (qaradim) so'ziga nazar solsak. Bunda dastlabki uch harf «ق» (q), «ر» (r) hamda «د» (d) harakatli bo'lsa, oxirgisi «م» (m) sokindir. Fosilayi sug'ro zamonaviy aruzshunoslikda ikki qisqa hijodan so'ng bir cho'ziq hijoning kelishini (V V –) bildiradi: masalan, «yuragim», «ajabo», «sanamo» kabi;

b) fosilayi kubro (katta fosila) – to'rt mutaharrik harfdan so'ng bir sokin harfning kelishidan tashkil topuvchi bo'lak. Masalan, «قَرَمَدِمْ» (qaramadim) so'zidagi dastlabki to'rt harf (ق ر م د) mutaharrik va oxirgisi (م) sokin, demak, uni ikkilanmay fosilayi kubro desa bo'ladi. Zamonaviy aruzshunoslikda uch qisqa hijodan so'ng bir cho'ziq hijoning kelishi fosilayi kubroni (V V V –) bildiradi. Masalan, yaramading, sanamadim.

Ana endi juzv haqidagi tasavvurlarimiz to'liq bo'ldi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, juzvlar ruknlarni hosil qiladi. Ammo qanday qilib? Buning uchun asliy ruknlarning qaysi juzvlardan shakllanishini tahlil qilamiz.

Fauvlun (فَعُوْلُنْ) – bir vatadi majmu (V –) « فَعُوْ» (fauv) va bir sababi xafif (–) «لُنْ» (lun)dan iborat bo'ladi (V – –). Ma'lumki, vatadi majmu deganda ikki mutaharrik va bir sokin harf birikuvini tushunar edik, «فَعُوْ» (fauv) esa aynan vatadi majmuga mos keladi. Sababi xafif esa bir mutaharrik va bir sokin harfdan paydo bo'lishini hisobga olsak, «لُنْ» (lun) ana shu qoidaga javob beradi. Buni chizmada quyidagicha ifodalaymiz:

Vatadi majmu (V –) « فَعُوْ» (fauv)	+	Sababi xafif (–) «لُنْ» (lun)	=	Fauvlun (فَعُوْلُنْ) V – –

Foilun (فاعِلُنْ) – bir sababi xafif (–) «فا»(fo) va bir vatadi majmu (V –) «عِلُنْ» (ilun)dan tarkib topadi (–V –).

Sababi xafif (–) «فا» (fo)	+	Vatadi majmu (V –) «عِلُنْ» (ilun)	=	Foilun (فاعِلُنْ) –V –

TOPSHIRIQ!

Quyida keltirilayotgan asliy ruknlarning juzviy tarkibini mustaqil tarzda diqqat bilan o'rganing, tahlil qiling hamda yuqoridagi ikki namuna asosida chizmaga solib daftaringizga ko'chiring!

Mafoiylun (مفاعيلُنْ) – bir vatadi majmu (V –) «mafo» va bir sababi xafif (–) «iy» hamda yana bir sababi xafif (–) «lun»dan tarkib topadi (V – – –).

Mustaf'ilun (مُسْتَفْعِلُنْ) – ikki sababi xafif (– –) «mustaf» va bir vatadi majmu (V –) «ilun»dan tashkil topadi (– –V –).

Foilotun (فاعِلاتُنْ) – bir sababi xafif (–) «fo», bir vatadi majmu (V –) «ilo» va bir sababi xafif (–) «tun»dan tarkib topadi (–V – –).

Mafoilatun (مفاعِلُتُنْ) – bir vatadi majmu (V –) «mafo» va fosilayi sug'ro (V V –) «ilatun»dan tashkil topadi (V – V V –).

Mutafoilun (مُتَفاعِلُنْ) – bir fosilayi sug'ro (V V –) «mutafo» hamda bir vatadi majmu (V –) «ilun»dan iboratdir (V V – V –).

Maf'uvlotu (مَفْعُولات) – ikki sababi xafif (– –) «maf'uv» va bir vatadi mafruq (–V) «lotu»dan tarkib topadi.

Endi asliy ruknlarning tuzilishini quyidagi jadval asosida yanada mustahkam tushunib olsak:

№	Asliy rukn nomi	Tuzilish	Chizmasi
1	**Fauvlun**	vatadi majmu' + sababi xafif	*V – –*
2	**Foilun**	sababi xafif + vatadi majmu'	*–V –*
3	**Mafoiylun**	vatadi majmu' + sababi xafif + sababi xafif	*V – – –*
4	**Mustaf'ilun**	sababi xafif + sababi xafif + vatadi majmu'	*– – V –*
5	**Foilotun**	sababi xafif + vatadi majmu' + sababi xafif	*– V – –*
6	**Mafoilatun**	vatadi majmu + fosilai sug'ro	*V – V V–*
7	**Mutafoilun**	fosilayi sug'ro + vatadi majmu'	*V V– V–*
8	**Maf'uvlotu**	sababi xafif + sababi xafif + vatadi mafruq	*– – –V*

Aruz doiralari

Mumtoz aruzshunoslarimiz aruz vaznini o'rganishni qulaylashtirish maqsadida aruz doiralaridan foydalanganlar. Aruz doiralari bu ruknlar, ulardagi cho'ziq va qisqa hijolar sonining tengligiga ko'ra o'zaro yaqin bo'lgan bahrlarning guruhlashtirilgan aylanasidir. Aruz ilmining asoschisi Xalil ibn Ahmad bahrlarning o'zlashtirilishini osonlashtirish maqsadida ushbu doiralarni kashf qilgan. Bunda bir-biriga yaqin bo'lgan bahrlar bir misra she'r misolida bir doira ichida keltiriladi. Har qaysi doira qancha bahrni o'z ichiga olsa, shuncha bo'lakka bo'linadi va ularda shu bahrlarning ruknlari ham keltirib o'tiladi. Doira atrofida berilgan misra birinchi so'zdan

boshlab o'qilsa, bir bahr; ikkinchi so'zdan boshlab o'qilsa, ikkinchi bahr, uchinchi so'zdan boshlab o'qilsa, uchinchi bahr va shu tarzda nechta bahr jamlangan bo'lsa, barchasi kelib chiqadi. Doiralardan maqsad bahrlar orasidagi farq va umumiylikni ochish, shu bilan birga, ularni o'zlashtirish va she'r vaznlarini aniqlashni osonlashtirishdir.

Mumtoz aruzshunoslikka doir risolalarda aruz doiralari son jihatidan bir-biridan farqlanishini kuzatish mumkin. Xususan, Xalil ibn Ahmad 5 doira (ba'zi manbalarda 4 yoki 6 doira) keltirgan bo'lsa, Shams Qays Roziyning «Al-mo'jam» asarida 4 ta, Nosiruddin Tusiyning «Me'yor ul-ash'or» asarida 5 ta, Sayfi Buxoriyning «Aruzi Sayfiy» asarida 5 ta, Atoulloh Husayniyning «Badoyi us-sanoye» asarida 5 ta, Vohid Tabriziyning «Jami muxtasar» asarida 6 ta, Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarida 7 ta, Zahiriddin Muhammad Boburning «Aruz risolasi»da 9 ta doira keltirilgan.

Masalan, «Mezon ul-avzon»da keltirilgan «Doirayi muttafiqa»ga diqqat qaratsak. Mutaqorib va mutadorik bahrlari tarkib jihatdan bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun bu ikki bahr yagona doiraga birlashgan.

Navoiy «Mezon ul-avzon»da bu doira uchun misol tariqasida quyidagi misrani keltiradi:

Kelib dardima chora qilsang, na bo'lg'ay?

Agar misra aynan mana shu tartibda o'qilsa, fauvlun fauvlun fauvlun fauvlun ruknlaridan tashkil topadigan mutaqorib, *Dardima chora qilsang, na bo'lg'ay kelib* shaklida o'qilsa, foilun foilun foilun foilun ruknlaridan iborat mutadorik bahriga tegishli vazn hosil bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Aruzshunoslik ilmi rivojiga hissa qo'shgan olimlardan kimlarni bilasiz?
2. Aruzdagi juzv atamasini qanday izohlaysiz?
3. Sokin va mutaharrik harflarning farqlarini aytib bering.
4. Juzvlarning turlari va ta'rifini ayting.
5. Asliy ruknlarning tuzilishi haqida ma'lumot bering.
6. Aruz doiralari deganda nimani tushunasiz?

2-QISM

MUMTOZ POETIKA ASOSLARI

MUMTOZ POETIKA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar:

- poetika
- nazariy poetika
- tarixiy poetika
- ilmi balog'a
- ilmi ma'oniy
- ilmi bayon
- ilmi badi'
- ilmhoi segona
- ilmi aruz
- ilmi qofiya

Reja:

1. "Poetika" atamasining lug'aviy va istilohiy ma'nolari.
2. Ilmi balog'a haqida umumiy tasavvur.
3. Ilmi adab va uning tarkibiy qismlari.
4. Ilmlar uchligi – mumtoz she'rni o'lchash vositasi.
5. Musulmon Sharqida mumtoz poetikaga doir asarlar.

"Poetika" yunoncha so'z bo'lib, "ijod qilish san'ati" ma'nosini bildiradi. Poetika ijodning qanday qilib san'atga aylanishi haqidagi fandir. Bugungi kunda "poetika" atamasi ikki xil ma'noda ishlatiladi:

1) umumiy – keng ma'noda adabiyot nazariyasini bildiradi;

2) xususiy – tor ma'noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi bo'lib, adabiy asar haqidagi ta'limotdir.

Zamonaviy tasnifga ko'ra, poetika fani quyidagi yirik sohalarni o'z ichiga oladi:

1) umumiy poetika (yoki nazariy poetika – makropoetika) – fonika, ritmika, metrika, strofika (band), stilistika, syujet va obrazlar tizimi;

2) xususiy poetika (yoki mikropoetika) – ma'lum bir ijodkorning asarlarini (yoki bir asarini) badiiy jihatdan tadqiq qilish;

3) tarixiy poetika – alohida olingan poetik usullar va ularning tizimini qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik vositasida o'rganish. Eng asosiy muammosi janrlar bilan bog'liq bo'lib, ildizlari xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi.

Shuningdek, ushbu istiloh zamonaviy adabiyotshunoslikda ma'no ko'lami va qamrov jihatdan yanada kengroq tarmoqlarni o'zida birlashtirib qo'llanila boshlandi[1].

Demak, poetika fani muayyan adabiy asarning badiiy ta'sirchanlik qudratini tadqiq qiladi. Poeziya san'at bo'lsa, poetika shu san'atni ilmiy tahlil qiluvchi fandir.

---

[1]Poetikaning muayyan tarmog'i ma'lum bir olim tomonidan nisbatan chuqurroq tadqiq qilinganligi uchun adabiyotshunoslikda shu olim nomi bilan bog'liq holda talqin qilinadi: Tarixiy poetika (A.N.Veselovskiy), nazariy poetika (A.A.Potebnya), struktural poetika (R.Bart, Y.Lotman) va boshqalar. Shuningdek, ayrim ulug' ijodkorlarga nisbatan Navoiy poetikasi (Y.Is'hoqov), Pushkin poetikasi (S.G.Bocharov), Dostoyevskiy poetikasi (M.Baxtin) tarzida qo'llanish ham qabul qilingan.

Aslida "Poetika" istilohi ilmiy muomalaga dastavval Arastu tomonidan kiritilgan bo'lib, uning shu nomli asarida bu istiloh quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

1) badiiy borliq hosil qiluvchi, badiiy makon va zamonda mavjud bo'lib, dunyo va shaxs haqidagi muayyan konsepsiyalar tashuvchi vositalar yig'indisidir;

2) adabiyotshunoslik va ritorikaga yaqin bo'lgan, badiiy borliqni hosil qiluvchi vositalar va uning strukturasini o'rganuvchi ilmiy predmetdir (Y.Borev).

Y.B.Borevning ta'rifiga ko'ra, tarixiy poetika mumtoz adabiyotning nazariy tarixi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, mumtoz poetikani nazariy va tarixiy poetikaning muayyan tarzdagi umumlashmasi deb qarash mumkin. Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan musulmon Sharqi adabiyotida poetika masalasi har doim she'riyat ahlining diqqat markazida turgan. Muayyan ijodkorning badiiy salohiyati va iste'dodi haqida so'z borganda, uning tasvir obyekti sifatida nimalarni olgani emas, balki o'sha obyekt yoki predmetni qanday tasvirlagani muhim hisoblangan. Shu ma'noda u yoki bu ijodkor ijodiga yoxud muayyan badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalamoqchi bo'lgan g'oya qanday badiiy timsollar, vazn yoki qofiya vositasida bayon qilinganligi bilan birga she'riy asarda qo'llanilgan badiiy san'atlarning rang-barangligi, ularning asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qaratilgan.

Sharq musulmon mumtoz poetikasi dastavval ilmi balog'a (balog'at ilmi) doirasida vujudga kelgan. "Balog'at"ning lug'aviy ma'nosi "bulug' va vusul", ya'ni "erishish va yetishish" bo'lib, istiloh sifatida Qur'oni Karim va hadisi sharif tili bo'lmish arab tilining sir-asrorlarini ochuvchi, uning nozik va nafis jihatlarini ko'rsatuvchi, balog'ati va fasohatini anglashni o'rgatuvchi ilm "balog'at ilmi" deyiladi. U ilmi bayon, ilmi maoniy, ilmi badi'lardan iborat. Aslida ilmi balog'a dastlab ilmi bayon shaklida paydo bo'lgan. Islom olamining mashhur olimlaridan bo'lgan Fazl ibn Rabiy'ning majlisida yig'ilganlar Qur'oni Karimdagi "Zaqqum" to'g'risidagi oyatni tushunmaganliklari, undagi zaqqum daraxtining mevasi va shaytonning boshi haqidagi jumlalarni sharhlashni so'raganlarida ularga Abu Ubayda javob beradi. U xalq orasida mashhur bo'lgan yalmog'iz kampirning o'tkir va uchli tishlari haqidagi baytlarni o'qib, "Ushbu bayt ma'nosini qanday tushunsangiz, oyatning ma'nosi ham shunday bo'ladi. Chunki oyatdagi o'xshatilmish ham, o'xshatiladigan ham noma'lum bo'lgan narsalar. Arablar surati xunuk barcha narsalarni shaytonga o'xshatishni odat qilganliklari uchun oyatda ham shunday o'xshatish kelgan" degan mazmundagi fikrni aytadi. Shundan so'ng Qur'oni Karimdagi bu tariqa nozik o'rinlar haqida kitob yozishga ehtiyoj tug'iladi va Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musanniy al-Basriy tomonidan "Majoz ul-Qur'on" asari (hijriy ikkinchi asr) vujudga keladi. Bunda *tashbih, istiora* va *kinoya* ilmi bayonning asosiy badiiy vositalari sifatida xizmat qilgan.

Ilmi ma'oniy sintaktik stilistikada gapning "balig'", ya'ni grammatik va sintaktik jihatdan to'g'ri tuzilgan gapning sharoit taqozosiga mos bo'lish usullarini o'rgatadi. Bu ilm mantiq va obrazlar haqidagi ilm bo'lib, u haqda dastlab asar yozgan olim Amr ibn Bahr al-Johizdir. Uning "Al-bayon val tabyin" va "I'joz ul-Qur'on" asarlarida ilmi ma'oniy haqida fikr yuritiladi. Ushbu ilmda iyjoz (fikrni qisqa va to'nda ifodalash), itnob (fikrni ko'p so'zlar vositasida ifodalash) va musavva (so'z va ma'no tengligi) usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyinchalik bu ilmlar qatoriga ilmi badi' haqidagi ilm ham qo'shilib, undan badiiy nutq vositalari (badiiy san'atlar) tadqiq qilingan va ilmiy bayon uchun asos vazifasini o'tagan tashbih, istiora va kinoya san'atlaridan boshqa barcha san'atlar ushbu ilmning o'rganish ob'ektini tashkil qilgan. Bu ilm haqida ilk asar yozgan muallif sifatida Abdulloh ibn Mu'tazz nomi keltiriladi.

Ilmi balog'a dastavval Qur'oni karim oyatlarini sharhlashga ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik badiiy asarlarni ham shu ilm asosida tadqiq qilish boshlanadi. Mahmud Zamaxshariy o'zining "Al-kashshof" asariga yozgan muqaddimasida balog'at ilmining ahamiyati haqida shunday yozadi: "... faqih fatvo ilmida eng mashhuri bo'lsa ham, mutakallim butun dunyoni o'zining so'z san'ati bilan lol qoldirsa ham, hofiz Ibn Qirriyadan ham zehnliroq bo'lsa-da, nahvchi Sibavayhidan ham bilimdon bo'lsa, lug'atshunos har bir so'zni mohirona sharhlasa-da, ularning barchasi maoniy va bayon ilmlarini bilmay, Qur'on ma'nolarini tushunishga, haqiqatni bilishga ojiz bo'ladilar".

XI asrdan boshlab poetika masalalari ilmi adab (adabiy ilmlar) doirasida ish olib borgan. Mahmud Zamaxshariy o'zining "Aruzi Qistos" asarida adabiy ilmlarning 12 ta turini keltirib o'tadi. "G'iyos ul-lug'ot" muallifi Muhammad G'iyosuddin ularga ba'zi o'zgarishlar asosida quyidagi ilmlarni kiritadi: 1) sarf (morfologiya) ilmi; 2) ishtiqoq ilmi – so'zlar yasalishi qonun-qoidalarini o'rgatuvchi fan; 3) lug'at ilmi (leksikologiya); 4) bayon ilmi; 5) maoniy ilmi; 6) badi' ilmi; 7) nahv ilmi (sintaksis); 8) qofiya ilmi; 9) aruz ilmi; 10) tanqidchilik ilmi; 11) insho ilmi; 12) kitobat ilmi.

Adabiy bilimga ega bo'lish kishidan bir necha xislatni kamolga etkazishni talab qiladi: zakovat, taxayyul, hofiza, tuyg'u va zavq. Ikkinchidan, balog'at ahlining asarlarini puxta o'rganib, savod chiqarish ham adabiy ilmlarga ega bo'lishning muhim omilidir. Uchinchidan, nazm va nasrning o'ziga xos qonuniyatlari, ijod sirlaridan xabardor bo'lish talab etiladi. To'rtinchidan, tarixdagi ijodkorlarning uslubi bilan ham yaxshi tanishmoq kerak. O'tmishda adabiy ilmlarni to'liq o'zlashtirgan kishi adib, deb atalgan. Ularning bu fazli ba'zida taxallus sifatida ham qo'llanilgan. Masalan, Adib Ahmad Yugnakiy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Abdujamil Kotib va h.k. Adib bilan olim o'rtasida farq bor: adib har bir narsadan eng yaxshisi va maqbulini tanlab oladi, olim esa maqsadga erishish yo'lida barcha narsalarni izchil o'zlashtirmog'i shart. Adabiy ilmlar o'rta asrlarda filologiyaga asos bo'lgan, nasr va nazmning nazariyasi hamda amaliyoti, til o'rganishning qonun-qoidalari, ifoda tarzi, badiiy san'atlar, aruz va qofiya kabi masalalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Arastuning "Poetika" asariga Forobiy tomonidan sharh yozulgach, uning izdoshi Ibn Sino o'zining musiqa va she'riyatga doir asarlarida she'rga "mavzuni muxayyali muqaffo" deb ta'rif berdi va shu tariqa mumtoz poetikaning asosan she'riyat masalalari bilan ish ko'ruvchi tarmog'i – "ilmlar uchligi" (ilmhoi segona) vujudga keldi. Bu ilm uchta mustaqil sohani o'z ichiga oldi. Bular quyidagilardir:

1) ilmi aruz – she'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalari haqida bahs yurituvchi soha;

2) ilmi qofiya – qofiya qonuniyatlari va turlari haqida ma'lumot beruvchi soha;

3) ilmi badi' – nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha.

Mumtoz poetikaga doir asarlar dastavval ilmi badi' doirasida paydo bo'lgan. Bizgacha yetib kelgan va arab tilida yaratilgan ilmi badi'ga doir dastlabki asarlar sifatida Nasr binni Hasanning "Mahosin ul-kalom" (IX asr), ibn Mu'tazzning "Kitob ul-badi'" (IX–X asrlar), Qudama ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r" (X asr) asarlarini keltirish mumkin.

Arab olimlari yaratgan ushbu asarlar Markaziy Osiyo va Xurosonda yashab faoliyat yuritgan ko'plab olimlar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi va ular ham bu sohada ko'plab risolalar yaratdilar. Mumtoz poetikaga doir dastlabki forsiy asar XI asrda yuzaga kelgan. Bu Muhammad binni Umar Roduyoniy qalamiga mansub bo'lib, "Tarjumon ul-balog'a" deb ataladi. Roduyoniy o'z kitobini arab olimi Nasr binni Hasanning "Mahosin ul-kalom" (33 badiiy san'at) nomli asariga suyangan holda yaratgan va unda 77 ta san'atni keltirgan. XI–XII asrlarda Ahmad binni Muhammad Manshuriy Samarqandiy talavvun san'ati haqida risola ("Kanz ul-g'aroyib"), Abumuhammad binni Muhammad Rashidiy Samarqandiy "Ziynatnoma", Rashididdin Vatvot (vaf. 1182-1183) "Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r" (60 dan ortiq badiiy san'at) nomli asarlar yaratganlar.

Tarixiy poetikaning yuqoridagi uch tarmog'ini o'zida mujassamlashtirgan yirik tadqiqot XIII asrning atoqli olimi Shamsiddin Muhammad binni Qays Roziyning "Al-Mo'jam fi ma'oyir-ul-ash'or-ul-Ajam" nomli mashhur asaridir. Asarni o'sha paytgacha poetika masalalari bo'yicha qilingan barcha ishlaming eng mukammali deb aytish mumkin. Chunki muallif bu asarida mumtoz poetikaning har uchala bo'limi – aruz, qofiya va ilmi badi' haqida mukammal ma'lumot beradi, she'r va shoirlik, badiiy asarda shakl va mazmunning munosabati, tanqidning adabiy jarayondagi roli va vazifalari haqida mulohazalar yuritadi.

Mashhur shoir Xusrav Dehlaviy ham nasr qoidalari haqida ikki jilddan iborat kitob yozib, unda yuzlab badiiy san'atlar haqida so'z yuritgan. Vahid Tabriziyning "Jam'i muxtasar" (XVI asr) asarida esa aruz, qofiya bilan bir qatorda o'nlab she'riy san'atlar ham keltirilgan.

Nizomiddin Ahmad ibni Muhammad Solih Siddiqiy Husayniyning "Majma' us-sanoyi'" asari ham butunlay ilmi badi'ga bag'ishlangan bo'lib,

80 ta she'riy san'atni o'z ichiga oladi. Qabulmuhammad qalamiga mansub "Haft Qulzum" asarining yettinchi bo'limida ham badiiy san'atlar haqida fikr yuritilgan.

Turkiy poetikaga doir bizgacha yetib kelgan ilk asar – Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" (1436) asari bo'lib, u she'r nav'lari, ilmi qofiya, ilmi badi', ilmi aruz kabi qismlarni o'z ichiga oladi (5-qism – muammo haqidagi bo'lim bizgacha etib kelmagan). Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", "Risolai muammo", "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Xamsa" dostonlarining kirish qismlarida, Boburning "Risolai aruz" asarlarida ham mumtoz poetika masalalari yoritilganligini ko'ramiz.

Savol va topshiriqlar

1. "Poetika" atamasining lug'aviy va istilohiy ma'nolariga ta'rif bering.
2. Ilmi balog'aning vujudga kelish sabablariga to'xtalib o'ting. U qanday tarkibiy qismlardan iborat?
3. Adabiy ilmlarga ta'rif bering.
4. Ilmlar uchligining tarkibiy qismlarini sanang.
5. Mumtoz poetikaga doir qanday nazariy asarlarni bilasiz?

Asosiy adabiyotlar

1. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
2. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина, 1996.
3. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Т.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
4. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги.– Т.: Ўзбекистон, 2014.
5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1990.
6. Илми балоға фанидан маърузалар. Тузувчи З.Шарипов. – Т.: Movarounnahr, 2014.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Куделин А. Средневековая арабская поэтика (вторая половина VIII–XI век). – М.: Наука, 1983.
8. Литературный энциклопедический словарь /Под общей редакцией В.М.Кожевникова и П.А.Николаева. – М.: Советская энциклопедия, 1987.
9. Мулласодиқова Н. Балоғат илмида ийжознинг қўлланилиши // Шарқшунослик, 2011. – № 1. – Б.38–42.
10. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013. – 408 b.
11. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.) – М.: Наука, 1989.
12. Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003.

MUMTOZ ADABIYOTDA ADABIY TURLAR VA SHE'R NAV'LARI. BAYTLI SHE'R SHAKLLARI

Tayanch tushunchalar:

- nazm
- nasr
- tazkira
- insho
- baytli she'r shakli
- g'azal
- musajja'
- muraddaf g'azal
- mustazod
- ruboiy
- ruboiyi xasiy
- musarra' ruboiy
- tuyuq
- qit'a
- qasida
- qasidai mujarrada
- qasidai tom
- qit'a
- muammo
- fard
- lug'z
- ta'rix

Reja:

1. Adabiy tur tushunchasi va uning ifodalanish shakllari.
2. Nazmga xos janrlar va ularning tasnifi.
3. Baytli she'r shakllari. G'azal, qasida va mustazod janrlari.
4. Kichik lirik janrlar tavsifi.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida adabiy tur tushunchasi o'ziga xos ifoda shakllaridan iborat bo'lgan. Bunda adabiy asarlar asosan nazm va nasr yo'nalishlariga bog'liq holda tahlil qilingan. Nazm va unga mansub janrlar badiiy asarlarning asosiy ifoda shakli bo'lib, ularga nasrdan ko'ra "poyasi biyikrak" (martabasi yuksakroq) deb qaralgan.

Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida nazm va nasrga badiiy nutq hamda mumtoz adabiy asarlarning ikki asosiy ifoda shakli sifatida qaralar ekan, muallif "istisvob bobinda murattab" (to'g'rilik bobila tartibli) nutqni nazm va "avroq visoqinda parishon" (varaqlar maydonida sochilgan) nutqni nasr deb ataydi. Uning fikricha, agar ijodkor o'z fikrini nazmda bayon qilsa, oddiy ilmlardan bexabar nodon kishi unga hujum qilishga va buzishga qodir bo'la olmaydi. Qisqa qilib aytganda, Shayx Ahmad Taroziy qat'iy intizomga asoslangan nazmni ma'rifat va hikmat muhofazasi uchun muhim ifoda shakli deb hisoblaydi.

Navoiy ham o'z asarlarida nazm va nasrga ta'rif berar ekan, nazmni gulshandagi gullarning saf tortib, ochilib turishiga, nasrni esa gullarning yerda sochilib to'kilib yotishiga o'xshatadi:

Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i,
Nasr qaro yerga sochilmog'lig'i. ("Hayrat ul-abror")

O'rta asrlarda nasrdan asosan ilmiy asarlar, manoqib va risolalar yozishda istifoda etilgan bo'lsa-da, ularning tarkibida ham nazmiy parchalardan foydalanish an'ana tusiga kirgan edi. Ushbu turning o'ziga xos adabiy janrlaridan shoir-u nosirlar o'z mahoratlarini namoyish qilish, poetik qarashlarini ifodalashda foydalanar edilar. Xususan, shunday adabiy janrlardan biri tazkira bo'lib, tazkira (ar. – xotira, esga olmoq) asosan, shoir va olimlarning tarjimai holi va ijodiyoti haqida ma'lumot beruvchi tarixiy-adabiy majmua hisoblangan. Unda u yoki bu shaxs haqidagi muhim ma'lumotlar va uning mashhur asarlaridan diqqatga sazovor misollar ilova qilingan. Tazkiralar asosan tarixiy-irfoniy mavzuda, shoirlarga doir va ba'zan badiiy janrlar bo'yicha tuzilgan. Birinchi guruh tazkiralar atoqli mutasavvif va olimlar shaxsiyati, dunyoqarashi va ijodiy merosini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, ularga "Tabaqot us-sufiya" (Abdurahmon Sulamiy, X-XI asrlar), "Tabaqot us-sufiya" (Abdulloh Ansoriy, X asr), "Tazkirat ul-avliyo" (Farididdin Attor, XII asr), "Nafahot ul-uns" (Abdurahmon Jomiy, XV asr), "Nasoyim ul-muhabbat" (Alisher Navoiy, XV asr) kabi tazkiralarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh tazkiralar nisbatan ko'proq bo'lib, ularga Abu Tohir Xotuniyning (XI) "Manoqib ush-shuaro", as-Saolibiyning "Yatimat ud-dahr", Muhammad Avfiyning "Lubob ul-albob", Davlatshoh Samarqandiyning Navoiyga bag'ishlangan "Tazkirat ush-shuaro"(1486), Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkiralari va boshqalar misol bo'la oladi. Bu turdagi tazkiralarda shoirlar va ularning she'rlariga munosabat bildirish asnosida tazkira mualliflari o'zlarining adabiy qarashlarini ham bayon qilib o'tganlar.

Musulmon Sharqi adabiyotida insho janri ham mashhur bo'lib, asosan maktublar yig'indisidan iborat bo'lgan. Maktublar insho san'atini o'zida namoyon qilib, unda maktub bituvchining badiiy salohiyati, nuktadonligi, so'zga hassosligi aks etgan. Bitiklarda maxsus axborot yetkazishdan ko'ra chuqur mazmun va yuksak badiiyatning ustuvor bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Alisher Navoiy o'zining insho san'atiga bag'ishlangan "Munshaot" asari muqaddimasida she'riy parchalar bilan bezalgan go'zal maktublarni turkiy tilda ham yozish mumkinligini isbotlash maqsadida o'zi yozgan xatlarni to'plab, taqdim etayotganligini ma'lum qiladi. Shu ma'noda Navoiy "Munshaot"i tarkibiga kirgan maktublarda turli badiiy san'atlar – o'xshatish, istiora, tashbih, mubolag'a va saj' usulidan ko'plab o'rinlarda foydalanilganligi kuzatiladi. Deyarli har bir maktubda Qur'on oyatlari, hadislar, she'riy parchalar keltirilgan bo'lib, ular xat yuborilgan insonga fikrni yanada ta'sirchan tarzda yetkazishda xizmat qilgan.

Turkiy poetikaga doir ilk manba – "Funun ul-balog'a"da 10 ta she'r nav'i: qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarji', musammat, mustazod, mutatavval, fard haqida ma'lumot berilib, ular tavhid, na't, munojot, manoqib (manqabat), madh (mudham, tamadduh), marsiya, hajv (mazammat), mutoyiba mavzularida bo'lishi aytiladi.

Mumtoz she'r shakllari tarkibiy tuzilishiga ko'ra baytli, bandli va ham bayt, ham bandga asoalangan she'r shakllariga bo'linadi. Baytli she'r

shakllarining asosini bayt (arabcha "uy") tashkil qiladi. Ularga g'azal, qasida, mustazod, qit'a, ruboiy, tuyuq, fard, muammo, lug'z (chiston), ta'rix va boshqalar kiradi. Ulardan dastlab g'azal, qasida va mustazodni ko'rib o'tamiz.

G'azal (ar.) – oshiqona so'z, ishq izhor qilish, ayollarni madh etish ma'nolarini bildirib, Sharq mumtoz she'riyatida keng tarqalgan lirik janr hisoblanadi. G'azal 3 baytdan 19 (21) baytgacha hajmda bo'ladi va a-a, b-a, d-a, e-a... tarzida qofiyalanadi. Turkiy adabiyotda 5-10 baytli g'azallar ko'p uchraydi. Adabiyotshunoslikda g'azal janri haqida ilk ma'lumot Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam" asarida (13-a.) keltirilgan. Olim bunda g'azalning asosiy lug'aviy ma'nosi ayollarga muhabbat qo'yish bilan bog'liq ekanligiga e'tibor qaratadi.

G'azalning birinchi bayti matla' yoki mabda', oxirgi bayti esa maqta' deb ataladi va aksar hollarda maqta'da shoir taxallusi qo'llaniladi. Ba'zan taxallus maqta'dan oldingi baytda qo'llanilishi ham mumkin.

Adabiyotshunoslikda g'azalning bir necha turlari farqlanadi:

1. Oddiy yoki odatiy g'azal (qofiyalanishi: a-a, b-a, v-a, g-a...):

Yaratqonkim, tan ichra jon yaratti,
Seni ko'rkluklar uzra xon yaratti.

Quyosh yanglig' yuzungizni yorutti,
Falakdek bizni sargardon yaratti.

Xaloyiq qiblasi bo'ldi jamoling,
O'shal kunkim seni Yazdon yaratti.

To'lin oy ta'biya sarv uzra qildi,
Meni ul surata hayron yaratti.

Eshitting ersa Yusufning jamolin,
Seni husn ichra sad chandon yaratti.

Karim Tengri kamolin qilsa izhor,
Sen oyni bo'yla benuqson yaratti.

Zihi qodirkim ul bir qatra suvni
Muhabbat gavharinga kon yaratti.

Azalda qildi Xorazmiyni muhtoj,
Tag'i manzurini sulton yaratti. (Xorazmiy)

2. G'azali husni matla' (qofiyalanishi: a-a, a-a, b-a, d-a...):

un oqshom bo'ldi-yu kelmas mening sham'i shabistonim,
Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim.
Ne g'am ko'rguzsa ko'ksum porasin choki giribonim,
Ko'runmas bo'lsa ko'ksum yorasidin dog'i pinhonim.

G'amidin durri maknundek, sirishkim oqti Jayxundek,
Muzayyan qildi gardundek jahonni ashki g'altonim.

Falak ham to'ldi kavkabdin, quyosh ham tushti ashhabdin,
Kelib tushmas bu markabdin mening xurshidi raxshonim.

Jahonni zulmat etti chah. bu zulmat ichra o'lgum, vah,
Manga bo'lsang ne Xizri rah, etib, ey obi hayvonim.

Dema ko'ktin quyosh ketmish, falakka tiyralik etmish,
Ul oy hajrida tor etmish falakni dudi afg'onim.

Navoiy kebi hijrondin, bu oqshom o'ldum afg'ondin,
G'amim yo'q buyla yuz jondin, etib gar kelsa jononim. (Navoiy)

3. G'azali qit'a (qofiyalanishi: b-a, v-a, g-a...) – asosan Almaiy, Hamza. Sobir Abdulla ijodida uchraydi:

"Chordevon" gulshani ichra kezibon bir necha oy,
Qilishib sayr-u tamosho, tunu kun ishlar edik.

Bilibon lahzada har satrini biz bir maktab,
She'riyat bobida zo'r kasbu funun ishlar edik.

Goh jilolar beribon dilga kitob sayqalidin,
Olibon ruh, umrlarni uzun ishlar edik.

Gohi bayt ila minib ko'kka – falak toqig'a biz,
Gahi "dayr" ichra "xarobot"u junun ishlar edik.

Gahi so'z dengizida biz qilibon g'avvoslik,
Gahi osmonga g'azal ila sutun ishlar edik.

Gahi Shirin tog'ida tosh kesibon, chun Farhod,
Gahi Layli cho'lida shakli junun ishlar edik.

Ba'zida she'rdagi zo'r ma'ni bilan bosh qotirib,
Goh muammoni yechib, goh tugun ishlar edik.

Goh g'azallarni solib kuyga, uni qichqirishib,
Avjida gohi baland shovqun-u un ishlar edik.

Gohi sozanda navozlar qo'lidan soz eshitib,
Gahi tinglab radio, gah fatifun ishlar edik.

Zarra yo'q xotirimiz ko'zgusida g'am zangi,
Shodlik nash'asi dillarda fuzun, ishlar edik.

Bechidamlikni qilib bartaraf, andoqkim, tog',
Ish maqomida tutub sabr-u sukun, ishlar edik.

O'rganish maqsadida she'r usuli rasmin,
Bukun ermas, hammamiz ancha burun ishlar edik.

Sobir, Uyg'un ila Ulfat ham Anisiy, Boqiy,
Yana Mahjuru Habibiy kunu tun ishlar edik.

Dedi: "hormang bolalar!" bizga, Navoiy xursand,
Chekishib gohi mashaqqat, gahi jo'n ishlar edik. (Sobir Abdulla)

4. G'azali musajja' (ikkinchi baytdan boshlab ichki qofiya qo'llaniladigan) – Navoiy, Bobur, Mashrab she'riyatida keng qo'llanilgan:

Qaro zulfung firoqida parishon ro'zgorim bor,
Yuzungning ishtiyoqida ne sabr-u ne qarorim bor.

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,
Nega holim yamon qildi, men andin bir so'rorim bor.

Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Ne g'am yuz muncha ham bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor.

Agar muslihmen, ar mufsid va gar oshiqmen, ar obid,
Ne ishing bor sening, zohid, meningki ixtiyorim bor.

Fig'onim oshti bulbuldin, g'ami yo'q zarra bu quldin,
Base, Bobur, o'shal guldin ko'ngulda xorxorim bor (Bobur)

5. G'azali mulamma' (misralari ikki va undan ortiq tilda bitiladigan) – Navoiy, Mashrab ijodida uchraydi:

Ul koni malohatda demon bor edi bir on,
Lan tanzur fi husnihi al'ona kamo kon.
(Baytning mazmuni: U go'zallikka shuchalar boyki, uning husniga agar nazar solsang, shundayligiga iqror bo'lasan).

In ixtariqa jismiy min nori havoyih,
Kuymasligi xasning choqin etkanda ne imkon.
(Baytning mazmuni: Sening havoying o'tida jismim kuyib-yondi, olov yonganda xasning yonmasligiga imkon bormi?)

O'lgum susabon hajr biyobonida, rahm et,
Konat shafahak ayn-u hayoti ano atshon.
(Baytning mazmuni: Chanqoqlikdan hajr biyobonida o'lyapman, rahm etgin, axir men tashnaman, sening labing men uchun hayot bulog'idir).

Yo qurrat-u ayni ji' va-r-ham bidumu'i,
Kim qildi bu selob ko'zum uyini vayron.
(Baytning mazmuni: Ey ko'zim nuri, kelgilu, mening qon yoshimga rahm qil. Ko'zim uyini bu toshqinlar vayron qilib yubordi-ku!)

Ey qonki, ko'zumdin oqasen rahmki, o'lgum,
Min jayri dami-l-ayni lano hosil-u iyqon.
(Baytning mazmuni: Ey qon, ko'zimdan oqmoqdasan, demak, o'lishim tayin. Ko'zim qonining oqishidan hosilimiz o'lim bo'libdi).

Lav lam yakuni-r-royihati-l-manzili Salmo,
Yuz qatla band manzilidin ketmish edi jon.
(Baytning mazmuni: Salmo manzilidan agar bir ifor etmasa edi, bu jon yuz bora kishanlangan manzilidan ketar edi).

Har vajh ila gar o'lsa Navoiy ne ajabkim,
Min kulli vujuhin sufi vajhika hayron.
(Baytning mazmuni: Turli sabablar bilan agar Navoiy o'lsa, ne ajab! Axir, barcha sabablar ichra sening yuzing hayron qoldiradi-ku!).

6. G'azali muvashshah (bayt yoki misralarining bosh harflaridan muayyan ism yoki so'z kelib chiqadigan) – Munis, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy kabi shoirlar ijodida qo'llanilgan:

Aqli hush uchti boshimdin, ey pari, devonaman,
Bir iloj qil, el ichra bo'lmayin afsona man.

Dard-u so'z-u ashk-u ohimni qiyos et sham'din,
Shomdin to subhidam hajringda o'rtab yonaman.

Ul zamonekim, yiroq vaslingdin o'ldim, to bu dam,
Har kecha yodingda ming yo'l uyqudin uyg'onaman.
Lahzai zahri g'aming, yutmoqqa toqat qolmadi,
No'sh etib vasling mayidin ham qachon bir qonaman.

Xoma mujgon, ko'z qarosidin yozib rozi dilim,
Arzai qildim, eshit ma'yusu mushtoqonaman.

Ohkim, sensiz qaroru sabr-u oromim ketib,
Bir ilon chaqqon kishidek har taraf to'lg'onaman.

Navbati jomim to'la quyg'il, karamdin, soqiyo,
Har qadamda to qilay yuz lag'zishi mastonaman.

Mulki Hind-u Marvdin kelsam topardim e'tibor.
Shul erur aybim. Muqimiy, mardumi Farg'onaman.

7. G'azali mushoira (ikki yoki undan ortiq shoirning badiha yo'li bilan g'azal aytishiga asoslangan) – Fazliy va Mahzunaning mushoirasi mashhur:

Fazliy: Yuz ofarin so'zingga "lubbi lubob" ko'rmay,
Arzu jamol etarmu oyina, ob ko'rmay.

Mahzuna: Kimdin chiqar bu so'zlar, bag'rin kabob ko'rmay.
Ganj o'lmag'ay muyassar, holin xarob ko'rmay.

Fazliy: Masturai suxang'a po'shidalig' munosib.
Ma'ni arusin, bas, men beshiqob ko'rmay.

Mahzuna: Yo'q aybi so'zlarimni, gar bo'lmasa muaddab,
Andoqki, o't ko'karmas, hech oftob ko'rmay.

Fazliy: Maygun labing hadisi mast etdi g'oyibona,
Kayfiyat o'ldi zohir, Jomi sharob ko'rmay.

Mahzuna: Bir vajhi buki, tab'im xom asramish zamona,
Charxi sipehrdin ul pechu tob ko'rmay.

Fazliy: Mundoqki nuktadonsan, kim erdi ustoding?
Oy kasbi nur qilmas, to oftob ko'rmay.

Mahzuna: Ko'p nahrlar yig'ilsa, daryoyi purdur o'lg'ay,
Ilm ahlidin bu miskin, bir shayxu shob ko'rmay.

Fazliy: Bir nukta ayla zohir, Fazliyni qo'yma mahzun,
To ketmayin Namangon, sendan javob ko'rmay.
Mahzuna: Baytul hazan ichinda uzlat tutib bu mahzun,
Fazli ilohiydir bu, yo'qsa kitob ko'rmay.

8. G'azali zulqofiyatayn (zulqofiyatayn san'ati – ikki qofiyalilikka asoslangan) – Alisher Navoiy ijodida uchraydi:

Ko'zung ne balo qora bo'luptur
Kim, jong'a qora balo bo'luptur.

Majmu'i davoni dard qildi
Dardingki, mango davo bo'luptur.

Ishq ichra aning fidosi yuz jon,
Har jonki, sango fido bo'luptur.

Begona bo'luptur oshnodin,
Begonag'a oshno bo'luptur.

To qildi yuzung havosi jonim,
Yuz sari ango havo bo'luptur.

Boqiy topar ulki, bo'ldi foniy,
Rahravg'a baqo fano bo'luptur.

To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo'luptur.

9. G'azali zulradifayn (ikki radifga asoslangan) – Alisher Navoiy ijodida uchraydi:

Yordin ayrilg'ali shaydo ko'ngul, bexob ko'z.
Har zamon zohir qilur savdo ko'ngul, xunob ko'z.

Ko'z-u ko'nglum bahr-u bar sayr ettilar yor istabon,
Bu safarda toptilar yag'mo ko'ngul, g'arqob ko'z.

Ko'z-u ko'nglumdin biri kuyub, birisin buzdi sel,
Yo'qsa nevchun bo'ldi nopaydo ko'ngul, noyob ko'z?

Deb emish hajrimda mendek ko'z-u ko'nglin asrasun;
Voykim, yo'q tur manga xoro ko'ngul, qassob ko'z.

Vah, ne kun bo'lg'ayki, yetgay vaslig'a ko'z-u ko'ngul,
Tortibon faryod-u vovaylo ko'ngul, yig'lob ko'z?

Ko'rmayin deb ko'rdi ko'z, ko'rgach ko'ngul qildi havo,
Bo'ldi zor etgan meni rasvo ko'ngul, qallob ko'z.

Do'st ko'zla, xasmdin uzgil ko'ngulkim, tushsa ish,
Bermas-u olmas emish a'do ko'ngul, ahbob ko'z.

Ey Navoiy, go'iyokim yor mehmon bo'lg'usi,
Kim murttab aylamish ma'vo ko'ngul, advob ko'z.

10. G'azali zebqofiya (qofiyalanishi: a-a, a-a, a-a, a-a...) – Sayfi Saroyi:

Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,
Bo'yina oshiq sanavbar, yuzina gul zor erur.

Og'zi fastuq, ko'rki tansuq, o'zi mushfiq yor erur,
Husnining chovi Xitoy Chin ichinda bor erur.

Asli alchin, so'zlari chin, ko'zlari totor erur
Ming yashar har kim dudog'i sharbatin totor erur.

Ishqining elchisina ko'nglum munaqqash dor erur,
Zulfuna tushgan ko'ngullarning maqomi dor erur.

Nechakim ishqi o'ti bu jon ichinda bor erur,
Qahrabo uzra ko'zumdin dambadam durbor erur.

Shahd so'zi, orif o'zi, voqifi asror erur,
Vasl bo'stonida xush oshiqlarin asror erur.

Vasfina Sayfi Saroyining ishi ash'or erur,
Andin o'zga birla oshiqqa yemak osh or erur.

Kompozitsion jihatdan g'azalning parokanda (ma'lum bir syujet asosiga qurilmagan, har bir bayt o'zicha mustaqil) va voqeaband (yakpora yoki musalsal – muayyan sujetga ega bo'lgan, matla'da boshlangan mavzu g'azal so'ngigacha rivojlanib boruvchi) turlari ham farqlanadi.

O'zbek mumtoz g'azaliyoti g'oya va mavzusiga ko'ra hamd, na't, oshiqona, orifona, rindona, axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-falsafiy, hajviy, peyzaj va b. turlarga bo'linadi.

G'azalning dastlabki namunalari VIII-IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan, fors-tojik adabiyotida ilk g'azal yozgan shoir sifatida Abu Abdullo Ro'dakiy (taxm.860-941) tilga olinadi. Turkiy adabiyotda esa dastlabki g'azal Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida (1309-1310) uchraydi (asarda jami 26 g'azal mavjud). G'azalning epik poeziya tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidan (1353-1354) boshlanadi (asarda keltirilgan 6 g'azaldan 2 tasi forsiy). Hofiz Xorazmiy "Devon"ida 1052 ta g'azal bor.

G'azal janrining rivojlanishi va taraqqiyotida Alisher Navoiyning hissasi tengsiz. Uning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 2600 ta g'azal mavjud bo'lib, har bir devonga teng tarzda (650 tadan) joylashtirilgan.

Qasida (ar. "maqsad", "niyat") – biror tarixiy shaxs yoki voqeaga bag'ishlab yoziladigan katta hajmli baytli she'r shakli bo'lib, hajman 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo'lishi mumkin. G'azal singari a-a, b-a, d-a, e-a..., ayrim hollarda masnaviy singari (dostonlar tarkibida kelganda) qofiyalanadi. Qasida tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. Qasidai tom (to'liq qasida) – bunda qasida to'rt qismdan tarkib topadi:

a) nasib – lirik kirish (tabiat tasviri);

b) gurizgoh – nasib bilan madhni bog'lovchi, 4-5 baytdan tashkil topuvchi qism;

c) madh – asosiy qism;

d) qasd – mamduh (madh etilayotgan shaxs)ga niyat va istaklar bildirilagan qism.

2. Qasidai mujarrada (to'liq bo'lmagan, chala qasida) – bunda faqat madh keltiriladi.

Qasidalar mavzusiga ko'ra vasfiy (bahoriya, holiya, ishqiya, xamriya – may bilan bog'liq), madh (madhiya, faxriya, hamd, na't), hajv, marsiya, munojot va falsafiy (orifona yoki tasavvufiy) kabi turlarga bo'linadi. Turkiy adabiyotdagi ilk qasida "Devonu lug'otit turk"da "qo'shug'" shaklida uchraydi. Qasida haqidagi ilk nazariy ma'lumot "Funun ul-balog'a"da keltirilgan. Turkiy adabiyotda eng ko'p qasida yozgan shoir sifatida Sakkokiy nomi tilga olinadi. Uning "Devon"ida 13 ta qasida mavjud bo'lib, devondagi dastlabki ikki qasida an'anaviy hamd va na't yo'nalishida, qolgan qasidalar Xoja Muhammad Porsoga (1 та), Xalil Sultonga (1 та), Mirzo Ulug'bekka (5 та) va Arslonxoja Tarxonga (4 та) bag'ishlangan. Arslon Xoja tarxonga bag'ishlangan qasidadan parcha:

Rabe' keldi-yu qildi jahonni shod-u xurram,
Chu gul shohig'a yasodi chamanda taxt-u haram.

O'lukni tirguzuridan sabo yeli holi,
Og'zini ochsa, dami Isidin berur barham.

Shamol hol tilidin chamang'a ayturkim:
"Surur keldiyu ketdi g'am-u kudurat ham" –

Chamanning ahli yasondilar ol-u yashil ila,
Magar chamanda bugun to'y boru yo bayram.

Tarona boshladi bulbul, gul o'lturib sarhush,
Maqom tutti birov goh ziru, goh bam.

Eshitsa bulbul o'tin, gul kular, vale g'uncha
Tabassum etoru oxir o'zin tutar mahkam.

Hazor sirni qilur fosh bulbul uni bila,
Bu gulga xilvat evinda nedin erur mahram.

Uzotti tilni gul ollinda savsani ozod,
Agarchi bandi bikin erur alkinu abkam...

O'zbek mumtoz she'riyatining yirik vakili Alisher Navoiy ijodida ham qasida janri alohida o'rin egallaydi. Uning turkiy tilda yaratilgan bitta ("Hiloliya") va forsiy tilda yozilgan 10 ta ("Sittai zaruariya" (6 ta) va "Fusuli arba'" (4 ta) qasidasi bor.

Mustazod (ar. "orttirilgan", "ziyoda qilingan") - har bir misrasidan so'ng yana yarim misra orttiriluvchi she'r shakli. Bunda orttirilayotgan yarim misra tarkiban asosiy misraning birinchi va to'rtinchi ruknlariga teng bo'ladi. Mustazod uchun g'azal asos – zamin vazifasini o'taydi. Ikkala janrning qofiyalanish tizimi, baytlar soni, matla' va maqta', taxallusning mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. Lekin g'azal aruz tizimining barcha bahrlarida yaratilgani holda mustazod faqat hazaj bahrining hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod (ruknlari va taqti'i: maf'ulu mafoiylu mafoiylu fauvlun maf'ulu fauvlun – – V / V – – V / V – – V / V – – / – – V / V – –) vaznida yoziladi.

Turkiy adabiyotda mustazodning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy va Gadoiy ijodida uchraydi. Hofiz Xorazmiy devonida har biri 7 baytdan iborat ikki mustazod, Gadoiy devonida esa besh baytli bir mustazod mavjud.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida mustazod janriga alohida ta'rif berib, uning ohangi surud nag'amoti (kuy ohangi)ga mos kelishini aytadi: "...xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt boshlab bitib, aning misraidin so'ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag'amotig'a rost keltururlar ermish va ani "mustazod" derlar ermish, andoqkim, mustazod:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli.
Maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun.

Mazhar sanga ashyo.
Maf'ulu fauvlun
Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,
Olam sanga mavlo".

Ogahiy mustazoddagi qo'shimcha misralar sonini yana bittaga ko'paytirib, ushbu janr taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tardi:

Ey yor, sango ushbu jahon bog'i aro gul,
bir oshiqi hayron,
diydoringa shaydo.
Bir sheftadur kokuli mushkininga sunbul,
ham holi parishon,
ham boshida savdo...

Kichik lirik janrlarga *ruboiy, tuyuq, qit'a, fard,* muammo kabi janrlar kiradi.

Ruboiy (ar. – to'rtlik) Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan baytli she'r shakli hisoblanadi. Ruboiy ikki baytdan iborat bo'lib, a-a-b-a yoki a-a-a-a tarzida qofiyalanadi. Ruboiy o'ziga xos maxsus vaznda yoziladi: bu hazaj bahrining axrab va axram shajarasidir.

Ruboiyning 2 xil turi farqlanadi:
1) ruboiyi xasiy yoki erkin ruboiy (qofiyalanishi: a-a-b-a):

Sen borg'ali ortmish ko'ngul zorlig'i,
Oh o'qlaridin har nafas afgorlig'i.
Bilman unutulg'anmu ekandur manga hajr,
Yo ko'prak erur bu qatla dushvorlig'i.

2) ruboiyi musarra' yoki ruboiya (qofiyalanishi: a-a-a-a):

Ollimda tabibi chorasozim ham yo'q,
Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo'q.
Tegramda anisi jongudozim ham yo'q,
Boshimda shahi bandanavozim ham yo'q.

Ruboiy muayyan kompozitsiyaga ega. Mumtoz ruboiy talablariga ko'ra, unda to'rt unsur mavjud bo'ladi. Mazkur unsurlar to'rt misrada aytilmoqchi bo'lgan falsafiy, axloqiy yoki didaktik fikrning ma'lum bir yaxlitlikka erishishini ta'minlaydi. Shu ma'noda to'rt misrani quyidagi unsurlarga taqsimlash mumkin:

1) tezis – unda ruboiyda aytilmoqchi bo'lgan fikr, boshqacha aytganda ruboiy mavzusi bayon qilingan bo'ladi;

2) antitezis – bunda birinchi misraga qarama-qarshi fikr aytiladi;

3) moddai ruboiy – to'rtinchi misrada aytilmoqchi bo'lgan fikr uchun ko'prik vazifasini o'taydi;

4) sintez – xulosa.

Lekin bu unsurlarning doimiy mavjud bo'lish talabi nisbiy bo'lib, ko'pincha tezis va antitezisning o'rniga faqat moddai ruboiy va sintezning qo'llanilganligini kuzatish mumkin.

Ruboiy dastlab fors-tojik she'riyatida, Abu Abdulloh Rudakiy ijodida paydo bo'lgan. Forsiy adabiyotshunoslikda ruboiy va uning vujudga kelishi bilan bog'liq dastlabki ma'lumotlar Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam" asari (13-a.)da keltirilgan. Ruboiyning janr xususiyatlari haqida Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida shunday ma'lumot beriladi:

Ruboiy to'rt misra' bo'lur. Avvalg'i va ikkinchi va to'rtinchi misraida qofiya keltirurlar. Va uchinchi misrai ixtiyoriydur. Agar qofiya keltursalar, ruboiyi musarra' derlar... Va agar uchinchi misrada qofiya kelturmasalar, ruboiyi xosiy o'qurlar". Muallif ruboiy janriga misol tariqasida keltirgan forsiy to'rtliklar hazaj bahrida, turkiy tilda Sayid Nasimiy va Sakkokiydan keltirilgan to'rtliklar ramal bahriga tegishli. Bu holat Navoiygacha turkiy she'riyatda ruboiyning qat'iy vaznda bo'lishi talab qilinmaganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida mazkur janr haqida shunday yozadi:

"Ruboiy vaznikim, oni "dubaytiy" va "tarona" ham derlar, hazaj bahrining "axram" va "axrab"idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag'oyat raboyanda". Shuningdek, Navoiy hazaj bahrining axrab shajarasi 12 vaznni, axram shajarasi yana 12 vaznni o'z ichiga olishi va ushbu jami 24 vazn ruboiy vaznlari ekanligi haqida ham ma'lumot beradi. Ruboiyning she'riy o'lchovi bilan bog'liq muhim xususiyat shundaki, boshqa she'riy janrlardan farqli o'laroq, uning to'rt misrasi mazkur shajaralarga mansub 4 vaznda yozilishi mumkin.

Alisher Navoiy ijodida ruboiy janri keng o'rin egallaydi. Uning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 133 ta ruboiy mavjud.

Turkiy adabiyotda musarra'ruboiyning ilk bor qo'llanilishi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Hofiz Xorazmiy ijodida ruboiyning ilk turkiy namunalarini uchratish mumkin bo'lsa-da, uning devonidagi 12 ruboiy ruboiyi xasiy shaklida yozilgan.

Fors-tojik adabiyotida ruboiy janrida Umar Xayyom, Mirzo Abdulqodir Bedil shuhrat qozonganlar. O'zbek she'riyatida esa Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ruboiylari juda mashhur bo'ldi. Yangi davr o'zbek adabiyotida ham ruboiy yozish an'anasi davom etdi. Masalan, M. Shayxzoda, A. Oripov, J.Kamollarning ajoyib ruboiylari bor.

Tuyuq (turk. – tuymoq, his qilmoq) – to'rt misradan iborat mustaqil she'r shakli. Asosan, turkiy xalqlar she'riyatida qo'llanilgan. Tuyuq ko'p hollarda ruboiy singari qofiyalanadi, lekin ba'zan b-a, v-a tarzida ham qofiyalanishi mumkin. Ruboiydan farqli o'laroq, tuyuqda qofiyaning o'rnida asosan tajnis

(shakldosh so'zlar) qo'llaniladi. Tuyuq o'ziga xos maxsus vaznda – ramali musaddasi mahzuf yoki maqsur (ruknlari va taqti'i: foilotun foilotun foilun yoki foilon, – V– –/ – V – – / – V – yoki – V ~) vaznida yoziladi.

Turkiy adabiyotshunoslikda tuyuq haqidagi dastlabki ma'lumot "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan. Muallif tuyuqni ruboiyning bir turi sifatida sanab o'tadi:

"Va ruboiyning bir nav'i taqi bo'lur. Oni mujannas derlar. Aningtek bo'lurkim, ruboiyning qofiyasinda tajnis rioyat qilurlar... Va bu turk shoirlarining ixtiroidur. Muni turklar tuyuq derlar".

Turkiy adabiyotdagi dastlabki tuyuq Lutfiy devonida uchraydi, lekin N.Mallaevning yozishicha, tuyuqning ilk namunalari Burhoniddin Sivosiy tomonidan yaratilgan.

Adabiyotshunoslikda tuyuqning quyidagi turlari farqlanadi:

1) uch misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq:

Ko'ngluma har yonki boqsam, dog'i bor,
Har necha dardimni desam, dog'i bor.
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Bir sori bo'ldi firoqing dog'i bor.

Ushbu tuyuqda „dog'i" tajnis so'zi yara, tag'in, tog' singari uch ma'noda kelyapti.

2) to'rt misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq:

Vasldin so'z derg'a yo'q yoro manga
Hajr aro rahm aylag'il, yoro, manga.
O'qung etti ko'p yamon yoro manga
Marhami lutfmg bila yoro manga.

«Yoro» so'zi to'rt o'rinda to'rt ma'noda kelayotir: kuch, mador; ey yor; yara; yaramoq, yordam bermoq.

3) ikki misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq:

Ul pariy ishqida bu devonani
Eyki istarsen, kelib gulxanda ko'r.
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,
Ey ko'ngul, nazzora qil, gulxanda ko'r.

4) radifi tajnis bo'lgan tuyuq;

Mehrkim, ko'kka qilur ohang tong,
Olida bo'lsa emas berang tong.
Xoli-yu ikki labidek bo'lmag'ay,
Hindu ar keltursa shakkar, tang tong.

5) tajnissiz tuyuq:

Yo'qturur nozingdin ozore manga,
Noz agar qilsang manga matlubdur.
Xoh ko'rsat lutfu xohi javr qil,
Har ne voqe' bo'lsa sendin xo'bdur.

Ushbu tuyuq Ramali musaddasi maqsur (foilotun foilotun foilunda yozilgan. Qit'adek (avbv) qofiyalangan. Faqat vazni tufayli ushbu she'r shaklini tuyuq deb ataymiz.

Turkiy adabiyotda tuyuqning ko'proq birinchi turi keng tarqalgan.

Alisher Navoiy ijodida tuyuq janri alohida o'ringa ega. Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida ushbu janrning o'ziga xos xususiyatlari haqida shunday yozadi: "...Birisi "tuyug'"durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur".

Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida ("Badoyi' ul-vasat") jami 13 tuyuq mavjud bo'lib, 11 tasi aa ba, 2 tasi ba va tarzida qofiyalangan va barchasida tajnisga rioya qilingan.

Qit'a (ar.) – parcha, bo'lak, qism). Ikki baytdan bir necha baytgacha hajmda bo'lgan, juft misralari qofiyalanib, toq misralari ochiq qoluvchi (ba , va, ga ...) lirik janr. Qit'a, asosan, falsafiy, ijtimoiy va axloq-odob bilan bog'liq mavzularda yaratilgan. Shuningdek, qit'a nasriy asarlarda ma'lum bir masala haqidagi fikr-mulohazalarga yakun sifatida "qissadan hissa" tarzida keltirilgan.

Mumtoz adabiyotshunoslikda qit'a haqidagi ilk qarashlar Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan bo'lib, muallif bu janrga quyidagicha ta'rif beradi:

"Qit'a uldurkim, avvalgi misrainda qofiya bo'lmas. Va aqalli ikki bayt bo'lur. Va muning ham aksari muqarrar emas. Har necha kim qofiya tobsalar ayturlar".

Turkiy adabiyotda qit'aning ilk namunalari Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida uchraydi[1].

Qit'a janrining rivojlanishida Alisher Navoiy ijodining alohida o'rni bor. Shoirning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 210 ta ("G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob" va "Favoyid ul-kibar"da 50 tadan, "Badoye' ul-vasat"da 60 ta), "Devoni Foniy"da 64 ta, "Arbain"da 40 ta va boshqa nasriy asarlari tarkibida yana o'nlab qit'alar mavjud. Kulliyotdagi qit'alarda ularning g'oyasini ifodalovchi sarlavhalar qo'yilgan. Masalan, "G'aroyib us-sig'ar"dagi 1-qit'a hamd mavzusida bo'lib, unga quyidagicha sarlavha qo'yilgan:

[1]Adabiyotshunoslikda turkiy adabiyotdagi ilk qit'a Xorazmiy "Muhabbatnoma"sida uchraydi degan qarash bor. "Qisasi Rabg'uziy"dagi she'riy parchalarning janr xususiyatlarini o'rganish natijalari asarda qit'a janriga mos keluvchi she'rlar mavjudligini ko'rsatdi.

"Tengri zoti haqiqatidakim, xirad mabhutu nodondur va ahli xirad fartulu hayron"

Haq zotig'a biravki, xirad birla fikr etar,
Otin el ichra oqilu farzona aylabon.
Miqdorini tengiz suyining istar anglamoq,
Lekin hubob jomini paymona aylabon.

Mumtoz she'rshunoslik mezonlariga ko'ra, qit'ada taxallus qo'llanilishi shart bo'lmagan. Lekin Navoiyning ayrim qit'alarida, xususan, hajmi 7 bayt va undan ortiq bo'lgan qit'alarda shoir taxallusi keltirilgan. Masalan, "G'aroyib us-sig'ar"dan 7-raqam ostida o'rin olgan va "Qanoat naqshining ifshosi-yu naqshbandiya tariqining adosi" deb sarlavha qo'yilgan qit'a 11 baytdan iborat bo'lib, uning so'nggi baytida quyidagicha taxallus keltirilgan:

Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband,
Navoiy, agar yetsa navbat sanga.

Fard (ar.) – yakka, yolg'iz, yagona. Bir baytdangina iborat eng kichik mustaqil she'r shakli, a-a yoki a-b tarzida qofiyalanadi. Fard bir baytdan tashkil topgan bo'lsa-da, unda shoirning axloqiy-ta'limiy fikrlari, falsafiy qarashlari qalamga olinib, ixcham poetik xulosa ifodalanadi. Shu ma'noda fardlar ko'pincha aforizm xarakteriga ega bo'ladi.

Turkiy adabiyotshunoslikda fard haqidagi ilk nazariy qarashlar "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan bo'lib, muallif fardning ikki misradan iborat mustaqil she'r ekanligini ta'kidlagani holda uning faqat a-b tarzida qofiyalanishini aytib o'tadi. Fardlar ba'zan katta hajmli asarlar tarkibida kelib, shu asarlar mazmuniga mos holda falsafiy-axloqiy g'oyalarni ifodalash yoki asarlar so'ngida kelib, xulosa yasash, "qissadan hissa chiqarish" vazifasini bajarishi ham mumkin. Turkiy adabiyotdagi ilk fard Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari so'ngida keltirilgan bo'lib, xulosa yasash vazifasida kelgan.

Fard janrining rivojlanishida Alisher Navoiy ijodining alohida o'rni bor. Shoirning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 86 ta, "Mahbub ul-qulub" asarida 60 dan ortiq va boshqa nasriy asarlari tarkibida yana o'nlab fardlar mavjud. "Xazoyin ul-maoniy"dagi 86 ta farddan 82 tasi qofiyali, to'rttasi (82-, 83-, 84- va 86-fardlar) esa qofiyasizdir. Fardlarning barchasi "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan bo'lib, muayyan ma'noda "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotini yakunlovchi xulosaviy janr vazifasini o'tagan. Navoiyning fardlarida muayyan hayotiy vaziyatlarda qo'l keladigan xulosalar o'ziga xos va ta'sirli ifodalangan:

Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?

Fardda payg'ambarimizning: „Musulmon musulmonga ko'zgu", degan hadislari shoir tomonidan o'ziga xos tarzda badiiy shaklga solingan.

Asl odamlik, odamiylik nimada degan savolga ulug' shoirning javobi:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat barcha qilmoqdir, demak yo'q.

Demak, muruvvatli odam borini birovlarga beradi, o'zi yemaydi, jo'mard, mard, ya'ni futuvvatli odam esa, ko'p ish qiladi, lekin qilgan ishi haqida hech kimga bir og'iz ham gapirmaydi.

Navoiy quyidagi fardida o'zining siniqligi – bechoraligini shu darajada tasvirlaydiki, siniqligini anglash uchun o'shanchalik bechoralikni ko'rish kerakligi anglashiladi:

Men – sinuq, ko'nglim – sinuq, sabrim uyi xud yerga past,
Bilmagay holim shikastin, ko'rmagan muncha shikast.

Shoir fardlarida o'zinining ko'nglini o'rtagan, tuyg'ulariga ta'sir etgan holatlar mutoyibali yo'sinda tasvirlangan o'rinlar ham bor:

Ul parikim, ani demishman yor,
Odamiylig'din o'zga barchasi bor.

Muammo (ar. – ko'r qilingan, berkitilgan) – bir, ba'zan esa ikki baytdan iborat bo'lgan, a-a yoki a-b tarzida qofiyalanuvchi lirik janr. Muammoda biror ism yoki narsa-buyum nomi berkitiladi. Berkitilgan so'z shoirning turli-tuman ishoralari: ma'nodosh yoki shakldosh so'zlarni topish, bir tildagi so'zning ikkinchi bir tildagi moduli (ekvivalenti)ni qo'llash, so'zlardagi ma'lum bir harflarni tizib, yangi so'z yasash, ba'zan esa abjad hisobini ishlatib, raqamlar asosida so'z tuzish va boshqalar asosida topiladi. Muammoni yechish uchun dastavval asosiy e'tiborni matnda ishora qilingan kalit so'zga qaratish lozim bo'ladi.

She'rshunoslik ilmida muammoga alohida she'riy janr sifatida ham, badiiy san'at sifatida ham qarash mavjud. Bu ikkala yondashuv ham muayyan asosga ega. Agar muammo usuli katta hajmdagi asarlar: dostonlar, manzumalar tarkibida va ko'pincha asarlarning oxirida kelsa, bu alohida janr bo'lmasdan, badiiy san'at hisoblanadi. Devonlar ichida alohida mustaqil she'r shakli sifatida keltirilgan muammolarni janr sifatida talqin qilish mumkin.

O'rta asr ilmi badi'ga doir manbalarda muammo asosan badiiy san'at sifatida talqin qilingan. Forsiy adabiyotshunoslikda muammo haqidagi dastlabki ma'lumot Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq us-sehr" (12-a.) asarida keltirilgan. Atoulloh Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" (15-a.) asarida muammo haqida mufassal ma'lumot berilib, Abdurahmon Jomiyning muammoni nasrda ham qo'llash mumkin, degan fikri keltirilgan.

Turkiy adabiyotshunoslikka doir ilk manba hisoblangan "Funun ul-balog'a" (1436-1437) asarida muammoga san'at sifatida yondashish bilan bir qatorda uning alohida ilm ekanligi ham ta'kidlangan.

Turkiy adabiyotda muammoning mustaqil janr sifatidagi takomili Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq. Uning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 52 ta muammo mavjud bo'lib, ularning barchasi kulliyotdagi ikkinchi devon "Navodir ush-shabob"ga kiritilgan.

Alisher Navoiy muammolari asosan bir baytli bo'lib, faqat "Qosim" ismiga bitilgan muammogina 2 baytdan iborat.

Navoiyning ba'zi muammolarini ko'rib chiqsak:

Qasdi jonimg'a chu mujgoning ikki saf tuzdi,
Biri qosh yosi, biri g'amzang o'qin ko'rguzdi.

Bu muammoda kalit so'z "صف" – "saf" jumlasi orqali ko'rsatilgan, matnda bu so'z "ikki" so'zi bilan keltirilishi uning yechimi ham ikkita ekanligiga ishora qiladi. Birinchi "saf"ga qosh yosi, ya'ni "ی" "yoy" (i) harfi, ikkinchisiga g'amza o'qi, ya'ni "ا" "alif" (o) harfi qo'shiladi va natijada "صفی" – "Safi" va "صفا" – "Safo" so'zlari kelib chiqadi.

Qilur esang manga somon ayo rafiq havas,
Aning ayog'ig'a yetkur mening boshimni-yu bas.

Bu muammoda asosiy e'tibor "سامان" – "somon" (osoyishtalik) so'ziga qaratilgan. Ikkinchi misradagi "aning ayog'iga boshimni yetkur" jumlasidagi ishoraga ko'ra, "ا" – "alif" (o)ning oyog'i, ya'ni pastki kismiga "م" – "mim" (m) ning boshini yetkazish talab qilinadi, natijada "ا" – "alif" harfi "ل" – "lom" harfiga aylanib, "م" – "mim"ga qo'shiladi va "سلمان"– "Salmon" so'zi kelib chiqadi.

Alisher Navoiyning mazkur janr nazariyasiga bag'ishlangan maxsus asari ham mavjud bo'lib, fors-tojik tilida yozilgan. Asar "Mufradot" yoki "Risolai muammo" deb ataladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham muammo janrida barakali ijoq qilgan bo'lib, uning bizgacha 60 ga yaqin muammosi yetib kelgan. Namuna:

Hajr shomi sochi savdosi chekar har yon meni,
Vahki, bu poyoni yo'q tun qildi sargardon meni. (shoh)

Mazkur muammoda «shoh» so'zi yashiringan. Uning ochqichi «shom» (شام). «Shom» so'zi 3 harfdan «shin» (ش), «alif» (ا) «mim» (م) dan tarkib topgan. Shoirni hijron shomida yor sochining savdosi qiynaydi («mim» — م ning pastga tushgan qismi o'rilgan sochni eslatadi).

Ikkinchi satrda poyoni yo'q tun — etagi yo'q «shom» («mim» ning pastki qismi ketib, hoyi havvazga — ه ga aylanib qolishi) shoirni sargardon qiladi.

She'rdagi «hajr», «shom», «soch», «savdo» so'zlaridan yaratilgan tanosub, «har yon chekmoq», «sargardon qilmoq»dagi mutanosiblik muallifning favqulodda salohiyat egasi ekanligiga yorqin dalildir.

Shuningdek, mazmun asosida farqlanadigan baytli she'r shakllari ham mavjud bo'lib, ularga *lug'z* va *ta'rix* kiradi.

Lug'z arabcha "topishmoq", "sir" ma'nolarini anglatadi va fors-tojik adabiyotida chiston (forscha "nima u") deb ham yuritiladi. Lug'z biror predmet yoki hodisaning xarakter va belgilarini ta'rifu tavsif etish orqali kitobxonni o'sha predmet yoki hodisani topishga undaydigan she'r turidir. Lug'z dastavval xalq og'zaki ijodida vujudga kelgan bo'lib, X-XII asrlardan boshlab fors-tojik she'riyatida istifoda etila boshlagan. Lug'zlar g'azal, ruboiy va tuyuq kabi hajm, qofiya va boshqa shakliy jihatlardan qat'iy qonuniyatga ega emas. Ular fard, ruboiy, qit'a va ba'zan g'azal singari qofiyalanishi mumkin.

Turkiy adabiyotda lug'zning ilk namunalari Alisher Navoiy ijodida uchraydi. Shoirning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida jami 10 ta lug'z mavjud bo'lib, barchasi "Badoyi'ul-vasat" devoniga kiritilgan. Shoira Uvaydiy ham ushbu janrning go'zal namunalarini yaratgan.

Ta'rix bu muayyan voqea-hodisa yoki inson hayoti bilan bog'liq biror sanani ochiq aytilmay, arab alifbosidagi harflar vositasi, ya'ni abjad usuli asosida ko'rsatishdir. She'rshunoslik ilmida ta'rixga alohida she'riy janr sifatida ham, badiiy san'at sifatida ham qarash mavjud. Bu ikkala qarash ham muayyan asosga ega. Agar ta'rix usuli katta hajmdagi asarlar: dostonlar, manzumalar tarkibida va ko'pincha asarlarning oxirida kelsa, bu alohida janr bo'lmasdan, badiiy san'at hisoblanadi ("Yusuf va Zulayho", "Hayratu-l-abror" dostonlaridagi kabi).

Devonlar ichida alohida mustaqil she'r shakli sifatida keltirilgan ta'rixlarni janr sifatida talqin qilish mumkin. Shu ma'noda "Devoni Foniy" tarkibiga kiruvchi 16 ta ta'rix alohida janr bo'lib, ular qit'a, ruboiy va to'rtliklar shaklida yaratilgan.

Ta'rixlar mavzusiga ko'ra 1) kishilar tavalludi yoki vafotiga doir; 2) muayyan binolarning qurilishiga oid; 3) taxtga chiqish, fath va 4)biror voqea- hodisa sodir bo'lgan sanaga bag'ishlab yaratilishi mumkin. Alisher Navoiy ta'rixlari, asosan, kishilar vafotiga oid (mutavaffiyot) yo'nalishida bo'lib, hazrat Navoiyning ustozlari va do'stlari Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardasher, Xoja Ubaydulloh Ahror, Sulton Mahmud kabi shaxslarning vafot sanasiga bag'ishlangan. Masalan, Abdurahmon Jomiy vafotiga baag'ishlangan ta'rixda "خدا بیامرزد" – "Xudo biyomurzad" jumlasi ta'rix sanasi sifatida keltiriladi:

Sarvi chamani hayot Abdurahmon,
K o' raft az in dayri fano so'i jinon.
Ta'rixi chunin voqeai g'ussarason,
Gar mexony: "Xudo biyomurzad" xon.

(Mazmuni:

Hayot chamanining sarvi – Abdurahmon,

bu foniy dunyodan (ruhi) jannatga ketdi.

G'am-g'ussa yetkazuvchi shunday voqealarning ta'rixini o'qiganingda: "Xudo biyomurzad" – deb o'qi).

Mazkur ta'rixdagi "خدا بیامرزد" – "Xudo biyomurzad" jumlasidagi harflar abjad hisobiga ko'ra belgilanganda hijriy 989, milodiy 1492 yil kelib chiqadi. Ushbu ta'rix ruboiy shaklida yozilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Baytli she'r shakllariga qaysi janrlar kiradi?
2. G'azalning turlarini sanang va misollar bilan asoslang.
3. G'azal va mustazod janrlarining umumiy va farqli jihatlariga to'xtalib o'ting.
4. Mumtoz qasida haqida ma'lumot bering.
5. Kichik lirik janrlariga qaysi janrlar kiradi?
6. O'quvchidan topqirlikni talab qiladigan janlar nomini ayting, ularni farqlab bering.
7. Boburning ushbu she'ri qaysi janrda yozilganligini aniqlang?

Qaddimni firoq mehnati yo qildi,
Ko'nglum g'amu mehnat o'tig'a yoqildi,
Holimni sabog'a aytib erdim, ey gul,
Bilmon, sanga sharh qilmadi yo qildi.

Asosiy adabiyotlar

1.Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси.– Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 426 б.

2.Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари.– Т.: Ўқитувчи,1979.

3. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғ.Ғулом, 1976.

4. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат.–Т.: Фан, 1976. – 120 б.

5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ,1990.– 240 б.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси ("Хазойин ул-маоний" асосида) – Т.: Фан, 1983. –168 б.

7. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.

8. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. – 408 б.

9. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XVв.). – М.: Наука,1989.

MUSAMMATLARNING SHAKLIY XUSUSIYATLARI

Tayanch tushunchalar:

- musammat
- musallas
- murabba'
- muxammas
- tab'i xud muxammas
- tazmin
- taxmis
- musaddas
- tasdis
- musabba'
- musamman
- tasmin
- mutassa'
- mushshar

Reja:

1. Musammatlar haqida umumiy ma'lumot.
2. Mustaqil va tazmin musammatlar.
3. Musallas, murabba', muxammas va musaddas janrlari.
4. Musabba', musamman, mutassa' va muashshar.

Musammat (ar. "marvarid donalarini ipga termoq") bandli she'rlardir. Musammat deganda, musallas, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mustasne', muashshar shakllarining umumuy nomi anglashiladi. Musammat she'r bandlarining baytdan tashqari turlarini anglatuvchi umumiy atama hisoblanadi.

Musammatlarning janr sifatida shakllanishi XI asrga to'g'ri keladi. Manbalarda ilk musammatlar yaratgan shoirlar sifatida Manuchehri Damg'oniy (vaf. 1040) va Qatron Tabriziy (XI asr o'rtalari) nomlari tilga olinadi. Musammatlarning vujudga kelishida g'azalda musajja' san'atini qo'llash hamda muvashshah va zajal kabi arab she'riyatidagi bandli she'r shakllarining ta'siri kuchli bo'lgan. Musammatlar dastlab tasmit nomi bilan atalgan.

Turkiy adabiyotshunoslikda musammatlar haqidagi ilk ma'lumot Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan. Muallif musammatlarning besh turini keltirib o'tadi: murabba', muxammas, musaddas, musamman va muashshar.

Musammatlar yaratilish xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Mustaqil (tab'i xud) musammatlar – boshdan oxirigacha bir shoir ijodiy mahsulidan iborat bo'ladi.

2. Tazmin (biror g'azal asosida – zaminida yaratilgan) musammatlar – bir shoirning o'zidan oldin o'tgan yoki o'ziga zamondosh bo'lgan boshqa bir shoir g'azalini (ayrim hollarda o'z g'azalini) tanlab olib, ularning har baytiga uch yoki undan ortiq misralar qo'shishi. Bunday musammatlar, asosan, muxammas va musaddas doirasida keng tarqalgan.

Musammatlar banddagi misralar soniga ko'ra 8 turga ajratiladi:

Musallas (ar. "uchlik") – uch misrali band usulida yozilgan she'r. Qofiyalanishi: a-a-a, b-b-a, d-d-a...(yoki: a-a-a, b-b-b...). G'arbda tersina deb ataladi. Turkiy adabiyotdagi ilk namunasi "Qisasi Rabg'uziy"da uchraydi (muqaddimada Nosiruddin To'qbug'abek madhi). Uvaysiyning "Rahm etib", Hamzaning "Uxlama o'zbek eli..." she'rlari musallasga misol bo'la oladi. "Qisasi Rabg'uziy"dan parcha:

Asli mo'g'ul erkan ko'nub
Islom uchun tutti yaqo
Bo'ldi Rasulning ummati.
Toat qilur tun-kunduzun
Olnur saboq Mus'haf baqo
Qur'on o'qumoq odati.

Murabba' (ar. "to'rtlik") – to'rt misralik band usulida yozilgan she'r. Qofiyalanishi: a-a-a-a, b-b-b-a, d-d-d-a... Murabba' haqida "Funun ul-balog'a"da shunday deyiladi: "musammati murabba' aningtek bo'lurkim, she'rni to'rt qism qilurlar. Uch qismning oxirinda saj' rioyat qilibtur. To'rtinchi qismda qofiya keltururlar. Misoli bu:

Ey orazi rashki qamar
Zulfung g'aminda har sahar,
Chin-u Xo'tanda mushki tar,
Oshufta-vu shaydo bo'lur.

Har lahza, ey mohi Xo'tan,
Bo'lsang xiromon dar chaman,
Faryod-u nolish yuz tuman
Har go'shadin paydo qilur".

Murabba' janrining ilk namunalari xalq og'zaki ijodida uchraydi ("Alp Er To'nga"). Yozma adabiyotda Ahmad Yassaviy ijodidan boshlangan. Mashrab, Ogahiy, Avaz O'tar, Muqimiy murabba' janrida barakali ijod qildilar.

Muxammas (ar. – "beshlik") – har bandi 5 misradan iborat she'r shakli, a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a... tarzida qofiyalanadi. Muxammas yaratilish xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) tab'i xud – mustaqil muxammas; 2) taxmis – g'azalni beshlantirish asosida yaratiladigan muxammas.

Tab'i xud muxammasda barcha misralar bir shoirning o'zi tomonidan yaratiladi. Bunda ijodkor o'zga shoir she'rini asos qilib olmaydi, balki o'zi mustaqil ravishda beshlik yaratadi. Turkiy adabiyotda tab'i xud muxammasning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy va Yusuf Amiriy ijodida uchraydi.

Eykim, ko'runur la'li labing shahd ila shakkar,
So'z birla labi la'ling erur qandi mukarrar,
Santak sanamo yo'qturur ruhi munavvar,
Ko'ngul olg'uchi qadi chu (sihiy) sarvu sanavbar
Kim, bo'lsa sochi sunbulu yuzi guli ahmar.

Ey sarvi sumansoqki, shirin dahaning bor,
Gulning tanitak nozuku zebo badaning bor.
Gasht etgali jonimning ichinda chamaning bor,
Gul yuzunga bulbul biki zore chu maning bor
Aylama gul avroqi bikin xotirim abtar. (Hofiz Xorazmiy)

Taxmisda muallif o'zga shoir yoki ba'zida o'z g'azalini asos – zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgani holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g'azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo'shiladi. Maqta' bandda taxmis bog'layotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi.

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan 10 ta muxammasidan barchasi taxmis shaklida bo'lib, ulardan 3 tasi "malik ul-kalom" Lutfiyga, qolgan 7 tasi esa o'zining mashhur g'azallariga bitilgan. O'zga shoir g'azaliga taxmis bog'langanda muxammasning so'nggi bandida g'azal muallifi va uni beshlantirayotgan shoir taxalluslari keltiriladi. Masalan, Alisher Navoiyning Lutfiy g'azali asosida yozilgan muxammasining birinchi va oxirgi bandi quyidagicha:

Sharbati yuhyil izom erni mayi nobindadur,
Surai "vashshams" tafsiri yuzi bobindadur,
Sharhi "mozog'ulbasar" nargislari xobindadur,
Laylatul me'rojning sharhi sochi tobindadur,
Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur...

Har gado egnida bo'lsa eski to'n yo choki jayb,
Bilmay asli niyatin qilmoq g'alatdur shakku rayb,
Ey Navoiy, chun sanga ma'lum emastur sirri g'ayb,
Lutfi(y)ni mayxonada oshufta ko'rsang, qilma ayb
Kim, bu majnun ixtiyori zulfi qullobindadur.

O'zbek adabiyotida Uvaysiy, Nodira, Ogahiy, Amiriy kabi shoirlar taxmischilikka munosib hissa qo'shdilar.

Musaddas (ar. – oltilik) – har bandi 6 misradan iborat she'r shakli, a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-a... yoki a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-a-a... tarzida qofiyalanadi. Musaddasning ikkinchi usulda qofiyalanishi ko'pincha so'nggi ikki misraning naqarot tarzida har bir band oxirida

takrorlanib kelishi bilan bog'liq (mutakarrir musaddas). Musaddas ham muxammas singari yaratilish xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: tab'i xud – mustaqil musaddas va tasdis – g'azalni oltilantirish asosida yaratiladigan musaddas.

Turkiy adabiyotda musaddasning ilk bor qo'llanilishi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi 5 ta musaddasdan bittasi tab'i xud musaddas bo'lsa, qolgan barchasi tasdis shaklida bo'lib, ulardan 2 tasi Lutfiyga, bittasi Husayniyga va bittasi shoirning o'z g'azaliga bog'langan tasdisdir.

Uvaysiy, Nodira, Furqat ijodida musaddasning go'zal namunalari uchraydi. Furqatning "Sayding qo'ya ber, sayyod..." musaddasida har bandning so'ngida ikki misra takrorlanib keladi:

Sayding qo'yaber sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek,
O'z yorini topmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Kes rishtanikim: qilsun chappaklab otub jasta,
Hajrida alam tortib, bo'ldi jigari xasta.
Tog'larg'a chiqib bo'lsun yori bilan payvasta,
Kel, qo'yma balo domi birla oni pobasta,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek...

Musabba' (ar.) – yettilik. Har bandi 7 misradan iborat she'r shakli, a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-a... yoki a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-a-a... tarzida qofiyalanadi. Musabba' mumtoz adabiyotda u qadar keng tarqalmagan. Mashrab ("Ey g'unchai navxezi"), Miriy, Komil Xorazmiy, Tabibiy ijodida uchraydi.

Musamman (ar.) – sakkizlik. Har bandi 8 misradan iborat she'r shakli, a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-a... yoki a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-a-a... tarzida qofiyalanadi. Turkiy adabiyotda musammanning ilk bor qo'llanilishi Yusuf Amiriy nomi bilan bog'liq. Alisher Navoiy, Ҳувайдо, Нодира, Аваз Ўтар каби шоирлар бу жанр тараққиётига ҳисса қўшдилар. Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida bitta musamman mavjud bo'lib, "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan. Musamman ishqiy mavzuda: yorning safarga chiqishi va oshiqning hijroni bilan bog'liq tuyg'ular tasviridan iborat. Musammanning 1-bandi quyidagicha:

Har taraf azm aylab ul sho'xi sitamgor, ey ko'ngul,
Tig'i hajridin necha bo'lg'aybiz afgor, ey ko'ngul,
Chun safar aylab edi bir qatla dildor, ey ko'ngul,
Dardi hajrig'a bo'lub erduk giriftor, ey ko'ngul,
Buylakim, ta'rif etib g'urbatni bisyor, ey ko'ngul,
Shahru kishvardin malolat aylab izhor, ey ko'ngul,
Anglading yo yo'qmukim, aylar safar yor, ey ko'ngul,
Vahki, bo'lduq yana hajri ilgidin zor, ey ko'ngul.

So'nggi izlanishlar ushbu musammaning ham tasmin (g'azalni sakkizlantirish) asosida vujudga kelganligini ko'rsatmoqda. Musamman uchun asos bo'lgan g'azal avval shoirning birinchi rasmiy devoni "Badoyi' ul-bidoya"ga, keyinchalik "Xazoyin ul-maoniy"ning ikkinchi devoni "Navodir ush-shabob"ga kiritilgan. Demak, aytish mumkinki, shoir o'zining yoshlik va yigitlik davridagi ijodiga alohida e'tibor bilan qaragan va bu vaqtda yozgan g'azallariga ijodi jarayonida qayta-qayta murojaat etib, o'z g'azallariga taxmis, tasdis va hatto tasmin bog'lagan. Adabiyotimiz tarixida (bizga etib kelgan manbalar doirasida fikr yuritadigan bo'lsak) o'z g'azaliga tasmin bog'lagan, ya'ni o'z g'azalini sakkizlikka aylantirgan boshqa shoir uchramaydi.

Mutassa' (ar.) – to'qqizlik. Har bandi 9 misradan iborat she'r shakli, a-a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a... yoki a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-d-a-a... tarzida qofiyalanadi. Mutassa' janri mumtoz adabiyotda deyarli qo'llanilmagan, so'nggi izlanishlar uning Fazliy Namangoniy ijodida mavjudligini ko'rsatmoqda. Ushbu mutassa' ikkinchi turga mansub bo'lib, quyidagi band bilan boshlanadi:

Durdkashlarmiz, erur paymonaga paymonamiz,
Boda nobidin mudom obod erur vayronamiz.
Roygondur ayshimiz, soqiy o'la mehmonimiz,
Jonimiz – jononamiz, jononamizdur jonimiz.
Borchadin ortuq xarobot ichra izzu shonimiz,
Shoh lutfidin etar sarmoyayu somonimiz.
Sham'dek har anjumanda bu erur burhonimiz,
Shoh bizni shohimiz, sulton bizim sultonimiz,
Davr bizni davrimiz, davron bizin davronimiz...

Muashshar (ar.) – o'nlik. Har bandi 10 misradan iborat she'r shakli. Mumtoz adabiyotda faqat Nodira va Tabibiy ijodida uchraydi. Nodira muashshari a-a-a-a-a-a-a-a-b-b, b-b-b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a-a tarzida qofiyalangan bo'lib, bandning oxiridagi ikki misra aynan – naqarot tarzida takrorlanadi. Muashsharning birinchi va so'nggi bandlari quyidagicha:

Ohkim, behad menga javr-u jafo aylar falak,
Furqat ichra qismatim dard-u balo aylar falak,

Yordin ayru menga ko'p mojaro aylar falak,
G'am bila guldek yuzumni kahrabo aylar falak,
Bevafodur, oqibat kimga vafo aylar falak,
Hasrat-u dard-u alamga mubtalo aylar falak,
Yorni, albatta, yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni bebarg-u navo aylar falak,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun.

Ey mug'anniy, nag'masoz et Komila guftoridin, –
Kim kelur bo'yi vafo ushshoq aro ash'oridin,
Rishtayi jonimg'a payvand ayla sozing toridin,
Qilmasunmu nola, ayrildi vafolig' yoridin,
Toshni suv qildi ta'siri fig'on-u zoridin,
Nogahon bir oh agar cheksa dili afgoridin,
Charx bunyodini xokistar qilur osoridin,
Bo'lmasun mahrum oshiq yorning diydoridin,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun.

Asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
3. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 120 б.
4. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари.– Т.:Ўқитувчи,1979. – 184 б.
5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ,1990. – 240 б.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.
7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013.– 408 б.
8. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XVв.). – М.: Наука,1989.

HAM BAYT, HAM BANDGA ASOSLANGAN SHE'R SHAKLLARI

Tayanch tushunchalar:

- Masnaviy
- Lirik masnaviy
- Epik masnaviy
- soqiynoma
- Tarji'band
- Vosila bayt
- Tarji'xona
- Tarkibband
- Marsiya-tarkibband

Reja:

1. Masnaviy – voqeaband she'r uchun asos sifatida.
2. Tarji'band va vosila bayt haqida umumiy ma'lumot.
3. Tarkibbandning janr xususiyatlari.
4. Soqiynoma – soqiyga murojaat tarzida yozilgan lirik janr.

Ham bayt, ham bandga asoslangan she'r shakllariga masnaviy, tarji'band, tarkibband va soqiynoma kiradi. Bulardan dastlabki uchtasi shakliy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Soqiynomaning esa janr xususiyatlarini belgilashda mazmun yetakchilik qilsa-da, uning masnaviy usulida qofiyalanishi mazkur janrni ham ushbu guruhga kiritishga asos bo'ldi. Ushbu janrlar tarkibiga ko'ra ham bayt (g'azal asosidagi qofiyalanish tizimini o'z ichiga olganligi yoki baytlardan iborat bo'lganligi uchun), ham band (tarkiban davomiylikni taqozo qilganligi va bandlami vujudga keltirganligi uchun)ga asoslangan she'r shakllari hisoblanadi, shu jihatdan musammatlardan farq qiladi.

Masnaviy (ar.) – ikkilik). Har bandi ikki misradan tarkib topuvchi va a-a, b-b, d-d... tarzida qofiyalanuvchi she'r turi. Bunday qofiyalanish tizimi nihoyatda qulay bo'lganligi uchun voqeaband she'riy asarlar, manzumalar va dostonlar masnaviyda yozilgan.

Mumtoz forsiy adabiyotshunoslikda masnaviy haqidagi ilk qarashlar Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam" asari (13-a.)da keltirilgan bo'lib, muallif bu janrga quyidagicha ta'rif beradi:

"...Ajam shoirlari har bir baytdagi misralarning o'zaro qofiyadosh bo'lishi nuqtai nazaridan uni masnaviy deb ataydilar".

Turkiy adabiyotshunoslikda masnaviy haqidagi ilk ma'lumot Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan. Muallif masnaviyni o'nta she'r nav'laridan biri sifatida sanab o'tadi va uning har bayti ikki misradan tarkib topishi va o'zaro qofiyalanishini aytib, masnaviyning ko'proq nazmiy qissalar uchun mos she'riy shakl ekanligini ta'kidlaydi.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan masnaviylarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

1) lirik masnaviy (shoirning lirik kechinmalari, his-tuyg'ulari ifoda etiladigan she'r shakli);

2) epik masnaviy yoki doston (syujet asosiga quriladigan katta hajmli asar).

Turkiy adabiyotda lirik masnaviyning ilk namunalari Ahmad Yassaviy ijodida uchrasa, uning epik shakli Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u"bilig" dostonidan boshlangan. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Xorazmiy "Muhabbatnoma"si va qolgan barcha nomalar, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonlari, "Xamsa"lar epik masnaviy shaklida yozilgan.

Alisher Navoiy ijodida masnaviy alohida o'ringa ega bo'lib, shoir o'zining "Sab'ai sayyor" dostonida bu janrni alohida tavsiflab, uni "vase'" – keng maydon deb ataydi:

Masnaviykim, burun dedim oni,
So'zda keldi vase' maydoni.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidan o'rin olgan masnaviy lirik masnaviy bo'lib, "G'aroyib us-sig'ar" devoniga kiritilgan. Bobur "Devon"idan o'rin olgan masnaviylar (8 ta masnaviy), Muqimiyning "Tanobchilar", Furqatning "Ilm xosiyati", "Sabog'a xitob", "Nag'ma bazmi xususida" kabi she'rlari lirik masnaviy shaklida yozilgan.

Bobur masnaviysidan namuna:

Necha isyon bila oludalig'ing,
Necha hirmon aro osudalig'ing?

Necha nafsingg'a bo'lursan tobe',
Necha umrungni qilursen zoye'?

Niyati g'azv ilakim yurubsen,
O'lmagingni o'zungga ko'rubsen.

Kimki o'lmak o'ziga jazm etar,
Ushbu holatga bilursenki netar.

Dud etar barcha manohidin o'zin,
Aritur jumla gunohidin o'zin.

Xush qilib o'zni bu kechmaklikdin,
Tavba qildim chog'ir ichmaklikdin.

Oltunu nuqra surohiyu ayog',
Majlis oloti tamomin ul chog'.

Hozir aylab borini sindurdum,
Tark etib mayni ko'ngul tindurdum.

Tarji'band (ar.-fors. takrorlab bog'lash) – mumtoz adabiyotdagi yirik hajmli bandli she'r shakllaridan biri. Tarji'band bir necha banddan iborat bo'lib, har bir band tarji'xona deb ataladi va g'azal singari (a-a, b-a, d-a..) qofiyalanadi. Bandlar oxirida o'zaro qofiyalanuvchi bayt aynan takrorlanib, barcha tarji'xonalarni o'zaro bog'lab turadi va vosila (bog'lovchi) bayt deb ataladi. Tarji'bandlar odatda har biri 7–11, ba'zan 12 (Ogahiy) baytdan iborat bir necha banddan tashkil topadi.

Mumtoz adabiyotshunoslikda tarji'band haqidagi ilk ma'lumot Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida keltirilgan. Muallif tarji'bandni tarji'ning beshta turidan biri sifatida sanab o'tadi va unga quyidagicha ta'rif beradi:

"Tarji' ul bo'lurkim, she're ayturlar, band-band barchasi bir bahrda, har bandning ozi besh bayt bo'lur va ko'pi to'qquz bayt va har birining oxirinda bir o'zga baytni takror qilurlar. Ul baytni tarji' derlar... Va tarji' besh qism bo'lur. Avvalgi qismi ul bo'lurkim, har bandning qofiyasi o'zga tariqa bo'lur. Va har bandkim tamom bo'lsa, oxirinda bir baytni takror qilurlar... ". Mumtoz she'riyatda tarji'ning aynan shu nav'i kengroq qo'llanilgan. Tarji'bandda taxallusning qo'llanilishi ixtiyoriy bo'lgan.

Tarji'bandlar asosan falsafiy-axloqiy mavzuda yaratilgan. Forsiy she'riyatda tarji'bandning dastlabki namunalari Nosir Xusrav, turkiy adabiyotda esa Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Hofiz Xorazmiy devoniga 3 ta tarji'band kiritilgan.

Alisher Navoiy ijodida ham tarji'band janri alohida o'rin egallaydi. Uning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 4 ta tarji'band bo'lib, har bir devonga bittadan joylashtirilgan. Yusuf Amiriy, Fuzuliy, Nodira, Munis, Ogahiy, Avaz O'tar, Tabibiy ushbu janr taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdilar.

Alisher Navoiy tarji'bandidan namuna:

Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast
Aning nash'asidin ko'ngul erdi mast.

Mayekim qilur, quysalar jom aro
O'zi mast-u kayfiyati mayparast.

Eshit sarguzashteki, bir kun manga
Necha mayparast o'ldilar hamnishast.

May olmoqqa piri mug'on jazbasi
Meni chekti andoqki, mohiyni shast.

Qilib xirqa may rahniyu zarfining
Etib og'zini mum ila sangbast.

Kelur erdim egnimda mayliq sabu,
Bo'lub to'qquz aflok ollimda past

Ki, ogoh o'lub to'sh-to'shumdin qabab
Manga toptilar ihtisob ahli dast.

Shikastim mening oncha ermas edi
Ki, may zarfi topti orada shikast.

Chu sindi sabu, chorae topmadim,
Meni muflisi ur[u], giryoni mast.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing'an safol.

Ketur, soqiyo, mujdae jomdin
Ki, pajmurda bo'lmishmen anjomdin.

Bu gulshan guliga chu yo'qtur vafo,
Ne parhez etay jomi gulfomdin?

Chu yo'q shomi hijron xumorig'a subh,
Ichib anglamay subhni shomdin.

Xalos aylay o'zni may-u nuqlning
Suyu donasi birla bu domdin.

Bo'lay dayr pirig'a andoq murid
Ki, yod etmayin shayxul-islomdin.

Kiray dayr aro uyla majnunu mast
Ki, ketsun xirad xos ila omdin.

Solay bir alolo xarobot aro
Ki, chiqsun fig'on ahli ayyomdin.

Xarobotiy o'lmog'lig'im, zohido,
Suol etma men zori badnomdin.

Garav qilg'ali mayg'a chun qolmadi
Ne tasbih-u ne xirqa, nokomdin.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing'an safol...

Tarkibband (ar.-fors. biriktirib bog'lash) – mumtoz adabiyotdagi yirik hajmli bandli she'r shakllaridan biri. Tarkibband tarkibi, qofiyalanish tizimi va hajmiga ko'ra tarji'bandga yaqin turadi. Faqat undan farqli o'laroq, tarkibbandda har bandning maqta'si o'zaro qofiyalanuvchi va bir-birini takrorlamaydigan mustaqil baytlardan iborat bo'ladi.

Mumtoz adabiyotshunoslikda tarkibband haqidagi ilk ma'lumot "Funun ul-balog'a" asari (1436/37)da keltirilgan. Muallif tarkibbandni tarji' turlaridan biri sifatida sanab o'tadi va unga quyidagicha ta'rif beradi:

"Va beshinchi qismi ulkim, har bandning qofiyasi har tariqa bo'lur va tarji' baytlari taqi har biri alohida qofiya birla kelur va mukarrar qilmaslar. Va bu qismda marsiya va madh ayturlar". Ushbu ta'rifdan ma'lum bo'ladiki, tarkibband ko'proq marsiya va madhiya mavzularida bitilgan.

Tarkibband forsiy she'riyatda X-XI asrlarda, turkiy adabiyotda XV asrda vujudga kelgan. Uning turkiy adabiyotdagi ilk namunasi Hofiz Xorazmiy qalamiga mansub bo'lib, uning devonida har bandi 8 baytdan iborat to'rt bandli tarkibbandi bor.

Alisher Navoiyning turkiy tilda 2 tarkibbandi mavjud bo'lib, ular "Navodir ush-shabob" devoni va "Badoyi' ul-bidoya"ning Dushanbe nusxasidan o'rin olgan. Ikkala tarkibband ham marsiya yo'nalishida. Ulardan birinchisi shoirning ustozi va do'sti Sayyid Hasan Ardasher xotirasiga, ikkinchisi Husayn Boyqaroning o'g'li Shoh G'arib Mirzo (G'aribiy)ga bag'ishlangan.

Sayyid Hasan Ardasherga bag'ishlangan tarkibbanddan parcha:

Dahr bog'iki jafo shoriidur har chamani,
Juz vafo ahlig'a sonchilmadi aning tikani.

Kimdakim dog'i vafo ko'rsa shahid aylamasa,
Lolasining ne uchun qong'a bo'yalmish kafani.

Poymol etmasa andinki kelur mehr isi,
Oyog' ostida nedin qoldi giyohi damani.

Safhai xotiri pok o'lmasa barbod andin,
Bas, ne sovrulmoq erurkim ko'rar aning samani.

Rostlar bo'lsa aning arsasida barxo'rdor,
Javrdin, bas, nega bebarlik erur sarvi fani.

Gar yaqin ahlini Mansur kebi qatl etmas,
Bas nedindur shajaru sunbuli doru rasani.

V-ar kamol ahli jaloyi vatan ermas andin,
Nega tufrog'dur ul akmali davron vatani.

Bahri urfon duri Sayyid Hasan ulkim afiok,
Yetti durji aro bir ko'rmadi andoq duri pok.

Zoli gardun kishiga mayli vafo aylamadi,
Kimda-kim ko'rdi vafo, g'ayri jafo aylamadi.

Qaysi bir vasl kunin mehr ila qildi ravshan
Kim, yana hajr tuni birla qora aylamadi.

Qaysi davlat quyoshin chekti kamol avji uza
Kim, yana er to'bida maskan anga aylamadi.

Qaysi labtashnag'a tutti qadahi sof nishot
Kim, yana qismi aning durdi ano aylamadi.

Qaysi dilxastag'a yetkurdi farog'at no'she
Kim, nasibi yana yuz neshi balo aylamadi.

Har dil ozurdag'akim novaki zulm etti kushod,
Garchi bor erdi xato, lek xato aylamadi.

Chekti bu zulmin aning barcha xaloyiq, lekin
Chora bu dardg'a juz ahli fano aylamadi.

Xossa ul foniyi davronki, bo'lub vosili Haq,
Qo'ymadi ko'ngli aro g'ayri xayolin mutlaq.

Soqiynoma (soqiy – ar. may quyuvchi, noma – f-t. xat) – may quyuvchiga murojaat tarzida yozilgan, masnaviy shaklida qofiyalanadigan katta hajmli lirik janr. Soqiynoma bir necha banddan tashkil topadi. Turkiy adabiyotda Alisher Navoiy ijodigacha mustaqil janr sifatida taraqqiy etmagan. "Muhabbatnoma" va boshqa turkiy nomalar tarkibida soqiyga murojaat tarzida yaratilgan 2-3 baytli she'rlar uchraydi.

Soqiynomaning turkiy adabiyotdagi asoschisi Alisher Navoiydir. Uning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida bitta soqiynoma mavjud bo'lib, "Favoyid ul-kibar" devoni tarkibiga kiritilgan. Ushbu she'r turli hajmdagi 32 qism(band) dan iborat. Jami 458 baytni o'z ichiga oladi. Birinchi band hajman ancha katta (41 bayt) bo'lib, quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Soqiyo, tut qadahi shohona,
Qatrasi la'l vale yakdona...

Navoiydan keying davrda Nishotiy, Miriy va Avaz O'tarlar ushbu janrda qalam tebratdilar.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun masnaviyni musammatlar qatoriga kiritmaymiz?
2. Tarkibband va tarji'bandni qaysi janriy belgilarga ko'ra farqlash mumkin?
3. Vosila bayt deganda nimani tushunasiz?
4. Masnaviy janr va shakl sifatida namoyon bo'lganda ularni qanday belgilar bilan farqlash mumkin deb o'ylaysiz?
5. Soqiynoma qaysi jihatlari bilan qasidadan farq qiladi?
6. Bobur "Boburnoma"da Alisher Navoiyning "oltita masnaviysi bor" deganda, qaysi asarlarini nazarda tutgan edi?

Asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
3. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 120 б.
4. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи,1979. – 184 б.
5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ,1990. – 240 б.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.
7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013. – 408 б.
8. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X-XVв.). – М.: Наука,1989.

Xorijiy adabiyot:

9. Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003.

ILMI BADI' YOKI BADIIY SAN'ATLAR TALQINI. LAFZIY SAN'ATLAR

Tayanch tushunchalar:

- ilmi badi'
- lafziy san'atlar
- tarsi'
- muvozana
- zulqofiyatayn
- zulqavofiy
- radd
- sadr
- ibtido
- hashv
- ajuz
- tardi aks
- Tashtir
- tajziya
- talavvun
- musoviyat tarafayn
- kitobot
- qalb
- maqlubi mustaviy
- tasbi'
- tasdir
- radd ul-ajuz al as-sadr
- radd ul-matla'
- radd ul-qofiya
- tavzi'
- tazmin

Reja:

1. Ilmi badi' haqida umumiy ma'lumot.
2. Badiiy san'atlar tasnifi. Mumtoz va zamonaviy tasniflar.
3. Lafziy san'atlar va ularning turlari.

Ilmi badi' (ar. badi' – go'zal, chiroyli, ajoyib, nodir, nafis, yangi paydo bo'lgan narsa) – Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri, nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha bo'lib, mumtoz she'riyat, ba'zida nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo'llanilayotgan badiiy san'atlar ilmi badi'ning asosini tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib, ilmi badi' sanoyi' ilmi deb ham yuritiladi.

Ushbu ilmga doir dastlabki asarlar arab tilida yaratilgan bo'lib, ularga Nasr binni Hasanning "Mahosin ul-kalom", Ibn Mu'tazning "Kitob ul-badi'", Qudama ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r" asarlari kiradi. Ilmi badi' forstojik adabiyotshunosligida o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balog'a", Rashididdin Vatvotning "Xadoyiq us-sehr", Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam" (uchinchi qismi, Vahid Tabriziyning "Jam'i muxtasar" kabi asarlari shu sohaga bag'ishlangan mumtoz asarlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Turkiy tilda ilmi badi' masalalari aks etgan asar sifatida Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarini keltirish mumkin. Risolaning uchinchi qismi badiiy san'atlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda 97 san'at turi haqida so'z boradi.

Ilmi badi'ga doir nisbatan mukammalroq asar Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" risolasi bo'lib, unda ilmi badi' tarixida ilk marta badiiy san'atlar uch katta guruhga: lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlarga ajratilgan.

Badiiy san'atlarni mumtoz manbalar asosida o'rgangan olim Y.Is'hoqov mumtoz adabiyotimizda qo'llanilgan asosiy san'atlarni ularning she'riy matn doirasidagi funksiyasi bilan aloqadorlikda 10 ta guruhga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi. Mumtoz she'riy san'atlar Z.Mamajonov tomonidan ham tasnif qilingan bo'lib, olim ularni yuzaga kelish asosi nuqtai nazaridan 12 guruhga ajratadi[1]. Biz ushbu tasniflarning ijobiy jihatlarini e'tirof etgan va ulardan umumiy tarzda foydalangan holda mumtoz he'riyatimizda qo'llanilgan san'atlarni asosan uchta katta guruh (Atoulloh Husayniy tasnifi) doirasida ko'rib chiqamiz[2].

Lafziy san'atlar nutqning ifoda usuli, xususan so'z shakli bilan aloqador san'atlar bo'lib, Atoulloh Husayniy ular sirasiga tarsi', tajnisli tarsi', tajnis, radd (qaytarish) san'ati va uning turlari, qalb va uning turlari, saj', tashtir, tajziya, tasri', tasmit, aks, tardid, zulqofiyatayn, tavshih, talavvun, mulamma', muqatta', muvassal, jam' ul-huruf, murabba' yoki musoviyat tarafayn, mudavvar, mushokala va boshqa san'atlarni kiritadi. Olimning fikricha, lafziy san'atlar ijodkor yetkazmoqchi bo'lgan fikrni yuksak badiiy shaklda ifodalashga xizmat qilishi kerak. Quyida mumtoz she'riyatda keng qo'llanilgan lafziy san'atlarga to'xtalib o'tamiz.

Tarsi' (ar. – gavharni ipga tizish) – baytning birinchi misrasidagi barcha so'zlarning ikkinchi misradagi so'zlar bilan o'zaro teng, vazndosh va qofiyadosh bo'lishiga asoslangan badiiy san'at. Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balog'a" (11-a.) asaridan boshlab ilmi badi'ga doir barcha forsiy risolalar tarsi' san'ati ta'rifi bilan ibtido topganligini ko'rish mumkin. Tarsi' san'ati g'azal yoki qasida janrida qo'llanganda asosan matla'da yuzaga keladi, chunki ushbu janrlarning qofiyalanish tizimi shuni taqozo etadi.

Qamar yuzungdin bo'lur munavvar,
Shakar so'zungdin kelur mukarrar

(Sayfi Saroyi)

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.

(Bobur)

---

[1]Olimlaming ta'kidlashlaricha, bu tasnif shartli bo'lib, ba'zi san'atlar (tarsi', tashtir, tajziya kabilar) bir vaqtning o'zida ikki guruhga kiritilishi ham mumkin.

[2]Aslida Atoulloh Husayniy tasnifida ham ba'zi bahstalab o'rinlar mavjud. Xususan, so'z takroriga asoslangan takrir ma'naviy san'atlar guruhida o'rganilgan bo'lsa, tajnis lafziy san'atlar tarkibida o'rganilgan. Biz tajnisni mushtarak san'atlar guruhida tahlil qilish tarafdorimiz, chunki tajnisda so'zning ham shakl, ham ma'no tomoni teng hisobga olinadi.

Tarsi' san'atini **muvozana**dan farqlash lozim. Muvozanada bir qarashda barcha so'zlar o'zaro qofiyadosh bo'lib ko'rinsa-da, aslida so'zlar tengligi va o'zaro vazndoshligi hisobiga ritm hosil qilinadi:

Ishqing g'amida diydai giryonima rahm et,
Hajring tunida nolai afg'onima rahm et (Ogahiy)

Baytdagi ishqing-hajring, g'amida-tunida, diydai-nolai so'zlari mumtoz poetika talablariga ko'ra, qofiyadosh emas, chunki ularning o'zagida raviy harfi ishtirok etmayapti.

Zulqofiyatayn (ar. "ikki qofiyalilik") – bayt misralarida ikki so'zni qofiyadosh qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at bo'lib, baytda asosiy qofiyadan tashqari yana bir so'z o'zaro qofiyalanadi. Bunda qofiyadosh so'zlar misralar oxirida ketma-ket (mutakarrin qofiya) keltirilishi yoki misralarning turli o'rinlarida (mahjub qofiya) kelishi mumkin. Mutakarrin zulqofiyataynga misol:

Bog' anga bir sahfai gulshan misol,
Jadvali atrofida ravshan zulol. (Navoiy)

Mahjub qofiya asosida yuzaga kelgan zulqofiyataynga misol:

Qoshlaring imosidin yuz hur-u g'ilmon evrulur,
Yuzlaring siymosidin ming bog'i rizvon evrulur. (Ogahiy)

Zulqavofiy (ar. – ko'p qofiyalilik) - bayt misralarida uch va undan ortiq so'zni qofiyadosh qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at bo'lib, bir yoki ikki so'zning qofiyalanmay, ochiq qolishi bilan tarsi'dan farqlanadi.

Yo'ldasa bu yo'lda Nizomiy yo'lum,
Qo'ldasa Xusrav bila Jomiy qo'lum (Navoiy)

Ba'zan zulqavofiy san'ati muvozana bilan uyg'unlik kasb etishi ham mumkin:

Ey musallam dilkusholig' g'unchai xandonima,
Vay mujazzam jonguzolig' nargisi fattonima. (Ogahiy)

Ilmi badi'da radd, ya'ni qaytarishga asoslangan bir qancha she'riy san'atlar mavjud bo'lib, ularda qaytariluvchi so'z baytning qaysi o'rnida takrorlanishiga qarab, muayyan nomga ega bo'ladi. Sharq mumtoz poetikasida baytning boshi sadr, oxiri ajuz yoki zarb, ikkinchi misraning boshi ibtido va har ikki misraning o'rtasi hashv deyiladi. Buni quyidagi chizmada ko'rish mumkin:

Sadr _____/____hashv_____/___ aruz
Ibtido_____/___ hashv_____/____ajuz (zarb)

Radd us-sadr il-al ajuz (sadrning ajuzda takrorlanishi) san'atida baytning boshida kelgan so'z baytning oxirida ham takrorlanadi, boshqacha aytganda, bayt qaysi so'z bilan boshlangan bo'lsa, shu so'z bilan yakunlanadi. Ushbu san'at tasdir (ar. – qaytish) deb ham ataladi.

Men bu yuz mushtoqidurmen, bog'-u bo'stonkim bo'lur,
Bo'lmasin nasrin-u lola, arg'uvon sizsiz menga.
(Atoyi)

O't agar itsa jahondin, ohim o'lsa g'am emas,
Yetkuray bir damda yuz avvalg'i o't miqdori o't. (Navoiy)

Radd ul-ajuz al as-sadr (ar. – ajuzdan sadrga borish) – qaytarishga asoslangan she'riy san'atlardan biri. Mutobiq va musaddar deb ham ataladi. Bu san'atga ko'ra, baytning oxirida kelgan so'z keyingi baytning boshida takrorlanib keladi.

Qo'yma minnat bizga g'amgin aylabon ishq ahlini,
Bizni ham shod etmading, gar elni noshod aylading.
Aylading ko'nglum imorat partavi ruxsor ila,
Ka'bani butxona qilmog'liqqa obod aylading. (Navoiy)

Raddul aruz ilal ibtido (aruzning ibtidoda takrorlanishi) yoki tasbi' – birinchi misrani tugatgan so'zning ikkinchi misra boshida kelishi:

Kuchum yetguncha ko'p qildim vafolar,
Vafoli qulni asrar podsholar (Xorazmiy)

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar (Navoiy)

Qalb (ar.– teskari qilmoq) yoki maqlub – misra yoki bayt tarkibidagi so'z teskari o'qilganda ham ma'no anglatishiga asoslangan badiiy san'at. G'arb adabiyotshunosligida palindrom deb yuritiladi. Uning maqlubi kull (zor-roz), maqlubi ba'z (qamar-raqam), maqlubi mujannah (so'zning biri misra|bayt boshida, ikkinchisi misra| bayt oxirida joylashadi) va maqlubi mustaviy degan turlari bo'lib, ular orasida maqlubi mustaviy san'ati mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan. Maqlubi mustaviy (ar. – teng qilib ag'darilgan) – misra yoki bayt tarkibidagi ibora yoki jumlalarning teskari o'qilganda ham ma'no anglatishiga asoslangan badiiy san'at bo'lib, bunda shoir biror jumla yoki misra she'rni har ikkala tomondan: o'ngdan ham, so'ldan ham o'qiy oladigan qilib tuzishi nazarda tutiladi. Bu haqidagi dastlabki ma'lumot

Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balog'a" (11-a.) asarida keltirilgan bo'lib, muallif ushbu san'atni qalb yoki maqlub san'atining ko'rinishlaridan biri sifatida keltirib, uning ikki turini sanab o'tadi:

1) teskari o'qilganda vazn va ma'no saqlanib qoladigan;

2) vazn va ma'no o'zgarishga uchraydigan.

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da shoirlar mahoratiga baho berishda ushbu san'atga to'xtalib o'tadi. Xususan, Atoulloh Husayniyga ajratilgan faslda shoirning bir baytini tahlil qilar ekan, uning mahoratini aniqlash uchun ushbu san'at qo'llangan bayt kifoya qilishini aytadi: "Bovujudi ihtisor maqlubi mustaviy san'atidakim, andin mushkulroq san'at bo'lmas, bu bayt ul risolada aning xossa baytidurkim:

Shakkar dahano g'ame nadoriy,
Dayr o daniyi mug'ona darkash.

Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibiga kiruvchi dostonlar sarlavhalarida qalb san'ati qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Xususan, "Hayrat ul-abror" dostonining beshinchi maqolati quyidagicha sarlavhalangan:

"Karam vasfidakim, qalbi diram margi durur, balki rahmat shajarasining bargi..." Bunda "diram margi" (pulning o'limi) jumlasi teskari o'qilsa, "karam mardi" (saxovatli mard) so'zlari paydo bo'ladi.

Radd ul-matla' (ar. – matla'ning takrorlanishi) – g'azal yoki qasida matla'idagi birinchi misraning maqta'da, ba'zan she'r tarkibidagi baytlardan birida takrorlanib kelishiga asoslangan she'riy san'at. Bu tarzdagi takror tasodifiy bo'lmasdan, muayyan poetik maqsadga ega. G'azal matla'si yoki qasidaning birinchi baytida ilgari surilgan fikr keyingi baytlarda rivojlantirilib boriladi va she'r nihoyasida misrani takrorlash orqali o'sha fikr yana ta'kidlanadi.

Kechti umrum naqdi g'aflat birla nodonlig'da hayf,
Qolg'ani sarf o'ldi anduhu pushaymonlig'da hayf.

Ey Navoiy, voqif erman xalqdin, bori mening
Kechti umrum naqdi g'aflat birla nodonlig'da hayf (Navoiy)

Radd ul-matla'ning ikkinchi ko'rinishiga misol:

Otashin gul bargidin xil'atki jononimdadur,
Xil'at ermas, ul bir o'tdurkim, mening jonimdadur.

Otashin la'lidururkim, anda muzmar bo'ldi jon,
Otashin gulbargidan xil'atki jononimdadur.

(Navoiy)

Radd ul-qofiya (ar. – qofiyaning takrorlanishi) – g'azal yoki qasida matla'idagi qofiyaning undan keyingi baytlardan birida yoki maqta'da

takrorlanishiga asoslangan badiiy san'at. XVI asrgacha yaratilgan poetikaga doir manbalarda "iyto" deb yuritilgan. Ularning deyarli barchasida iyto qofiya nuqsonlaridan biri sifatida e'tirof etilib, agar takrorlanuvchi qofiyalar orasida muayyan masofa bo'lsa (g'azal va qit'ada 7 baytdan keyin, qasidada esa 14-20 baytdan keyin) yoki she'r ikki matla'ga ega bo'lsa (she'r o'rtasida yana bir qo'sh qofiyalanuvchi bayt kelsa), iytodan foydalanish mumkin degan umumiy xulosa aytiladi. Alisher Navoiy she'riyatida esa radd ul-qofiya shoirning maqsadi, tasvir jarayoni bilan aloqador san'at sifatida qo'llanilib, Navoiy qofiyaga shunchaki shakl bilan bog'liq hodisa sifatida qaramaydi, balki ma'noni yuzaga chiqaruvchi muhim vosita sifatida yondashadi. Shoir g'azaliyotida keng qo'llanilgan ushbu san'at ma'lum fikrning takrori uchun emas, balki yangi nutqiy jarayon doirasida yangicha uslubiy ko'rinishlar ifodasi uchun xizmat qiladi:

Bahor sensiz o'luptur manga ajab do'zax,
Qizil gul anda o'tu oq shukufalardur yax.

Bahor sensiz agar do'zax o'lsa tong ermas,
Bihisht ichinda liqo bo'lmasa erur do'zax... (Navoiy)

Tardi aks (ar. – teskari qilib takrorlash) – bayt tarkibidagi ikki so'z yoki birikmani avval muayyan bir tartibda keltirib, so'ng ularning o'rnini almashtirib takrorlash san'ati. Mumtoz poetikaga doir manbalarda "aks", "tabdil" nomlari bilan ham keladi. Bu san'at takrorning qaysi o'rinda kelishiga qarab ikki turga bo'linadi:

1) komil (tugallangan) aks – tardi aksning bayt doirasida sodir bo'lishi, bunda baytning birinchisi misrasidagi ikki so'z yoki birikma ikkinchi misrada o'rin almashinib takrorlanadi. Masalan,

Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

2) maxraj (tugallanmagan) aks – tardi aksning misra doirasida hosil qilinishi, bunda bir misradagi ikki so'z shu misraning o'zida o'rin almashinib takrorlanadi:

Ki, haq taqdiridindur olam ichra,
Yomon-u yaxshining yaxshi yomoni (Navoiy)

Tardi aks san'ati mazmun nuqtai nazaridan ham ikki turga bo'linadi:

1) mutahodiy aks. Bunday tardi aksda ikki so'z yoki iboraning tartibini o'zgartirib takrorlash oqibatida yangi ma'no hosil qilinmaydi:

Har ne ul buzdi, bu barin tuzdi,
Bu barin tuzdi, har ne ul buzdi (Navoiy)

2) majro aks. Bunda ikki so'z yoki birikmaning o'rin olmashinib takrorlanishi natijasida yangi ma'no hosil qilinadi:

Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching,
Shikasta ko'ngluma bo'ldi qaro balo soching. (Bobur)

Ushbu baytning birinchi misrasidagi „balo" so'zi mustaqil holda „ofat" ma'nosini, „qaro" so'zi esa sochning sifatini ifodalagan bo'lsa, ikkinchi misradagi bu ikki so'zning o'rni almashtirilishi natijasida, ularning mazmuni ham o'zgarib, „qaro" so'zi „balo" so'zining sifatlovchisiga aylanib, bu so'zning ma'nosini yanada kuchaytirgan, har ikki so'z qofiyadosh bo'lganligi sababli takror zulqofiyatayn san'atini ham hosil qilgan.

Tashtir – baytni teng to'rt bo'lakka bo'lib, 1-2-bo'laklarni o'zaro, 3-4-bo'laklarni o'zaro qofiyalash san'ati. Ushbu san'at haqida Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi" asarida ma'lumot keltirilgan. Tashtir san'ati matla'da qo'llanilmaydi.

Zi javri habib, jafoyi raqib,
Dilam shud figor, tanam shud zor.

Tajziya (ar. "bo'lak bo'lak qilmoq") bayt misralarining har birini teng ikki bo'lakka ajratib, birinchi bo'lakni uchinchi bo'lak bilan, ikkinchi bo'lakni to'rtinchi bo'lak bilan qofiyalash san'atidir. Bu san'at asosan g'azal yoki qasidaning birinchi bayti, ya'ni matla'sida qo'llaniladi:

Xatting aro uzoring / sabza ichida lola,
Ul chashmi pur xumoring / loladag'i g'azola. *(Bobur)*

Olur har lahza yuz jon / chashmi fattoningg'a sallamno,
To'kar har damda ming qon / tiyg'i mujgoningg'a sallamno.
(Ogahiy)

Talavvun (ar.– "rang-barang", "turlanuvchi") yoki mutalavvun, zulbuhur – she'rni bir necha vaznda o'qishga asoslangan badiiy san'at. Bunga bayt tarkibidagi unlilarni cho'zib yoki qisqa talaffuz etish, hijolarni ajratib yoki qo'shib o'qish orqali erishiladi. Ushbu san'at haqida nisbatan to'liqroq ma'lumot Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" asarida keltirilgan. Asarda talavvunning zulbahrayn (baytni 2 xil bahrda o'qish) va zulbuhur (baytni bir necha bahrlar doirasida o'qish) kabi turlari keltiriladi.

Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r" asarida ma'lumot berilishicha, Ahmad Manshuriy Samarqandiyning "Kanz ul-g'aroyib" ("Ajoyibotlar xazinasi") asaridagi har bir baytni 3 vaznda o'qish mumkin

bo'lgan. Shuningdek, fors-tojik klassiklari Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Sayido Nasafiy, Abdurahmon Jomiylarning ba'zi g'azallari ikki bahr doirasida yozilgan. Talavvun hodisasi epik poeziya uchun ham xos bo'lib, Kotibiy Turshiziyning "Majma' ul-bahrayn" va Am'aq Buxoriyning "Yusuf va Zulayho" dostonlarini boshdan oxiriga qadar ikki bahrda: ramali musaddasi mahzuf va sari'i musaddasi matviyi makshuf vaznlarida o'qish mumkin bo'lgan, hatto mazkur dostonlarning ba'zi baytlari 3-4 vaznga ham solib o'qilgan.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror"ini ham dostonning asosiy she'riy o'lchovi – sari'i musaddasi matviyi makshuf vaznidan tashqari, ramali musaddasi mahzuf vazniga solib o'qish ham mumkin. Dostondagi ayrim o'rinlar, xususan

Mastliq uyqusi chu aylab hujum,
Borcha o'lukdek o'tib ul xayli shum...
Ochibon elga sitam abvobini
Qilg'ali paydo tarab asbobini

baytlari ramali musaddasi mahzuf vazniga ham mos keladi.

Bobur ham "Risolai aruz" asarida mutalavvun san'ati haqida gapirib, o'zining

Qoshig'a borg'ali ko'ngul o'ziga kelmadi netay,
Yuzini ko'rgali ko'zum ko'ziga ilmadi ul oy

baytini keltiradi va ushbu baytni aruz tizimidagi barcha bahrlarga moslab o'qish mumkinligini aytadi.

Musoviyat tarafayn (ar.– "ikki taraflama teng") yoki chor dar chor (to'rtga to'rt) – to'rt misrani ham eniga, ham bo'yiga o'qilganda, shakli saqlanib qolishiga asoslangan badiiy san'at. Bunda misralar odatdagi o'qilishidan tashqari, yuqoridan pastga qarab ham o'qiladi va o'sha misralarning o'zi kelib chiqadi. Ushbu san'at haqida "Badoyi' us-sanoyi'"da ma'lumot keltiriladi. Ogahiy ijodida ushbu san'at asosida yaratilgan quyidagi she'r bor:

№	1	2	3	4
1	Ul sho'xki	Ochildi	xat-u	ruxsori
2	Ochildi	Rayohinda	yuzi	gulnori
3	Xat-u	Yuzi	besabr-u qarori	man-man
4	Ruxsori	Gulnori	man-man	Zori

Tavzi' (ar. – tarqatish, taqsimlash, ulashish) – baytda bir xil tovushlarni bir necha marta takrorlashga asoslangan san'at. Bunda shoir o'z fikrini ifodalash uchun yangroqdosh, ya'ni bir xil yangroq tovushga ega bo'lgan so'zlardan foydalanadi. Zamonaviy adabiyotda alliteratsiya deb ham yuritiladi.

Dedikim: shahg'a bo'lma shirkat andesh,
Dedi: ishq ichra tengdur shohu darvesh! (Navoiy)

Kitobot (harf) - arab alifbosidagi harflarning shaklidan foydalanib, timsol yaratish san'ati. Bunda ج («jim»), ل («lom») – zulf; ن («nun») – qosh; ا («alif») – yorning qomati; د («dol») – oshiqning qomati; م («mim») – yorning og'zi yoki o'rilgan soch; س («sin») – tish; nuqtalar – xol ma'nolarida keladi.

Ko'rmish qora soch halqasi ostindan mengingni,
«Jim» o'rtasida ul kishikim nuqta solibdur *(Lutfiy).*

Savol va topshiriqlar:

1. Mumtoz poetikada ilmi badi'ning o'rni haqida ma'lumot bering.
2. Mumtoz adabiyotshunoslikda badiiy san'atlar qanday tasnif qilingan?
3. Zamonaviy adabiyotshunoslikdagi tasniflarga munosabat bildiring.
4. Mumtoz she'riyatimizda keng qo'llanilgan lafziy san'atlar haqida ma'lumot bering.
5. Qaytarishga asoslangan san'atlarga qaysilar kiradi va ularning shoir she'riyatidagi o'rniga to'xtalib o'ting.
6. Mumtoz adabiyotda tardi aksning qaysi turlaridan foydalanilgan?
7. Quyidagi baytni tarsi' asosida yozilgan deb aytish mumkinmi? Nima uchun?

Yuzung avji sabohatda mahi anvarg'a o'xshaydur,
So'zung xoni malohatda tuzu shakkarg'a o'xshaydur. (Ogahiy)

8. Baytda qaysi san'at qo'llanilgan?

To'rt sadaf gavharining durji ul,
Yetti falak axtarining burji ul. (Navoiy)

Asosiy adabiyotlar

1.Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
2.Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина, 1996.
3.Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

4.Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ НМК, 1998.
5.Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
6.Мамажонов З. Мумтоз шеърий санъатларнинг назарий таснифи (ўхшатиш асосидаги санъатлар). – Т.: Akademnashr, 2016.
7.Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). – М.: Наука, 1989.
8.Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Ленинобод, 1972.

MA'NAVIY SAN'ATLAR

Tayanch tushunchalar

- tashbih
- talmih
- tamsil
- husni ta'lil
- irsoli masal
- laff va nashr
- mubolag'a
- iyhom
- tashxis
- tanosub
- ruju'
- tajohuli orif
- kalomi jomi'

Reja:

1. Ma'naviy san'atlar haqida umumiy ma'lumot.
2. O'xshatish va dalillash asosidagi san'atlar: tashbih, talmih, husni ta'lil, tamsil, irsol ul-masal, laff va nashr.
3. Ifoda usullari asosidagi san'atlar.

Badiiy san'atlarning ikkinchi katta guruhi ma'noning birlamchiligiga asoslanib, badi' ilmida **ma'naviy san'atlar** deb yuritiladi. Y.Is'hoqov tasnifida ular qiyosiy-assotsiativ usullar (tashbih, talmih, tansiq us-sifot va b.), istioraviy-ramziy tasvir usullari (majoz, istiora, kinoya va b.), fikrni dalillash (motivirovka) yo'llari (husni ta'lil, tamsil, irsoli masal va b.), emotsional-mubolag'ali tasvir usullari (mubolag'a, tashbihning ayrim turlari, ruju', murojaat, savol-u javob va b.) kabi guruhlarga kiritilgan bo'lsa, Z.Mamajonov ularni o'xshatish asosidagi san'atlar (tashbih, tamsil, talmih, irsol ul-masal, laff va nashr), majoz asosidagi san'atlar (istiora, kinoya, tashxis, intoq), belgini kuchaytirish asosidagi san'atlar (mubolag'a, tafrit, iyg'ol va b.), ifoda usullari asosidagi san'atlar (mulamma', tajohuli orif, mazhabi kalomiy, husni ta'lil, ruju', savolu javob, nido va b.) degan guruhlarga kiritadi. Quyida mumtoz she'riyatimizda keng qo'llanilgan ma'naviy san'atlarga to'xtalib o'tamiz.

Tashbih (ar. – o'xshatish) – ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'ati. Tashbih tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani aniqroq va yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi. Bu san'atga ilmi badi'ga doir barcha manbalarda keng o'rin ajratilgan. Ushbu manbalarda tashbihga berilgan ta'riflar bir-biriga asosan mos kelgani holda uning turlari borasida tafovutlar uchraydi. Manbalarda tashbihning 5 ta dan boshlab 7 tagacha turi keltirilgan.

Tashbeh.san'ati quyidagi to'rt unsur asosiga quriladi:

1. Mushabbah (o'xshamish) – tasvirda fikr qaratilayotgan (o'xshatilayotgan) narsa yoki tushuncha.
2. Mushabbahun bih (o'xshatilmish) – tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha.
3. Vajhi shabah (o'xshatish sababi) – nimaga ko'ra o'xshatishning yuzaga chiqqanligi.

4. Odoti tashbih (o'xshatish vositasi) – o'xshatilish belgisi.

Masalan, "yorim go'zallikda Shirin kabidir" deb tasvirlanganda, "yorim" – mushabbah, "Shirin" – mushabbahun bih, "go'zallikda" – vajhi shabah, "kabidir" – odoti tashbeh hisoblanadi.

Ushbu unsurlarning barchasi ishtirok etgan o'xshatish tashbihi mufassal deb ataladi. Agar ulardan vajhi shabah tushirib qoldirilsa, bunday o'xshatish tashbii mujmal va agar odoti tashbih ham qatnashmasa, bunday o'xshatish tashbihi muyaqqad deb ataladi. Tashbihi muyaqqad tashbihi mufassalga qaraganda o'xshatish belgisining kuchliligi bilan ajralib turadi. Masalan,

Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg'a ayt,
Zulfi sunbul, yuzi gul sarvi gulandomimg'a ayt

misralarida Alisher Navoiy "yorimning zulfi sunbulga o'xshash" yoki "yorimning yuzi gul kabidir" jumlalari o'rniga "zulfi sunbul", "yuzi gul" tarzidagi aniq va qisqa o'xshatishlarni qo'llar ekan, bunda yor go'zalligi yorqinroq namoyon bo'ladi.

Turkiy adabiyotimizda tashbihning quyidagi turlari qo'llanilgan:

1. Tashbihi sarih yoki mutlaq (aniq o'xshatish) – bir narsaning ikkinchi bir narsaga odoti tashbih (o'xshatish vositalari) yordamida o'xshatilishiga asoslangan tashbih.

Bo'yung sarv-u sanubardek, beling qil,
Vafo qilg'on kishilarga vafo qil. (Xorazmiy)

Navoiy sham'dek yig'lab, kuyub holimni sharh aylay,
Ul oy bazmida bir tun rost oshiqlarg'a bor o'lg'ach. (Navoiy)

2. Tashbihi mashrut (shartli o'xshatish) – bir narsaning ikkinchi narsaga muayyan shart bilan o'xshatilishiga asoslangan Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob"dan 613-raqam ostida o'rin olgan g'azali boshdan-oxir shu san'at asosida yaratilgan:

Og'iz ichra tilingdek g'unchada gul bargi tar bo'lg'ay,
Vale bu shart ilakim, bargi gul ichra shakar bo'lg'ay.

Qadingg'a sarvi ra'no o'xshag'ay, lek ul zamonkim sarv
Xiromon bo'lg'ayu gul bergay, ul guldin samar bo'lg'ay...

3. Tashbihi aks (teskari o'xshatish) – bu xil tashbihda avval bir narsaga ikkinchi bir narsaga o'xshatiladi, so'ng buning aksi amalga oshiriladi, ya'ni ikkinchi narsa birinchi narsaga o'xshatiladi. Natijada mushabbah mushabbahun bihga, mushabbahun bih esa mushabbahga aylanadi.

Su ko'zgusini bog' aro aylarda shitob,
Siymob qilur erdi taharruk bila tob.
Day qildi bu simobni andoq ko'zgu
Kim ko'zgu aning qoshida bo'lg'ay siymob.
("G'aroyib us-sig'ar", 14-ruboiy)

4. Tashbihi tasviya (tenglashtirilgan o'xshatish) – bu xil T.da shoir o'zidagi biror narsani tasvirlanayotgan shaxsdagi biror narsaga o'xshatadi, so'ng ularni boshqa biror belgi bilan qiyoslaydi.

Mening firoqimu aning visoli tun bila tong,
Bu nav' dahrda yo'q ehtimole tun bila tong. (Navoiy)

5. Tashbihi muzmar yoki izmor (yashirin o'xshatish) – bunda shoir bir qarashda o'xshatishni maqsad qilmagandek tuyuladi, aslida esa uning asl niyati o'xshatish bo'ladi.

Yuzinda xaymudur yo manglayidin qatra, vah, ko'rgil
Ki, guldinmu oqar shabnam, quyoshdinmu tomar axtar?!
("Badoyi' ul-vasat", 161-g'azal)

6. Tashbihi tafzil yoki marju' (chekinish yo'li bilan o'xshatish) – bu xil T.da shoir avval bir narsani ikkinchi bir narsaga o'xshatadi-yu, keyin undan voz kechib, o'xshamishni o'xshatilmishdan ustun qo'yadi. Bunda Tashbih ruju' san'ati bilan qorishiq holda qo'llaniladi.

Ziynat aro ravzai rizvondur ul,
Ravzani qo'y, mulki Xurosondur ul.
("Hayrat ul-abror")

7.Tashbihi kinoya (kinoya yo'li bilan o'xshatish) – tashbih unsurlaridan faqat mushabbahun bih (o'xshatilmish) ishtirok etuvchi o'xshatish turi. Ko'p hollarda tashbihi kinoya istiora san'atiga teng keladi.

La'ling olsa choklik bemor ko'nglumni ne tong
Ey malohat naxli, chunkim xastasiz bo'lmas rutab. (Navoiy)

Talmih (ar. – nazar tashlash, chaqmoq chaqishi) – nazm yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, qissalar, she'r, masal yoxud maqollarga ishora qilishga asoslangan she'riy san'at. Bunda ko'proq Qur'oni Karim suralarida aks ettirilgan afsona va hikoyalar qahramonlari: payg'ambarlar, farishtalar nomlari; adabiy asar qahramonlari nomlari, joy nomlari nazarda tutiladi. Talmih arabcha „lama'ot» (chaqmoq chaqnashi) so'zidan olingani

bejiz bo'lmay, qorong'u kechada yashin chaqnaganda atrof yorishib, ilgari ko'rinmay turgan narsalar ko'rinib ketganiday, biror mashhur shaxs yoxud voqeaga ishora aytilmoqchi bo'lgan fikr yoki tasvirlanayotgan manzaraning aniqroq va jonliroq chiqishiga yordam beradi.

Sulaymon saltanatlik podshosen,
Masih anfoslik, Yusuf liqosen. (Xorazmiy)

Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar, taxting qurub bod ustina (Ogahiy)

Tamsil (ar. – misol keltirish, dalillash) – she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at. Bunda birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat, ya'ni mantiqiy aloqa ko'pincha qiyosiy yo'nalishda bo'ladi. Tamsil san'ati mohiyatiga ko'ra irsoli masal san'atiga o'xshab ketsa-da, fikrning, maqsadning isboti uchun hayotiy dalillar keltirishi bilan undan farqlanadi, chunki irsoli masalda mashhur maqol, hadis yoki hikmat dalil sifatida keltiriladi. Lutfiyning

Ey ko'ngil, jonni xayoli olida qil peshkash,
Har nima bo'lsa aziz, eltur kishi mehmon sori

baytida ikkinchi misrada keltirilgan hayotiy hodisa – mezbonning o'zi uchun eng aziz bo'lgan narsani mehmon oldiga qo'yishi birinchi misradagi fikrning tasdig'iga xizmat qilgan. Baytdagi „Har nima aziz bo'lsa, kishi mehmoniga tutadi, shuning uchun, ey ko'ngul, sen ham joningni, ya'ni eng aziz narsangni yorxayoliga peshkash qil" mazmuni ham tamsil mohiyatini ko'rsatib turibdi.

Har qanda g'ami do'sti dilporani istar,
To subh yaqo yirtmadi, mehr o'lmadi paydo.
(Turdi Farog'iy)

Baytning mazmuniga ko'ra, tong yoqasini yirtmaguncha, quyosh paydo bo'lmaganidek, har qayerda ham g'amning do'sti dili g'amdan pora bo'lgan do'stni istaydi.

Husni ta'lil (ar. – chiroyli dalillash) – biror voqeani unga bevosita daxli bo'lmagan boshqa bir hodisa bilan izohlash san'ati. Bunda shoir o'zi tasvir etayotgan hodisaga biror go'zal sabab ko'rsatadi. Bu asoslash mantiqiy va hayotiy bo'lmasdan, aksincha xayoliy, shoirona shaklda namoyon bo'ladi.

Labingdin chun suchukluk qand o'g'urlar,
Solurlar el ani suvg'a yalang'och (Lutfiy)

Qutlug' oyog'ing yerga tegibdur, oning uchun,
El yerga qo'yub bosh, qilur barcha ibodat

(Lutfiy)

Irsoli masal (ar. – maqol yoki matal yuborish) – baytda maqol, matal va hikmatli so'zlarni keltirishga asoslangan she'riy san'at. Ilmi badi'ga doir deyarli barcha manbalarda ushbu san'at haqida ma'lumotlar keltiriladi. Atoulloh Husayniy irsoli masal san'atining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratib, "irsol" so'zi "yubormoq, jo'natmoq" ma'nosini bildirishini, baytda masal keltirishdan maqsad esa uni muayyan kishiga jo'natish ekanligini ham aytib o'tadi.

O'lturur soat manga ayturki: "Yig'la! Xush kelur"
"O'chkuga jon qayg'usi, qassobqa jir bu g'ame". (Taroziy)

O'qlaring ko'nglumga tushkach kuydi ham ko'z, ham badan
Kim, kuyar o'lu qurug' chun naysitong'a tushti o't.

(Navoiy)

Laff va nashr (ar, – yig'ish va yoyish) – bunda shoir biror narsa yoxud hodisani oldin sanaydi, so'ng shu tartibda ularga tegishli o'xshatishlarni tizib chiqadi.

Qoshing, erning, yuzung, ey rashki rizvon,
Hilol-u kavsar-u bog'i jinondur.

(Lutfiy)

Bunda laff va nashrni hosil qiluvchi juftliklar:
* qoshing – hilol
* ern (lab)ing – kavsar
* yuzing – jannat bog'i

* Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbati,
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati. (Bobur)

Laff va nashr:
* yoz fasli – she'r bahsi
* yor vasli – ishq dardi
* do'stlarning suhbati – bodaning kayfiyati

Mubolag'a (ar. – kattalashtirish, kuchaytirish) – adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol harakati yoki holatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati. Bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yanada yaqqol namoyon bo'ladi, o'quvchi ko'z oldida yorqinroq gavdalanadi.

Mubolag'aning quyidagi 3 darajasi mumtoz adabiyotimizda, xususan Alisher Navoiy ijodida keng qo'llanilgan:

1) tablig' – (ar.) aqlan ishonish mumkin bo'lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lgan M. Bunda bo'rttirib tasvir qilinayotgan hodisa yoki xususiyat aqlga to'g'ri keladi va ba'zan qiyinchilik bilan bo'lsa da, amalga oshishi ham mumkin.

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

2) ig'roq – (ar. kamonni qattiq tortmoq) – aqlan ishonish mumkin bo'lsa ham, hayotda yuz bermaydigan mubolag'a. Bunday tasvirda o'quvchi voqea yoki xususiyatni ko'z oldiga keltirib, tasavvur qila oladi, biroq uning amalda yoki hayotda sodir bo'lishi mumkin emas. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida Shirinning oti yiqilay deganda, Farhodning otni va Shirinni yelkasiga ko'tarib bir necha chaqirim yo'l bosishini aqlan qabul qilish mumkin bo'lsa ham, bunday voqea hayotda yuz berishi mumkin emas:

Ko'tardi orqasig'a bodponi,
Nechukkim bodpo ul dilraboni...

Chu ikki-uch yig'och gom urdi shaydo,
Bo'lub ollinda qasru havz raydo.

3) g'uluvv (ar. – qo'lni imkon boricha baland ko'tarish) – aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lmagan mubolag'a:

Har qizil gulkim, yuzung shavqida olib isladim,
Yetkach ohim shu'lasi, ani sarig' gul ayladim. (Navoiy)

Iyhom (arabcha «shubhaga solish», «adashtirish») – she'rda ikki ma'noli so'zni qo'llash san'ati. Bu ma'nolardan biri aniq sezilsa ham, ikkinchi ma'no payqalmasligi mumkin. Iyhom va tajnisning farqi shundaki, iyhomni faqat bir so'z hosil qiladi, tajnisda esa bir xil shaklli bir necha so'z ishtirok etadi.

Falak yore nakard, ey do'ston, dushman muzaffar shud...
(Mazmuni:
Falak do'stlik qilmadi, dushmanim muzaffar bo'ldi) (Mo'min Mirzo)

Munajjim qosh-u ko'zung ko'rgach, aytur
Kim: "Ushbu oy boshinda fitnalar bor" (Lutfiy)

Ishqing o'tin gar Navoiy desakim aylay raqam,
So'zidin kuyar qalam, qurur qaro, erir davot (Navoiy)

Tashxis (ar. – jonlantirish, shaxslantirish) – hayvonlar, qushlar, o'simliklar va jonsiz narsalarga insonning xususiyatlarini ko'chirish san'ati. Bu holat tasodifiy bo'lmay, tasvir ob'ekti bo'lmish hayvon, o'simlik yoki jonsiz predmetning muayyan belgisi bilan inson xususiyati yoki fe'l-atvori o'rtasidagi biror ramziy o'xshashlikka asoslanadi.

Uyg'otur subhi bahor elni fig'on birla sahob
Kim, sabuhiy chog'idur — mast bo'lung, ey ashob.

Tanosub (ar. – mos, mutanosib, daxldor) – baytda ma'no jihatdan bir-biriga yaqin va o'zaro mutanosib so'zlarni qo'llashga asoslangan badiiy san'at. Ilmi badi'ga doir mumtoz manbalarda muroat un-nazir nomi bilan ham keladi.

Olma yanoqing ko'rgach, men bandi nechuk o'lmay?
Bodom ko'zi fitna, pista dahani nozuk. (Lutfiy)

Xattining vasfin yozarmen kirpiku xoli bila,
Xat yozarda chun zaruratdur qalam birla midod. (Navoiy)

Ruju' (ar. – qaytish) – shoirning she'rdagi avvalgi misra yoki baytda ifodalagan fikridan voz kechib, keyingi misra yoki baytda uni yanada kuchliroq ifodalashiga asoslangan badiiy san'at. Ilmi badi'ga doir mumtoz manbalarda istidrok, ba'zan tadoruk nomi bilan ham keltiriladi.

Erur so'z mulkining kishvarsitoni,
Qayu kishvarsiton, Xusravnishoni.
Dema Xusravnishonkim, qahramoni
Erur, gar chin desang, sohibqironi. (Husayniy)

Kishiga o'xhamas, go'yo paridur,
Pari yo'q, oftobi xovariydur (Navoiy)

Tajohuli orif (ar.–bilib bilmaslikka olish). Bunda shoir o'zi tasvirlayotgan holatni so'roq ostiga olish bilan ifodani kuchaytiradi. Tajohuli orifda berilayotgan savol javobni talab qilmaydi, ya'ni aytilayotgan fikr mazmunan ritorik so'roqqa yaqin turadi.

Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu?
Og'iz yo g'unchayi xandonmidur bu? (Atoyi)

Kalomi jomi' (ar. – jamlovchi, umumlashtiruvchi so'z) – she'rda yoki baytda pand-nasihat, o'git, axloq-odobga oid, zamona va zamondoshlardan shikoyat bilan bog'liq fikrlarni keltirishga asoslangan she'riy san'at.

Mumtoz adabiyotimiz asarlarining deyarli barchasida pand-nasihat, o'git, axloq-odobga doir fikrlarni uchratish mumkin. Xususan, Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asaridagi ruboiylar boshdan-oyoq kalomi jomi' san'ati asosida yozilgan.

Har kimki habibing o'lsa evrul boshig'a,
Mahv o'l yuzig'a, jonni fndo qil qoshig'a,
Tosh ursa, ravoningni tufayl et boshig'a,
Tajdidi muhabbat angla bormoq qoshig'a.

Navoiy g'azallarining aksariyatida axloqiy yoki ijtimoiy ruhdagi baytlar uchraydi. Shuningdek, to'laligicha ijtimoiy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan ko'plab g'azallar mavjud. Masalan, shoirning quyidagi g'azali zamon va zamona ahlidan shikoyat asosiga qurilgan:

Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame
Kim, zamon osibidin bir-birga aytishsoq g'ame...

Savol va topshiriqlar

1. O'xshatishga asoslangan san'atlarga qaysilar kiradi?
2. Tashbihning turlarini sanang va misollar bilan tushuntiring.
3. Mubolag'aning qanday darajalarini bilasiz?
4. Husni ta'lil, tamsil va irsoli masal orasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarni sanang.

Asosiy adabiyotlar

1. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
2. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина, 1996.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ НМК, 1998.
5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.
6. Ҳожиаҳмедов А. Ҳусни таълил санъати. – Т.: Фан, 2006.
7. Мамажонов З. Мумтоз шеърий санъатларнинг назарий таснифи (ўхшатиш асосидаги санъатлар). – Т.: Akademnashr, 2016.
8. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). – М.: Наука, 1989.
9. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Ленинобод, 1972.

MUSHTARAK SAN'ATLAR

Tayanch tushunchalar:

- tazod
- tajnis
- ishtiqoq
- iqtibos
- aqd
- tazmin
- tatabbu'
- baroati istihlol

Reja:

1.Shakl va ma'no mubosabatlariga asoslangan san'atlar. Tazod, tajnis va ishtiqoq san'atlari.

2.Iqtibos va aqd san'atlarining o'xshash va farqli jihatlari.

3.Tazmin va tatabbu' san'atlari.

Tazod (ar. – zid qo'yish, qarshilantirish) – baytda ma'no jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llashga asoslangan she'riy san'at. Nazm va nasrda keng qo'llaniladi. Ilmi badi'ga doir manbalarda tazod san'ati mutazod, al-mutazod, mutobiqa, al-itizod kabi nomlar bilan keltiriladi.

Alisher Navoiyning quyidagi g'azali matla'sida birinchi misra faqat zid ma'noli so'zlardan tashkil topganligini ko'ramiz:

Ne tirigmen, ne o'lug, ne sog', ne bemormen,
Ayta olmankim, firoqingdin ne yanglig' zormen.

Ey shoh, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini,
Kim mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina

(Ogahiy)

Tajnis (ar. – jinsdosh, hamjins) – baytda shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin so'zlarni qo'llashga asoslangan she'riy san'at. Asosan nazmda, ba'zan nasrda ham istifoda etiladi. Ilmi badi'ga doir manbalarda tajnisning bir necha turlari farqlanadi. Turkiy adabiyotda tajnisning asosan quyidagi turlari keng qo'llanilgan:

1. Tajnisi tom yoki mutlaq tajnis – to'liq shakldoshlikka (harflar tarkibi jihatidan) asoslangan tajnis:

Sahnida yuz gul chiqorib bir yig'och,
Har gulining atri borib bir yig'och (Navoiy)

2. Tajnisi noqis (nuqsonli tajnis) – shaklan yaqin so'zlar o'zaro faqat unli tovushlar jihatidan farqlanuvchi tajnis:

Vafo muhrin bosur mehri jamolimg,
Jafo durdin berur dardi firoqing.

3. Tajnisi zoyid (orttirilgan tajnis) – shaklan yaqin so'zlarning biridan bir-ikki harfning ortiqcha bo'lishiga asoslangan tajnis:

Topib ul nuktadin ozor yig'lab,
O'zin tufroqqa soldi zor yig'lab (Navoiy)

4. Tajnisi muzori' – shaklan yaqin so'zlarning bir-biridan bir yoki ikki undosh tovush bilan farqlanishi natijasida vujudga keluvchi tajnis:

Shoh olinda hamisha hozir o'lsam,
Bu ish kayfiyatidin nozir o'lsam (Navoiy)

5. Tajnisi xat – arab yozuvidagi so'zlarning faqat nuqtalar orqali farqlanishiga asoslangan tajnis:

Jon-u ko'ngul kishvarining xonisiz,
Husn-u latofat tanining jonisiz (Lutfiy)

6.Tajnisi mukarrar – shaklan bir-biriga yaqin ikki so'zning misra oxirida yonma-yon kelishiga asoslangan tajnis

Ishq erur andoq murabbiykim, qilur etkach asar,
Bulbul o'lg'ay, ochsa yuz bir sarvi gulruxsor sor. (Navoiy)

7. Tajnisi murakkab – shakldosh so'zlarning biri yaxlit bir so'zdan, ikkinchisi ikki so'zdan iborat bo'lishi orqali vujudga keladigan tajnis:

Charx tortib xanjari hijron bu tun,
Qo'ymadi bir zarra bag'rimni butun.
Tunga borib bizni behol aylading,
Ne balolig' er emish, yo rab, bu tun. (Navoiy)

Tajnis san'ati mumtoz she'r shakli hisoblanmish tuyuq janridagi asarlarda keng qo'llaniladi.

Ishtiqoq (ar. – bir so'zdan boshqa so'z hosil qilish) – bir o'zakdan hosil bo'ladigan bir nechta so'zni bayt yo jumlada qo'llash san'ati. Ishtiqoq atamasi mumtoz poetikaga oid manbalarda turli nom bilan keltirilgan ("Tarjumon ul-balog'a"da muqtazab, "Ilmi bade' dar adabiyoti forsiy"da iqtizob, "Jam'i muxtasar" va "Al-mo"jam" da ishtiqoq). O'zakdoshlik har bir tilning ichki qonuniyatlari doirasida shakllanadi. Jumladan, forsiy va turkiy so'zlarda o'zakka turli affikslar qo'shish bilan yangi ma'no yoxud ma'no jilvalari hosil qilish xarakterli bo'lsa, arabcha so'zlarda ichki fleksiya asosiy o'rin tutadi.

San na javr etmak tilarsan, istagumdur oni man,
Kim muhibg'a har na mahbub aylasa, mahbub erur.

(Ogahiy)

Navoiyning quyidagi matla'li g'azali boshdan oxirigacha ushbu san'at asosida yozilgan:

Zihi visolingni tolib tutub o'zung matlub,
Muhabbatidin otingni habib atab mahbub.
Urujung oqshomi bo'lmay to'quz sipehr hijob,
Yuzung xijolatidin mehr o'lub vale mahjub.
O't ichra tushsa, bo'lur nisbati samandardek,
Kishiki, ishqing o'tig'a o'zin qilib mansub.
Iting hisobig'a kirgan hisob vaqtida,
Agarchi jurmi erur behisob, emas mahsub.
Kitobat etmaganingdin qalamda nol emas,
Ki tushti ko'ngli aro tob, uylakim, maktub.

Iqtibos (ar. – nur olish, ziyolanish) – Qur'on oyatlari va hadislarning matnini adabiy asarda aynan keltirishga asoslangan badiiy san'at. Masalan, "azza man qana' va zalla man tama'" (qanoat qiluvchi aziz, tama'gir esa xoru zalildir) hadisi quyidagi baytda aynan qo'llanilgan:

Xorlig'lar boshi tama' bilg'il,
Doimo azza man qana' bilg'il (Navoiy)

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida, devonlar debochalarida, "Xamsa" sarlavhalarida iqtibos san'atidan keng foydalanilgan.

Aqd (ar. – ikkita narsani bir-biriga mustahkam bog'lamoq, tugish) – Qur'on oyatlari va hadislar matnini she'riy asarlarda vazn va qofiya talabiga muvofiq juz'iy o'zgartishlar bilan keltirish san'ati.

Chekmay falak lutfung tuni, juz zikr ila tasbih uni,
Odam debon qahring kuni har dam "zalamno rabbano".

"Zalamno rabbano" so'zlari "A'rof" surasining 23-oyatidan olingan bo'lib, u: "Qolo rabbano zalamno anfusano" deb boshlanadi. Ushbu oyat, Odam Ato bilan Momo Havvo jannatdan haydalgandan keyin Tangriga qilgan tavbasining mazmunidir: Ikkisi aytdilar: "Ey, Rabbimiz! Biz o'zimizga (o'zimiz) zulm qildik. Agar bizni kechirmasang, biz, albatta, ziyon ko'ruvchilardan bo'lib qolurmiz". Navoiy she'r vazni talabiga muvofiq "rabbano" va "zalamno" so'zlarining o'rnini almashtirgan.

Tazmin (ar. – bir narsani ikkinchi narsa orasiga qo'ymoq) – she'rda o'zga bir shoir she'ridan bir misra yoki bir bayt kiritish san'ati. Ilmi badi'ga doir deyarli barcha manbalarda ushbu san'at haqida ma'lumotlar keltiriladi. Husayn Voiz Koshifiyning "Badoyi' ul-afkor fi sanoyi' ul-ash'or" (15-a.) asarida tazmin san'ati ikki guruhga ajratiladi: 1) tazmini musarrah – misra yoki bayti keltirilayotgan muallif nomi ko'rsatilgan tazmin 2) tazmini mubham – muallif nomi keltirilmagan tazmin. Shuningdek, Koshifiy tazminning taxmis va tasdis turlari haqida ham ma'lumot keltiradi.

Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1251-1252) asarida tazmin san'ati shoirning o'z fikriga dalil sifatida boshqa bir asardan barchaga ma'lum baytni keltirishi bilan bog'liqligiga e'tibor qaratiladi va tazmin sifatida keltirilayotgan bayt shoirning boshqa asaridan olingan o'z ijod mahsuli bo'lishi ham mumkinligi ta'kidlanadi. Alisher Navoiy ijodida tazmin san'atining istifoda etilishi aynan "Me'yor ul-ash'or" muallifi keltirgan mezonlarga mos keladi. Shoirning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi ayrim g'azallarida boshqa g'azallardagi misralar aynan keltirilganligini kuzatish mumkin. Masalan, "G'aroyib us-sig'ar"dan 479-raqam ostida o'rin olgan va

Ne tirikmen, ne o'luk, ne sog', ne bemormen,
Ayta olmonkim, firoqingdin ne yanglig' zormen

matla'si bilan boshlanadigan g'azalning birinchi misrasi "Navodir ush-shabob"dagi 471-g'azalning 5-baytiga tazmin sifatida kiritilgan:

Jon taloshurmen ne dardim bilgurur, ne sihhatim,
Ne o'lukmen, ne tirik, ne sog', ne bemormen.
Boborahim Mashrab o'zining:
Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.
G'am shomi firoqingda kabob etti falakni,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma –

tarzida boshlanuvchi g'azalida Lutfiyning mashhur:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma –

baytini aynan keltiradi.

Shuningdek, tazminning taxmis va tasdis bilan bog'liq turlari ham bo'lib, biz bu haqda musammatlar haqidagi mavzuda fikr yuritdik.

Tatabbu' (ar. – biror narsaning izidan borish; kuzatish) – o'zga bir shoir she'ridan ta'sirlanib, undagi vazn, qofiya va radifni saqlagan holda asar yaratish. Nazira, o'xshatma va javobiya deb ham yuritiladi. Tatabbu' Musulmon Sharqi adabiyotida adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning keng tarqalgan shakllaridan bo'lib, salaflar yoki zamondosh shoirlar bilan

muayyan tarzda o'zaro ijodiy musobaqaga kirishish bilan bog'liq an'ana hisoblangan. Bunda musobaqalashayotgan shoir biror asarga javob bitar ekan, unga ijodiy yondashishi, tanlangan mavzu, vazn va qofiya doirasida yangi fikr ayta olish imkoniyatiga ega bo'lishi talab qilingan.

Tatabbu' she'riyatning istalgan janri yoki shakli asosida: farddan dostongacha yozilishi mumkin. Mumtoz she'riyatimizda, xususan Alisher Navoiy ijodida tatabbu' asosan g'azal, qasida va doston shaklida bitilgan. Navoiyning lirik tatabbu'lari "Devoni Foniy" tarkibidan o'rin olgan bo'lib, ular ulug' shoirning o'z salaflari va ustozlariga yuksak ehtiromi mahsulidir. Devondagi g'azallarning 300 dan ortig'i aynan tatabbu' asosida yaratilgan bo'lib, eng ko'p tatabbu' Hofiz Sheroziy g'azallariga bog'langan (200 dan ortiq). Hofizning

Agar on turki Sherozi ba dast orad dili moro,
Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo

(Mazmuni:
Agar o'shal Sherozning turki ko'nglimizni ovlasa, qora xoli uchun Samarqandu Buxoroni nisor aylaymiz) deb boshlanuvchi g'azaliga Navoiy quyidagicha tatabbu' bitgan:

Gar on turki Xitoy no'sh sozad jomi sahboro,
Naxust orad so'i mo turktozi qatlu yag'moro.

(Mazmuni:
Agar u xitoylik turk may jomini ichsa, avval bizning ustimizga ot surib, o'ldirib, talon-toroj qiladi.

"Devoni Foniy"da qasida shaklida bitilgan tatabbu'lar ham mavjud bo'lib, ular "Sittai zaruriya" (Olti zarurat) qasidalar majmuasi tarkibiga kiradi.

Alisher Navoiyning epik she'riyati ham tatabbu' asosida yaratilgan bo'lib, uning "Lison ut-tayr" dostoni Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoniga, "Xamsa" tarkibidagi dostonlar esa Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy dostonlariga tatabbu' tarzida vujudga kelgan.

Baroati istehlol (ar. baroat – bir sohada ustunlik, istehlol – yangi oyni ko'rish talabi) – asarning qaysi mavzuga bag'ishlanganiga ishora qilishga asoslangan san'at. Bunda muallifning asar debochasi, masnaviy, qasida yoki marsiya avvali, kitobning bob va fasllari boshida keltirgan so'z va fikrlaridan o'quvchi asar va uning muayyan bobining mavzu va mundarijasi, asosiy mazmunini bilib oladi.

Masalan, Alisher Navoiyning soqiynomasida ustozlarga bag'ishlangan o'rinlar bor. Shulardan biri Jomiyga bag'ishlangan band bo'lib, ushbu bandning boshida keltirilgan quyidagi bayt baroati istihlolga misol bo'la oladi:

Soqiyo, jom ketur daryovash,
Ki zamone bo'layin daryokash.

"Xamsa" dostonlari boblarining nasriy sarlavhalari ham baroati istihlolning o'ziga xos namunasi bo'lib, kitobxon uchun bobning g'oyaviy mundarijasini anglashda yo'l ko'rsatkich bo'la oladi deyish mumkin. Masalan, "Layli va Majnun" dostonining 20-bobi sarlavhasi quyidagicha: "Majnunning atosi ani ishq bodiyasidin kelturub, Ka'ba tavofig'a olib borg'oni va ul munojot bahonasi bila ko'nglidagi chirni yozg'oni va duo qilmoq taronasi bilan xotiridag'i maxfiy maqosidin tilidin chiqarg'oni va Arafot ahlidin arasot qo'porg'ani".

Savol va topshiriqlar:

1.Mushtarak san]atlarga xos xususiyatlarni sanang.
2.Tajnisning qanday turlarini bilasiz? Misollar bilan tushuntiring.
3.Baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan:

Xatingdek xush nazokat bo'lmadi kotib kutubinda,
Labingdek xush takallum yo'qturur qolib qulubinda.

4.Iqtibos va aqd san'atlari orasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarni sanang.
5.Baroati istihlol qanday san'at?

Asosiy adabiyotlar

1.Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
2.Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина, 1996.
3.Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

4.Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ НМК, 1998.
5.Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.
6.Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). – М.: Наука, 1989.
7.Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Ленинобод, 1972.

ILMI QOFIYA HAQIDA MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar:

- ilmi qofiya
- raviy
- murdaf
- muassas
- mutlaq
- muqayyad
- mujarrad
- radif
- hojib

Reja:

1. Mumtoz qofiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Mumtoz qofiya turlari. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlari. Mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad(qaydli) qofiyalar.
3. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlari. Mutlaq va muqayyad qofiyalar.

Qofiya (ar.) – misralar oxiridagi qo'shimcha, so'z va so'z qo'shilmalarining o'zaro ohangdosh bo'lib kelishi. Qofiya mumtoz she'rshunoslikda vazn kabi she'riy ritmni vujudga keltiruvchi asosiy unsur bo'lib, uning bayt so'ngida qo'llanilishi zaruriy talablardan biri bo'lgan. Sharq musulmon adabiyotshunosligida qofiya haqidagi nazariy qarashlar maxsus fan – ilmi qofiyada o'z ifodasini topgan.

Qofiyalar o'zak tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Mujarrad qofiya (ar.) – yakka, yolg'iz, tanho. Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Bunday qofiya turida raviy harfi cho'ziq unlidan iborat bo'lishi yoki raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin tavjih – qisqa unli kelishi asosiy talab hisoblanadi. Forsiy va turkiy she'riyatda keng qo'llanilgan. Ushbu qofiya haqidagi ma'lumotlar Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam"(1218-1233), Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1253) asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda mujarrad qofiya raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur,
Kim jonga qaro balo bo'lubtur.

Bunda "qaro" va "balo" so'zlaridagi "o" raviysi cho'ziq unli bo'lib, qofiyadosh so'zlar shu harf bilan yakunlangan.

Mujarrad qofiyaning ikkinchi turida raviy undosh bilan yakunlanib, undan oldin qisqa unli keladi. Bunda qisqa unli tavjih deb yuritiladi.

Yor holidin menga vahkim xabar yo'qtur bu kun,
Bu jihatdin aqlu hushumdin asar yo'qtur bu kun.

Bunda "xabar" va "asar" so'zlari qofiyadosh bo'lib, "r" undoshi raviy, undan oldingi "a" qisqa unlisi tavjih bo'lib hisoblanadi. Qofiya raviy harfi bilan yakunlanyapti va shu orqali mujarrad qofiya vujudga kelyapti .

2. Murdaf qofiya – Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ridfli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida raviy harfidan oldin cho'ziq unlilardan biri – ridfi asliy, ba'zan esa ridfi zoyid keladi. Murdaf qofiya forsiy va turkiy she'riyatda keng qo'llanilgan. Ushbu haqidagi ma'lumotlar Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam"(1218-1233), Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1253) asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda murdaf qofiya raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

To bo'ldi ko'ngul ul ko'zi usrukka giriftor,
El ko'ziga sog'men, vale o'z-o'zuma bemor
("G'aroyib us-sig'ar",182-g'azal)

baytida "giriftor" va "bemor" so'zlari qofiya, "r" – raviy, undan oldin to'rgan "o" unlisi – ridfi asliy.

Chun kinavu qatlin angladim rost,
Qildim neki mumkin erdi darxost – ("Layli va Majnun")

baytida "rost" va "darxost" so'zlari qofiya, "t" harfi – raviy, "o" – ridfi asliy, "s" - ridfi zoyiddir.

3.Muqayyad (qaydli) qofiya – Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Qaydli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida o'zak tarkibida qisqa unlidan so'ng qator undosh keladi. Bunda qisqa unli hazv, raviydan oldin to'rgan undosh qayd deb ataladi. Muqayyad qofiya forsiy va turkiy she'riyatda u qadar keng qo'llanilmagan. Mumtoz qofiyaga doir manbalarda muqayyad qofiya haqida ma'lumotlar keltirilmaydi.

Ey ko'ngul, yor o'zgalar domig'a bo'ldi poybast,
Senga mushkil holatu bizga qatiq ish berdi dast. –
("G'aroyib us-sig'ar", 76-g'azal)

baytida "poybast" va "dast" so'zlari qofiya, "t" harfi – raviy, "s" – qayd, qisqa "a" unlisi hazv hisoblanadi.

4. Muassas qofiya – Qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Ta'sisli qofiya deb ham ataladi. Bunday qofiya turida cho'ziq "o" unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladi. Cho'ziq "o" unlisi ta'sis deb, undan keyingi undosh daxil deb, raviy oldidagi qisqa unli esa ishbo' deb ataladi.

Muassas qofiya haqidagi ma'lumotlar Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam"(1218–1233), Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1253) asarlarida keltirilgan. Ushbu asarlarda muassas qofiya raviydan avval keluvchi (moqabli raviy) harflar bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Gar yetar ag'yordin yuz ming jarohat, ey, ko'ngul,
Chunki bordur yor uchun bor ayshu rohat, ey ko'ngul. –
("Navodir ush-shabob", 384-g'azal)

baytida "jarohat" va "rohat" so'zlari qofiya, "t" harfi – raviy, "o" – ta'sis, "h" undoshi – daxil, "a" unlisi – ishbo' hisoblanadi.

Ba'zan ta'sisli qofiyada ikki misradagi daxil ikki xil undoshdan iborat bo'lishi ham mumkin. Masalan:

Ishq ahli go'ristonida qabrim chu zohir bo'lg'usi,
Farhod aning toshin yo'nub, Majnun mujovir bo'lg'usi.
("G'aroyib us-sig'ar", 627-g'azal)

baytida "zohir" va "mujovir" so'zlari qofiya bo'lib, daxil ikki xil undoshdan: "h" va "v" undoshlaridan iborat ekanligini kuzatish mumkin.

Qofiyalar tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1) muqayyad qofiya (ar.) – bog'langan, kishanlangan. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Raviy harfi bilan tugallanadi. Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam"(1218–1233) asarida muqayyad qofiya raviy harfining ikki nav'idan biri sifatida, Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1253) asarida qofiyaning holatiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri sifatida keltirilgan.

O'zak raviy harfi bilan yakunlanganligi, ya'ni o'zakda raviydan keyin hyech qanday harf qo'llanilmaganligi uchun zamonaviy she'rshunoslikda muqayyad qofiyani "o'zak qofiya" deb atash an'anasi ham mavjud (U.To'ychiyev).

Elga sharaf bo'lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab. –
("Hayrat ul-abror")

baytida "nasab" va "adab" so'zlari qofiya bo'lib, raviy "b" harfidir. Qofiya raviy harfi bilan tugallanayotganligi uchun ushbu qofiya turi M.q. hisoblanadi.

2) mutlaq qofiya (ar.) – yetuk, to'liq. Qofiyaning tuzilishiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri. Mutlaq qofiyada raviy harfidan keyin qofiyaning boshqa harflari (vasl, xuruj, mazid, noyira) ham ishtirok etadi. Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam" (1218–1233) asarida mutlaq qofiya raviy harfining ikki nav'idan biri sifatida, Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1253) asarida qofiyaning holatiga ko'ra farqlanuvchi turlaridan biri sifatida keltirilgan.

Alisher Navoiy g'azaliyotida M.q. keng qo'llanilgan. Masalan:

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,
Ko'ngluma har birining dardu balosinmu deyin? –
(Navodir ush-shabob, 403-g'azal)

baytida "qarosinmu", "balosinmu"so'zlari mutlaq qofiya bo'lib, ulardagi "o" unlisi raviydir. Raviydan keyin kelgan "s" undoshi – vasl, "n" undoshi – xuruj, "m" – mazid va qofiya oxiridagi "u" unlisi noyira hisoblanadi, "s" harfidan keyin kelgan qisqa "i" unlisi esa nafozdir. Mutlaq qofiya hisoblanishi uchun raviydan so'ng birgina vasl xarfining qo'llanilishi ham kifoya qiladi.

Radif (ar.) – izma-iz keluvchi, otning orqasidan ergashib boruvchi. Mumtoz she'r unsurlaridan biri. She'riy misralarda qofiyadan so'ng aynan takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlar qo'shilmasi. Radif she'rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni takrorlash, kitobxon e'tiborini asosiy g'oyaga jalb etib, muallif g'oyaviy niyatini chuqurroq yetkazib berishga xizmat qiladi. Mumtoz she'rshunoslikda R. qofiya ilmi tarkibida o'rganilgan. Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam"(1218–1233), Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1251–1252), Abdurahmon Jomiyning "Risolai qofiya", Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" (1436–37) asarlarida R. forsiy she'riyatga xos bo'lib, arablarda qo'llanilmaganligi ta'kidlanadi.

Alisher Navoiy ijodida radif muhim ahamiyatga ega bo'lib, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidan o'rin olgan g'azallarning deyarli teng yarmini (1294 g'azal) radif qo'llanilgan baytlar tashkil qiladi. Shoir R. lari bir bo'g'indan 9 bo'g'ingacha bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Masalan, shoirning

Dilbaro, sendin bu g'amkim, menda bordur, kimda bor?
Furqatingdin bu alamkim, menda bordur, kimda bor? –
("Navodir ush-shabob", 148-g'azal)

bayti bilan boshlanuvchi g'azalida R. "menda bordur, kimda bor?" so'zlaridan iborat bo'lib, 7 bo'g'indan iborat.

Hojib (ar.) – pardador, berkituvchi. Mumtoz she'r unsurlaridan biri. She'riy misralarda qofiyadan oldin aynan takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlar qo'shilmasi. hojib qo'llangan she'r mahjub deb ataladi. Mumtoz poetikaga doir manbalarda hojibning bir ma'noda qo'llanilishi zaruriy shartlardan hisoblangan.

Alisher Navoiy ijodida hojib ko'proq "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda qo'llanilgan. Masalan, "Layli va Majnun" dostonidan olingan

Chek aynima ishq to'tiyosin,
Ur qalbima ishq kimiyosin! –

baytida "ishq" so'zi hojib bo'lib kelgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Ilmi qofiyaning mumtoz poetikadagi o'rni haqida so'zlab bering.
2. Mumtoz qofiya turlarini sanang. G'azaliyotimizda ularning qaysilari faol qo'llanilgan?
3. Mujarrad qofiyaga ta'rif bering va Navoiy ijodidan misol keltiring.

4. Murdaf qofiyaga ta'rif bering va Bobur ijodidan misol keltiring.
5. Muassas qofiyaga ta'rif bering va Navoiy ijodidan misol keltiring.
6. Muqayyad qofiyaga ta'rif bering va "Xamsa"dan misol keltiring.
7. Radif va qofiyaning o'xshash va farqli jihatlari haqida so'z yuriting. Ularning qofiyaga qanday aloqasi bor?
8. Navoiyning nechta g'azali muraddaf g'azal hisoblanadi?

Asosiy adabiyotlar

1. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ НМК, 1998. – 158 б.
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги.–Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Т.:, 1997. – 20 б.
4. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1–2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.
5. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 426 б.
6. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ,1990.– 240 б.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдураҳмон Жомий. Рисолаи аруз / масъул муҳаррир А.Эркинов, таржимон, шарҳлар ва изоҳлар муалифи Д.Юсупова. – Т.: ТАМАДДУН, 2014. – 100 б.
2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1988. Т.3. – 616 б.
3. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Наводир уш-шабоб. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1989. Т.4. – 557 б.
4. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Бадоеъ ул-васат. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1990. Т. 5. – 542 б.
5. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Фавойид ул-кибар. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1990. Т.6. – 568 б.
6 .Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1991. Т.7. – 392 б.
7. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1991. Т.8. – 544 б.
8. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1992. Т.9. – 356 б.
9. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1992. Т.10. – 448 б.
10. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1993. Т. 11. – 640 б.
11. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 1996. Т.12. – 326 б.
12. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.
13. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
14. Акбарова М. Алишер Навоий газалларида қофия: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Т., 1997. – 20 б.
15. Бобур Заҳириддин. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т.: Фан, 1971. – 413 б.
16. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006. – 128 б.
17. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. – 168 б.
18. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). – М.: Наука, 1989. – 240 с.
19. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари.– Т.: Ўқитувчи,1979. – 186 б.
20. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур.Ғулом, 1976.
21. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат.–Т.: Фан, 1976. – 120 б.
22. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.
23. Тоиров У. Фарҳанги истилоҳоти арўзи Ачам. – Душанбе: Маориф, 1991. – 560 с.
24. Тоиров У. Қомуси қофия ва арузи шеъри Ачам. Ч.1. – Душанбе: Ирфон, 1994. – 512 с.
25.Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985. – 208 б.
26. Фитрат. Аруз ҳақида: Адабиёт муаллимлари ва илм толиблари учун / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.
27. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Т.: ЎзМЭ, 2006. – 430 б.
28. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013. – 406 б.
29. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 224 б.
30. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999. – 240 б.
31.Ҳожиаҳмедов А. Ҳусни таълил санъати. –Т.: Фан, 2006. – 288 б.
32. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ НМК, 1998. – 158 б.
33. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ, 1999. – 240 б.
34. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. – 288 б.
35. Юсупова Д. Алишер Навоий «Хамса»сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Т.: МУМТОЗ СЎЗ, 2011. – 144 б.
36. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Т.: TAMADDUN, 2016. – 304 б.

MUNDARIJA

I QISM

Aruz vazni qoidalari 3
Aruz vazni haqida umumiy ma'lumot 5
Aruz vaznining nazariy asoslari. Qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolar 8
Rukn va bahr tushunchalari haqida umumiy ma'lumot 14
Bahrlar va ularning tarkibiy tuzilishi 20
Bir xil asliy ruknlardan tarkib topgan bahrlar. 22
Ramal bahri 22
Ramal bahrining musamman vaznlari 25
Ramal bahrining musaddas vaznlari 34
Hazaj bahri 38
Hazaj bahrining musamman vaznlari 42
Hazaj bahrining musaddas vaznlari 49
Ruboiy vaznlari 55
Ruboiy vaznining axram shajarasi 64
Rajaz bahri 72
Mutaqorib bahri 76
Mutadorik va komil bahrlari 83
Turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar.
Sari' bahri 87
Xafif bahri 91
Mujtass bahri 96
Muzori'' bahri 101
Munsarih bahri 105
Tavil bahri 108
Ariz bahri 108
Mumtoz aruzshunoslik asoslari 110

II QISM

Mumtoz poetika haqida umumiy ma'lumot 116
Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari. Baytli she'r shakllari 121
Musammatlarning shakliy xususiyatlari 141
Ham bayt, ham bandga asoslangan she'r shakllari 147
Ilmi badi' yoki badiiy san'atlar talqini. 154
Lafziy san'atlar 154
Ma'naviy san'atlar 163
Mushtarak san'atlar 171
Ilmi qofiya haqida ma'lumot 177
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 181

DILNAVOZ YUSUPOVA

ARUZ VAZNI QOIDALARI VA MUMTOZ POETIKA ASOSLARI

Muharrir: N.Namozova
Sahifalovchi: S.Omonova
Musahhih: P.Omonova

Нашриёт лицензияси A1 № 322. 26.01.2018.
Босишга рухсат 04.02.2019 да берилди.
Бичими 60x84 $^{1}/_{16}$. Офсет қоғози.
Офсет босма усулида босилди.
«Arial» гарнитураси.
Шартли босма табоқ 11.5. Адади 1000 нусха.
Buyurtma raqami №1.

«TA'LIM-MEDIA» нашриётида tayyorlandi
«ELNUR-PRINT» МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Toshkent shahri Navoiy ko'chasi 30 a-uy.

DILNAVOZ YUSUPOVA

ARUZ

VAZNI QOIDALARI VA MUMTOZ POETIKA ASOSLARI

ISBN 978-9943-5351-2-1

9 789943 535121